



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASINING
BOJXONA INSTITUTI**

**HARBIY TA’LIM TIZIMIDA KASBIY MADANIYAT
SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MASALALARI**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2024-yil 20-dekabr



TOSHKENT

“Harbiy ta’lim tizimida kasbiy madaniyat shakllanishining ijtimoiy-falsafiy masalalari” // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami – T.: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti, 2024. –199 b.

Ushbu to‘plamga Oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ofitserlarni tayyorlashda kasbiy madaniyatni shakllanishining zamonaviy holati, dolzarb masalalari va istiqbollari bo‘yicha soha olimlari va mutaxassislarining ilmiy fikr-mulohazalari va mavzuga bag‘ishlangan maqolalari kiritilgan.

Mazkur konferensiya materiallaridan ilmiy xodimlar, oliy harbiy ta’lim muassasalarining professor — o‘qituvchilari, mustaqil izlanuvchilar, kursant va tinglovchilar hamda boshqa keng kitobxonlar ommasi foydalanishi mumkin. To‘plamga kiritilgan ma’ruzalar materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.

Mas’ul muharrirlar: Madaliyeva R.X. – s.f.n.
Mardonov B.M. – s.f.b.f.d. (PhD)

Tahrir hay’ati: Karimjonova M.I. – p.f.b.f.d (DSc), dots.
Nigmanov E.A. – i.f.n., dots.
Yuldasheva U.S. – i.f.n., dots.
Abdusamedov N.A. – f.f.n.
Quvatova Z.O. – o‘qituvchi

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

© Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti, 2024

MUNDARIJA

U.N.Botirov	Konferensiya ochilishi. Kirish soʻzi	5
M.I.Karimjonova	Bojxona organlari xodimlarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy tendensiyalar	7
Sh.A.Akramova	Harbiy xizmatchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda harbiy pedagogika fanining imkoniyatlari	12
M.T.Tojiboyev	Kasbiy madaniyatning tarixiy-ilmiy ildizlari	23
X.B.Saitxodjayev	Harbiy xizmatchilar kasbiy madaniyatni shakllantirishda gʻoyaviy tarbiyaning oʻrni	33
P.X.Мадалиева	Значение эмоционального интеллекта в формировании профессиональной адаптации военных кадров	38
Y.O.Ernazarova	Harbiy xizmatchilar kasbiy tayyorgarligini oshirishda kasbiy kompetentlikning oʻziga xosligi	44
R.S.Reimbayev, N.K.Oʻrazbayev, B.A.Teshaboyev, Z.E.Pardayev	Harbiy taʼlimda kasbga yoʻnaltirilganlikning oʻziga xos xususiyatlari	53
O.E.Allayarov	Harbiy taʼlim tizimida kasbiy madaniyatni shakllantirishda falsafa fanining ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi	59
M.S.Xoliyarova	Prokuratura tizimining oʻziga xosligi va prokurorlar maʼnaviy qiyofasi. qonun ustuvorligi va axloq masalalari	65
B.M.Mardonov, Z.O.Quvatova	Boʻlajak ofitserlar kasbiy tayyorgarligi – kasbiy rivojlanishining asosi sifatida	72
Л.Ф.Зарипова	Психологическая подготовка будущих офицеров к профессиональной деятельности — как важный компонент образовательного процесса	77
U.S.Yuldasheva	Bojxona xodimining axloqiy fazilatlari	82
D.A.Yusubov	Bojxona xodimlarining soʻzlashuv madaniyati	86
A.Sh.Shadmankulov	Bojxona taʼlimini innovatsion rivojlantirish jarayonlari	93
I.Yu.Mullajonov	Zamonaviy harbiy mutaxassislarni tayyorlashda sharq mutafakkirlari ilmiy merosining ahamiyati	98
M.R.Rafikova	Boʻlajak bojxona xizmati organi xodimlarini kasbiy Faoliyatga tayyorlash jarayonida huquqiy madaniyatni takomillashtirish	103
R.SH.Sharipov	Harbiy taʼlim tizimidagi boʻlajak ofitserlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini rivojlantirish omillari	108
A.M.Muinov, A.T.Ergashev, Sh.K.Raimov	Harbiy kadrlarni tayyorlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning oʻrni	114
D.X.Razaqov	Komillikka intilish negizlari	119

Z.O.Xudayorova, R.I.Erkinov	Oliy harbiy ta'lim muassasalari — O'zbekiston qudratli armiyasining garovi	122
D.A.Sa'dullayeva	Harbiy ta'lim tizimida kasbiy madaniyatni shakllantirishning psixologik va motivatsion jihatlari	126
A.O.Xudoykulov	Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari	131
T.X.Normetov	Harbiy kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy, huquqiy hamda falsafiy tahlili	137
Z.O.Xudayorova, A.A.Xaydarov	Harbiy kadrlar kompetentligining ta'lim samaradorligiga ta'siri	142
B.T.Mirzaakbarov	Sergak va hushyor bo'lish — barchamizning burchimizdir!	148
E.A.Abduraimov	Harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini oshirishda psixologik tayyorgarlikning o'rni	155
B.T.Xaitov	Kursantlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda axloqiy tayyorgarlikning o'rni	163
J.Sh.Ergashev	O'zbekistonda madaniy boyliklarni saqlab qolishda javobgarlikni belgilash masalalari	168
N.K.O'razbayev, L.Sh.Turayev	Harbiy ta'lim muassasalarida ofitser kadrlarning kasbiy kompetentlikligini takomillashtirish	174
A.Sh.Shadmankulov	Bojxonachilarning salohiyatli ta'lim maskani	179
U.I.Nurmatov, Z.T.Sobirova	Harbiy ta'lim tizimlarida kasbiy madaniyat shakllanishining ijtimoiy-falsafiy masalalari	184
E.L.Toshpulatova	Harbiy ta'lim tizimida kasbiy madaniyat shakllanishining ijtimoiy-falsafiy masalalari	192

KIRISH SO‘ZI

Botirov Umid Negmuratovich,

Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti boshlig‘i o‘rinbosari

Assalomu alaykum hurmatli konferensiya ishtirokchilari, aziz ustozlar, hamkasblar va mehmonlar!

Sizlarni Bojxona institutida tashkil etilgan **“Harbiy ta’lim tizimida kasbiy madaniyat shakllanishining ijtimoiy-falsafiy masalalari”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ko‘rib turganimdan benihoyat xursandman.

Taraqqiyotning yangi bosqichida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar barcha sohalarida, xususan, harbiy ta’limda ham salmoqli natijalarni ko‘rsatib kelmoqda. Hammamizga ayonki, davlatning taraqqiyotini belgilaydigan va millatni qudratli qiladigan omil – bu ilm-fan, ma’rifat, ta’lim va tarbiyadir.

Hozirgi davrda respublikamizning oliy harbiy ta’lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash va malakali kadrlarni tayyorlashning yangicha modellarini shakllantirish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid ilg‘or pedagogik faoliyat olib borilmoqda.

Buning asosiy maqsadi mamlakatimizda strategik islohotlar doirasida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari jarayonida jismonan yetuk va ma’nan barkamol yosh harbiy avlodni voyaga yetkazishga oid davlat siyosatini yangi bosqichga ko‘tarishdir.

Bugungi kunda jahonda kechayotgan tahlikali va barchamizdan ogohlikni talab etadigan davrda, armiya mamlakat uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Davlat hududini yaxlitligi, sarhadlarining daxlsizligi, shuningdek fuqarolarning tinchligi, osoyishta hayoti va xavfsizligini ta’minlash — harbiy xizmatchilarimiz oldida turgan eng mas’uliyatli vazifasidir. Qurolli Kuchlarimiz ofitserlari nafaqat professional harbiy faoliyat subyektlari, balki mamlakatda bo‘layotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy jarayonlarning faol

ishtirokchilaridir. Bunda esa harbiy xizmatchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan yagona omil bu **kasbiy madaniyatdir**.

Harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining kasbiy madaniyati — avvalambor chuqur bilim va intellektual salohiyatga, o'z xizmat burchini bajarishda qat'iy iroda va puxta tayyorgarlikka hamda mehnat faoliyatida yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lish demakdir.

Shu asnoda kasbiy madaniyatning mazmun-mohiyati va uni oliy harbiy ta'lim tizimida shakllantirish mexanizmi, omillari va muammolari yuzasidan ilmiy-amaliy muloqot yuritish bugun Bojxona institutida o'tkazilayotgan anjumanning bosh maqsadidir.

Bugungi tadbirimizning asosiy vazifasi harbiy ta'limning samaradorligini oshirish orqali yuksak malakali, o'z sohasini mohir ustalari bo'lgan, har qanday vaziyatda xizmat burchini bajara oladigan, Vatanimizga sadoqatli va chin fidoyi professional kadrlarni tayyorlash masalalarini muhokama qilish, bu borada yangi g'oyalarni aks ettirish, dolzarb va ustuvor vazifalarni belgilab olishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur konferensiya soha mutaxassislari o'rtasida hamkorlikni faollashtirish, olimlar va professor-o'qituvchilar bilan tajriba almashish, samarali muloqotni yo'lga qo'yish, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, o'zaro hamkorlikning bosqichlari va istiqbollari aniqlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini yanada jonlantirishga xizmat qilmog'i lozim.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Umid qilamanki, bugungi anjuman qizg'in va konstruktiv ruhda o'tadi, ishtirokchilar o'zlarining to'plagan boy tajribalarini o'rtoqlashadilar, qiziqarli fikr-mulohazalari va taklif-tavsiyalarini bayon etadilar.

So'zim yakunida "Harbiy ta'lim tizimida kasbiy madaniyat shakllanishining ijtimoiy-falsafiy masalalari" mavzusida o'tkazilayotgan konferensiyani ochiq deb e'lon qilaman va barcha ishtirokchilariga ijodiy muvaffaqiyat va davlatimiz ravnaqi yo'lidagi faoliyatlarida ulkan zafarlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat!

BOJXONA ORGANLARI XODIMLARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Karimjonova Munavvar Ibragimovna

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti

“Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar” kafedrası

professori v.b., p.f.d.(DSc), dotsent

e-mail: KMI23021967@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bojxona organi xodimlarining kasbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijtimoiy – falsafiy jihatlar hamda zamonaviy tendensiyalarning tahlillari yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: kasbiy madaniyat, bilim va koʻnikmalar, muloqot madaniyati, ijtimoiy omillar, axloq qoidalari, bojxona xodimi, maʼnaviy-axloqiy fazilatlari, vatanparvarlik.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish jamiyat, millatning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi qudratli kuch, inson va jamiyat rivojlanishining negizi sifatida Yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh omili hisoblanadi.


Taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi konstitutsiyasining 42-moddasida “Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq toʻlashning belgilangan eng kam miqdoridan kam boʻlmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniş huquqiga ega” ekanligi belgilab berilgan.

Shu bois, mamlakatimizda bugungi kunda inson qadri tamoyili asosida barcha fuqarolar oʻzlarining xohlagan va qobiliyatlar va malakalari yetishi mumkin boʻlgan

kasblarni tanlashi hamda o'z faoliyatlarini erkin hech qanday ta'ziqlarsiz erkin amalga oshirishlari mumkindir.

Kasbiy madaniyatli mutaxassislarni tayyorlash iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Uning rivojlanib borishi natijasida jamiyat ravnaq topadi. Usiz buyuk davlat qurib bo'lmaydi. Chunki, kasbiy madaniyatga ega bo'lgan mutaxassislar jamiyat va millat ravnaqining boy poydevori sanaladi. Demak, kasbiy madaniyat nihoyatda keng tushuncha bo'lib, Yangi O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishni o'zida mujassam etadi. O'zbekistonda kasbiy madaniyatli kadrlarni tayyorlashga kuchli e'tibor berilishining boisi ham ana shunda. Shu o'rinda kasbiy madaniyat tushunchasining mazmun mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, Kasbiy madaniyat — bu mutaxassisning kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy sifatlar majmuasidir deb ta'kidlash mumkin bo'ladi.

Kasbiy madaniyat — bu nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki axloqiy qadriyatlar, me'yorlar va an'analar tizimidir desak mubolag'a bo'lmaydi. Kasbiy madaniyatning mohiyati bu har bir kasb egasining u xoh professor o'qituvchi, shifokor, injener-quruvchi, oddiy ishchi yoki bojxona xodimi bo'ladimi — bu mutaxassisning kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy sifatlar majmuasidan iborat bo'lib va ular quyidagilardan tashkil topadi (1-rasm).



1-rasm. Kasbiy madaniyatning tarkibiy qismlari

Ta'kidlash joizki kasbiy madaniyat insonning mehnat faoliyatida namoyon bo'ladi. Shu bois, har bir kasb egasi shaxs sifatida kasbiy shakllanishining ikki tomoni mavjud bo'lib, shaxsning o'z individual xususiyatlarga bog'liq bo'lgan ichki tomoni hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy sharoitlari hamda maqsadlari bilan aniqlanadigan tashqi tomonlari.

Bo'lajak mutaxassisni kasbiy mehnat faoliyatiga tayyorlash, uning mehnat bozorida raqobat qila olish qobiliyatini shakllantirish maqsadida ijtimoiy yetuk shaxsni voyaga yetkazish va tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifa insonning talab va ehtiyoji, qobiliyati, ruhiy-jismoniy imkoniyatlari hamda ijtimoiy va etnik omillar ta'sirini hisobga olgan holda o'quv jarayoni hamda o'quv ishlab chiqarish faoliyati doirasida dasturlashtiriladi va amalga oshiriladi. Kasb malakasi tushunchasi kasbiy mahorat bilan bog'liq bo'lib, bunda biror-bir o'quv yurtini bitiruvchining yuqori darajada kasbiy ko'nikma va malakalarni egallagani tushuniladi.

Bojxona organlari faoliyatida bojxona xodimini tayyorlash borasida bir qator tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, bojxonachi kasb egasi sifatida ofitserlarni tayyorlab beruvchi Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Bojxona institutida Bojxona ishi va


Muhtaram Prezidentimizning joriy yilning 18-20-noyabr kunlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Oliy Majlisi Senati majlislarida o'tkazilgan yig'ilishdagi ma'ruzalarida ta'lim sifatini oshirish, sog'liqni saqlash va sportni rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash vazifalari ham ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, xususiy ta'lim sohasida investorlarni qo'llab-quvvatlash hamda sun'iy intellektni qo'llash, franchayzing, kapital bozori, "startap"lar sohasidagi munosabatlarning qonuniy asoslarini yaratish vazifasi qo'yildi.

Shu bois, mamlakatimizda xalqaro miqyosda raqobatbardosh, vatanparvar, hamda kreativ yondashadigan va o'z kasbini puxta egallagan kadrlar tayyorlash bugungi kunining muhim vazifasiga aylangan.

Kasbiy madaniyat shakllanishi murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayon bo'lib, u doimiy rivojlanishni, takomillashtirishni va yangilanishni talab etadi. Zamonaviy

jamiyatda kasbiy madaniyatning roli tobora ortib bormoqda va u mutaxassisning muvaffaqiyatli faoliyati uchun muhim omil hisoblanadi.

Bu borada jamiyatda insonlarning kasbiy madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishga bir qator ijtimoiy omillar ta'sir qiladi jumladan (2-rasm).



2- rasm. Kasbiy madaniyat shakllanishining ijtimoiy omillari

Kasbiy madaniyatning falsafiy asoslariga to'xtaladigan bo'lsak barcha kasblar kabi bojxona organi xodimida ham bir qator odob-axloq qoidalariga mos va xos bo'lgan tushunchalar shakllantirilgan bo'lishi kerak va uni o'z ustida doimo rivojlantirib takomillashtirib borishi kerak.

Ta'kidlash joizki, bojxona organi xodimlari mamlakatimizning barcha hududlarida chegara bojxona postlari, aeroport va tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postlarida xizmat faoliyatini olib boradilar. Ayniqsa aeroport bojxona postlarida harakatlanayotgan xorijlik va respublikamiz fuqarolari eng avvalo bojxona xodimiga ro'baro' bo'lishadi.

Shu bois, o'ylaymanki barcha xodimlarimiz Bojxona qo'mitasi tomonidan 2020-yil 4-noyabrda qabul qilingan "Davlat bojxona xizmati organi xodimining odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 198-son buyrug'iga asosan o'z xizmat vazifalarini yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlari, vatanparvarlik va xizmat burchiga sadoqat hissini shakllantirish, urf-odat, an'analar bilan belgilangan jamoat tartibiga rioya etishlarini ta'minlash, ular tomonidan nojo'ya xatti-harakatlar sodir

etilishining oldini olishga oid normalarga amal qilgan holda o'z xizmat burchlarini olib bormoqdalar.

Bizning fikrimizcha bugungi kunda nafaqat bojxonachi kasb egasi, balki barcha kasb egalarini kasbiy madaniyat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari jumladan, uzluksiz kasbiy ta'limni ta'minlash (barcha soha vakillari va kasb egalari uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'z bilimlarini oshirib borish), kasbiy etika normalariga rioya qilish (doimiy xizmat faoliyatlarida), innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish (raqamli texnologiyalarni ya'ni IT texnologiyalarni muntazam o'rganib borish), xalqaro tajribani o'rganish (eng ilg'or xorijiy tajribalarni soha bo'yicha o'rganish va tahlillar qilish) hamda shaxsiy rivojlanishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Oliy Majlisi Senati majlislarida o'tkazilgan yig'ilishdagi ma'ruzasi. 2024-yil 18-20-noyabr.
3. Bojxona qo'mitasining "Davlat bojxona xizmati organi xodimining odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 198-son buyrug'i. 2020-yil 4-noyabrda.
4. [https://uza.uz/ru/posts/yoshlar-kasbiy-madaniyatini-shakllantirishning-dolzarb -muammolari](https://uza.uz/ru/posts/yoshlar-kasbiy-madaniyatini-shakllantirishning-dolzarb-muammolari).
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/uvchilar-kasbiy-madaniyatini-shakllantirish-tizimiga-tasir-etuvchi-amaliy-psihologik-omillar/viewer>

HARBIY XIZMATCHILARNI KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA HARBIY PEDAGOGIKA FANINING IMKONIYATLARI

Akramova Shaxnoza Abrorovna -

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar
bilan ijtimoiy ishlash kafedrasida boshlig‘i o‘rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor, podpolkovnik
e-mail: xabibasevinch@mail.ru*

Annotatsiya: Globallashuv jarayonlari sharoitida jahonda mamlakatlarning geosiyosiy manfaatlari to‘qnashib kelayotgan murakkab davrda mamlakatning harbiy salohiyatini yanada kuchaytirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu munosabatda harbiy xizmatchilarning aqliy, axloqiy, ma’naviy, psixologik va professionalligini belgilovchi boshqa kompetensiyalarini yanada mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning kasbiy ko‘nikmalari (hard skills) va shaxsiy sifatleri (soft skills)ni shakllanishida harbiy pedagogika fanining imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Vatanga muhabbat, geosiyosiy vaziyat, kasbiy tayyorgarlik, hard skills, soft skills, harbiy pedagogika, kasbiy ko‘nikmalar, bo‘lajak ofitserlar, harbiy xizmatchilar.

Dunyoda geopolitik vaziyatning o‘zgarib borishi bilan harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligiga, shu qatorda axloqiy-irodaviy sifatlarini shakllantirishga nisbatan yangi talablar qo‘yilmoqda. Harbiy ta’lim tizimi har bir mamlakatning tinchlik va osoyishtaligini saqlashning kafolati sifatida ilm maydonida dolzarb masala sifatida maydonga chiqmoqda. Shu davrga qadar ko‘p narsalar o‘zgardi, biroq asosiy masala — o‘z Vatani va xalqini himoya qilishga shay bo‘lgan harbiy soha mutaxassislarini tayyorlash – vazifasi o‘zgarmay kelmoqda.

Zamonaviy urushning xususiyati va qurolli jangni olib borishning turlarini rivojlanish istiqbollari ko'ra, turli xil kuch va vositalari asosida o'rta muddatli va ko'p muddatga mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak ofitserlarni shaxsiy, eng avvalo axloqiy-irodaviy sifatlarini shakllantirish yuzasidan kasbiy tayyorgarlikka oid ta'lim-tarbiya mazmuni, o'qitish vositalari va metodlarini modernizatsiyalash ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

Jahonda zamonaviy sharoitlardagi Qurolli kuchlarga axloqiy-ruhiy va jismoniy sifatlari rivojlangan, harbiy xizmatni o'tashga nisbatan yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlash uchun shart-sharoitlarni shakllantirishga nisbatan yuqori vazifalar qo'yilmoqda. Shunga ko'ra, harbiy xizmatga nisbatan o'z fuqarolarini tayyorlash bo'yicha 32 ta yetakchi mamlakat – NATO a'zolarining tajribasiga nisbatan muayyan qiziqishni namoyon etmoqda[1]. Ko'pgina mamlakatlarning Qurolli kuchlari boshqaruvi o'z tarkibiga munosib shaxsiy tarkibni jamlash yuzasidan qator muammolarga duch kelmoqda. Ulardan eng asosiylari – ko'p sonli yoshlarda Vatanga muhabbat, burchga sadoqat, mas'uliyat, daxldorlik tuyg'ulari va intellektual darajasining pastligi, salomatlik holatining zaifligi, jismoniy tayyorgarlikning yetarli darajada emasligi, armiyada xizmat qilishga nisbatan xohishning sustligi, muddatdan oldin harbiy xizmat shartnomasini bekor qilishi, sudlanganlar sonining ortishi va hokazolar sabab bo'lmoqda. Bu muammolar mamlakatlarning harbiy qo'mondonlarini harbiy xizmatga fuqarolarni, ayniqsa birinchi navbatda yoshlarni jalb qilishga nisbatan motivatsiyasini uyg'otishning yangi uslublarini izlab topish, harbiy xizmatga tayyorlashning innovatsion yondashuvlarini amalga oshirishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda harbiy xizmatchilarning professional mahorati va obro'-e'tibori jahon miqyosida ham yuksalib bormoqda. Buni mamlakat Qurolli Kuchlari vakillarini dunyoning 12 ta davlati hududida 37 ta davlatdan 275 ta jamoa o'zaro bellashadigan 34 ta yo'nalishni qamrab olgan "ArMI" Xalqaro armiya o'yinlari[2], MDHga a'zo davlatlar vakolatli organlari faoliyatini takomillashtirishdan iborat "Sharq-Aksilterror" qo'shma aksilterror mashqlari[3] va

boshqa nufuzli xalqaro harbiy musobaqalarda faol ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallab kelayotgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari strategik yo‘nalishlarini belgilab olishda harbiy xizmatni yuksak axloqli ofitserlar bilan ta‘minlanishiga alohida urg‘u beriladi. Harbiy xizmatchi kasbiy faoliyatining murakkab xarakteri uning jangovar salohiyati, Umumharbiy nizomlarni chuqur bilishi, jangovar tadbirlarini amalga oshirish ko‘nikmasi va malakasiga egaligi, mamlakat xavfsizligiga raxna soluvchi shaxslar xatti-harakatlarini oldindan sezishga qodirligi, kasbiy mas‘uliyati bilan izohlanadi. Shuni hisobga olgan holda, “O‘zbekiston–2030” strategiyasining 97-maqsadida “Qo‘shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armiyalarning ilg‘or tajribasini o‘rganish asosida qo‘shinlarning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish, yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o‘quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish”[4] vazifalari belgilandi. Ushbu Strategiyaga binoan 2030 yilgacha boshqa sohalar qatorida harbiy sohada ham keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilishi belgilangan. Qisqa muddatda dastlabki aniq natijalarga erishildi va yangilanayotgan Qurolli Kuchlar tizimi bo‘yicha strategik yondashuv ishlab chiqildi. Bu esa “Globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o‘ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani, bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo‘lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur”[5], deya bayonot qildi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Ta‘lim sohasidagi O‘zbekiston davlatining siyosati Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyaning[6] uzluksiz ta‘limning barcha turlarida amalga oshirilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu konsepsiyaning dolzarbligi shu bilan izohlanadiki, raqamli iqtisodiyotni tez sur‘atlarda o‘sib borishi bilan kadrlarning doimiy o‘z ustida ishlab borishga zaruriyati hamda nafaqat tor doiradagi

mutaxassislikka yo'naltirilgan ko'nikmalar majmuasiga ega kadrlar, balki keng ko'lamli universal kompetensiyalarga ega mutaxassislarga ehtiyojning mavjudligidadir. Universal kompetensiyalar hozirda SOFT SKILLS, ya'ni hayotiy va moslashuvchanlik ko'nikmalarga ega bo'lishlik bilan izohlanadi. Hayotiy va moslashuvchanlik ko'nikmalarini muhim va tayanch bilim, ko'nikmalar sifatida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, ular inson uchun o'zi tanlagan kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli ishlab ketishiga imkon berishini yaqqol ko'rish mumkin.

Shuningdek, ushbu ko'nikmalarni shakllantirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar mahalliy ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarni yanada boyitadi. Ushbu mavzudagi 2009-2023 yillardagi ilmiy maqolalarni tasodifiy izlash natijasida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari bo'yicha shug'ullangan mualliflarning 46 dan ziyod ilmiy ishlari aniqlandi. Ushbu maqolalarning g'oyasi uzluksiz ta'lim tamoyili doirasida birlashadi.

Biroq, bugungi kunda mavjud an'anaviy harbiy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan o'quv dasturlari, o'quv jarayonlari hamda "kelajak kompetensiyalari" da'vo qiladigan talablar o'rtasidagi jarlik mavjuddir[7]. Bu esa SOFT SKILLSni oliy harbiy ta'lim tizimga qo'llashning yanada dolzarbligini oshiradi.

SOFT SKILLS o'zi nima degani? Nima uchun uni hayotiy va moslashuvchanlik ko'nikmalari bilan tenglashtirilmoqda?

SOFT SKILLS tushunchasining kelib chiqishi AQShda 1959 yilda harbiy sohaning rivojlantirish doir masalalariga borib taqaladi. Unga ko'ra, harbiy xizmatchilar kompetensiyalari borasida olimlar tadqiqot olib borgan chog'larida ko'nikmalarni 2 turga bo'lish maqsadga muvofiq deb hisobladilar. Bunda ular kasbiy ko'nikmalar (hard skills) va shaxsiy sifatlar (soft skills)ga ajratadilar. Bunga sabab urushdagi muvaffaqiyatning ko'pgina qismini jangdagi askarlarni qanday boshqarilishiga qarab ta'minlashini aniqlashganligidandir. O'quv dasturlarda esa buni amalga oshirish uchun o'rgatilmagan. U paytda fizik jismlar bilan bog'liq ishlash ko'nikmalari shakllantirilgan edi. Inson tafakkurida mavjud bo'lgan o'lchash murakkab bo'lgan, mohiyati tushunarsiz — *soft skill*sga borib taqalavergan. Hozirda

bo'sh ish o'rinlarga qo'yilgan talablarda ham o'zbek tilida ushbu so'zlar tobora ko'proq uchramoqda.

Agarda bu ikki tushunchalarni sodda, lo'nda ifodalaydigan bo'lsak, quyidagi mazmunga ega bo'lamiz:

Hard skills – ko'nikmasini ta'lim muassasasida o'qish asosida o'zlashtirish mumkin. Bunda xorijiy til, dasturlashtirish, avtomobilni boshqarish ko'nikmalarini o'zlashtirishni misol sifatida keltirish mumkin. Buning uchun intellektual algoritmlashtirilgan yo'riqnomani o'zlashtirishning o'zi kifoya. O'zlashtirish jarayonida ko'proq miyaning chap katta yarim sharlari (mantiqiy) ishlaydi, IQning (intellekt koeffitsienti) yuqori darajasi zarur bo'ladi.

Soft Skills – ko'nikmasiga ega bo'linganlikni hech qanday diplom bilan tasdiqlab bo'lmaydi. Bu shaxsning kirishimlilik, vazminligi, kreativligi, vaziyatga ko'ra moslasha olish, keskin vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'ymaslik va adekvat ravishda harakatlarini boshqara olishidir. Ushbu ko'nikmalarni chig'iridandan o'tkazishda miyaning o'ng katta yarim sharlari (ijodiy) ishlaydi, EQning (emotsional intellekt) yuqori darajasiga ega bo'lgan ma'qulroqdir.

Soft skills – bu nima?

Soft Skills – ingliz tilidan moslashuvchan yoki yumshoq ko'nikmalar tushunchasi sifatida tarjima qilinadi. Ushbu tushunchalar kasbiy bilimlardan ko'ra, hayotiy bilimlar kabi ifodalanadi. Bu tushuncha zamirida esa nomutaxassis faoliyat shakli bilan bog'liq ko'nikmalar majmui bilan birga kasbga oid sifatlar tushuniladi.

Soft Skills insonning to'g'ridan-to'g'ri ish harakatlari bilan bog'liq emas, lekin ushbu ko'nikmalar unga o'z kasbida yuqori mahsuldorlikka erishishga imkon beradi va o'z oldiga qo'ygan vazifalarni nisbatan muvaffaqiyatliroq bajarishiga yordam beradi. Bunda ish beruvchilar bunday moslashuvchan ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni jon dili bilan ishga qabul qiladilar. Biroq, hozirgi davrga qadar har qaysi bir oliy harbiy ta'lim muassasasida ushbu ko'nikmalar ongli ravishda kursantlar ongiga singdirilmaydi.

Shu kunga kelib, *Soft Skills*, ya'ni moslashuvchan yoki hayotiy ko'nikmalarni umumiy tasnifi mavjud emas, chunki ushbu ko'nikmalar ta'rifi doirasida mos

keluvchi sifat va ko'nikmalarning aniq miqdori qayd qilinmagan. Shuningdek, ushbu ko'nikmalar tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari – tezlik, kreativlik, moslashuvchanlik, tizimlilik – bilan to'ldiriladi[8].

Taraqqiyotni o'zi nima tezlashtiradi?

Inson o'z ustida ishlash yo'nalishini aniqlagan paytida tanlov yo'nalishi bo'yicha taraqqiyotga olib boruvchi harakatlarni bilishga intiladi.

Insonni nimalar rivojlanishiga to'sqinlik qiladi:

1. Noaniq maqsadlar, chalkash rejalar, qaysi yo'nalishda harakatlar olib borish va buni nima uchun bajarish kerakligini yetarlicha tushunmaslik;

2. O'z ishida va shaxsiy hayotida nimanidir tubdan o'zgartirishga tayyor emaslik;

3. Hali hech kim bajarib ko'rmagan, yangi ishni boshlashga cho'chish. "Yaxshilab sinalgan yo'l"dan borishni ma'qul topish.

4. O'z xatti-harakatlari va erishgan natijalarini mulohaza qilishga vaqt ajratishni xohlamaslik;

5. Ikkinchi tomonning manfaatdor emasligi.

Soft Skillsga xos kompetensiyalar.

Yuqorida qayd etilganidek, Soft Skills aniq tasnifga ega bo'lmasa ham, biroq mutaxassislar uni to'rt yetakchi yo'nalishlarga ajratgan holda o'rganadilar:

1. Kommunikativlikning tayanch ko'nikmalari. Ular o'zaro munosabatlarni rivojlanishiga imkon beradi, suhbatni olib borish qobiliyatini shakllantiradi, keskin vaziyatlarda adekvat holda harakat qilishga yordam beradi.

2. Self-menedjment (o'zini o'zi nazorat qilishi) ko'nikmalari. Ular insonni o'z xatti-harakatlari, holati ustidan nazorat qila olishiga, ratsional ravishda vaqtdan foydalanishga yordam beradi.

3. Mahsuldor tafakkurlash. Fikrlarini boshqarish, to'g'ri moslasha olish, yo'naltira olishga ega bo'lishlik bilan ifodalanadi.

4. Boshqaruv ko'nikmalari. Rahbarlik lavozimini qaysidir ma'lum bosqichda qabul qiluvchi har bir insonga zarurdir.

Har bir yo‘nalishga mos keladigan soft-skills ko‘nikmalari mavjud. Kommunikativlik o‘z tarkibiga tinglay olish, ishonтира olish va dalillash, munosabatlarni qurish va ularni ta‘minlab turish, muzokaralar olib borish, ijtimoiy taqdimotlar olib borish kabilarni oladi.

Self-menedjment – o‘zini boshqara olishi, stress holatlarini nazorat qilish, shaxsiy takomillashayotganini kuzatish, taym-menejmentni bilishi, tashabbusini namoyon qilishi, qat’iyatli bo‘lish, ishtiyoq bilan ishga yondashish kabi qobiliyatlar mavjudligini nazarda tutadi.

Soft-skills ko‘nikmalarni qanday rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar barchaga faol ravishda olg‘a intilishga yordam beradi. Bunda quyidagi umumiy qoidalarini inobatga olmoq zarur:

1. Rivojlanishni uzluksiz jarayonga aylantirish lozim. O‘z navbatida tajribaga ega bo‘lish, murakkab vazifalarni hal qila olish, oddiy usuldan ko‘ra yaxshiroq harakat qilmoq lozim. Asosiysi to‘xtab qolmaslik kerak.

2. Taraqqiyot bosqichlarini savodli rejalashtirishni o‘rganish;

3. Turli xil shakllardan foydalanish;

4. Qiziquvchanlikni namoyon qilish, atrofdagi sodir bo‘layotgan hodisalarni o‘rganish.

5. Ishidagi haqiqatdan ham dolzarb ahamiyatga molik bo‘ladigan yo‘nalishlarni tanlash juda muhimdir.

6. Ko‘proq o‘qish odatini shakllantirish juda a‘lo yechim hisoblanadi.

Demak, har bir ishni rejali boshlash ushbu ishning oldindan sodir bo‘ladigan salbiy oqibatlarini vaqtida bartaraf etishga, eng asosiysi ishning muvaffaqiyatli yakunlashiga yordam beradi. O‘z navbatida Soft-skills ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha individual rejani istalgan qulay paytda ishlab chiqish mumkin. Muhimi, shaxsiy taraqqiyoti uchun ongli ravishda inson o‘ziga mas‘uliyatni olishi lozim. Bunda kimgadir vazifa yuklash yoki kimnidir sababchi qilish yaramaydi.

Rejalashtirish paytida uch muhim asosni ajratib olish niyatda zarur:

1. Qaysi sohada rivojlanishni va maqsad qo'yishni aniqlash lozim. Buning uchun yo'lda uchrashi mumkin bo'lgan to'sqinliklarni tahlil qilish, ushbu sohadagi malakali insonlar qo'llab-quvvatlashlariga erishish lozim.

2. Nimani aynan rivojlantirish lozim. (ko'nikmalar / kompetensiyalar)

3. Rivojlanish qanday amalga oshadi (mos keladigan vositalarni tanlash)

Rejaning asosiy qismi bo'yicha boshqa savollar bo'lmasa, uni amalga oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich loyihalashtirishga o'tish mumkin.

1. Chetdan turib, konstruktiv tanqidiy baho bera oladigan mutaxassisni topish lozim.

2. Faoliyat natijalarini baholashning mezonlarini aniq belgilab olish kerak.

Soft-skills ko'nikmalarini qanday rivojlantirish mumkin?

Ishda tezda ta'sir ko'rsatadigan natijalarga tez fursatda erishishni ko'zda tutilmaydi. U yoki bu ko'nikmani o'zlashtirish uchun vaqt talab etiladi. Bunda esa quyidagilarni inobatga olish zarur.

- Qayta aloqani o'rnatish
- O'z ustida ishlash
- Boshqa kishilar yordamida o'qish va mental working
- Maxsus vazifalarni bajarish.

Harbiy pedagogika fanida ushbu holatda o'ziga o'zi xizmat qilishning elementar va "yashab qolish" ko'nikmalari jamiyatdagi kognitiv yoki boshqa jarayonlarni izdan chiqqanligi sababli yo'qotilgan alohida ijtimoiy ko'nikmalarni o'rnini qoplash sifatida qarab chiqiladi. Psixologik fanlar esa "hayotiy ko'nikma" tushunchasi shaxsning psixologik yosh me'yorlariga ko'ra qo'llaniladi[9].

Biroq, bu qatordagi cheklovlar ziddiyatlarni keltirib chiqaradi, bu esa tashkil etiladigan ta'limiy jarayonlar doirasidagi pedagogik vazifalarni shakllantirishni qiyinlashtiradi. Bunda "hayotiy" ko'nikmalarni takomillashtirish yoki shakllanib bo'lingan o'zini tutish uslubi, o'ziga va atrof-olamga nisbatan qadriyatli munosabatlar kabi malakalar asosida moslashuvchan ko'nikmalar va ta'lim oluvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Yuzaga keladigan muammolarni hal qilish bo'yicha nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi ta'limiy faoliyatning normativ-huquqiy jamlanmasining tadrijiy rivojlanish jarayonida belgilangan tushunchalarni birlashtirilgan yaxlit majmuasi turadi. Shunga ko'ra, oliy harbiy ta'lim muassasalarida "hayotiy" ko'nikmalar kursantlar o'zini rivojlantirishining murakkab tizimi sifatida "moslashuvchan" ko'nikmalarini shakllanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. B.Blum taksonomiyasini takomillashtirish natijasida yetarli darajada "hayotiy" ko'nikmalarni tushunish orqali osongina muvofiqlashtirish mumkin. (1-jadval) Bu esa oliy harbiy ta'limning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

1-jadval

**Oliy harbiy ta'lim muassasalarida "hayotiy" ko'nikmalarni shakllantirish
maqsadi / takomillashtirish**

Blum taksonomiyasi tarkibidagi ko'nikmalar	"Hayotiy" ko'nikmalar	"Moslashuvchan" ko'nikmalar
Bilish	Tanqidiy fikrlash va muzokara olib borish qobiliyati	Ta'lim oluvchining sog'lom fikrlay olishi, oila va olamga nisbatan obyektiv munosabati
Tushunish		
Tahlil		
Sintez		
Baholash		
Qo'llash	Tashkiliy ko'nikmalar	O'zini va shaxsiy faoliyatini amalga oshirish va faoliyatga nisbatan hozirlikni shakllantirish
Bilish	Funksional ko'nikmalar. Mobillik. Ish vaqtini tashkillashtirish ko'nikmasi	Yangi vaziyat (o'zgaruvchan / noaniq)ga xos ishga tayyorlik, ishchanlik va shaxsning kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish
Tushunish		
Qo'llash		
Tushunish	Savollarni tinglay va ularni bera olish ko'nikmalari	Vaziyatni, muloqotdagi sheriklarini tushuna olishga nisbatan ongli yondashuv
Baholash	Empatiya va hamdardlik bildirish olish	Ishonchli va do'stona munosabatlarni o'rnatish olish

1-jadval mazmuni orqali oliy harbiy ta'limda kursantlarda shakllantirilishi va rivojlantirilishi zarur bo'lgan "hayotiy" ko'nikmalarini "moslashuvchanlik" kompetensiyalariga nisbatan yaqinlashtirishga ishora qilmoqda. O'z navbatida oliy harbiy ta'lim sharoitida rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri kursantlarning "moslashuvchan" ko'nikmalari hisoblanadi. Bunda u mavjud bilimlarning poydevori asosida bo'lajak kasbiy faoliyat subyekti sifatida o'z o'rnini belgilaydi. Shuningdek, jarayonga oid va metakognitiv ko'nikmalari ta'lim oluvchining mustaqil hayotga psixologik tayyorligini namoyon etish sifatida o'zining "moslashuvchan" ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi[10].

Shunday qilib, oliy harbiy ta'lim amaliyotida moslashuvchan ko'nikma deganda "hayotiy" ko'nikmalar yordamida shakllanadigan kursantlarning ko'nikma, malaka va qobiliyatlari majmuini tushunish mumkin. Ushbu majmua asosida kursant kasbiy faoliyat bilan birga uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida (oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish va h.k.) o'zini namoyon qilishiga imkon beruvchi kasbiy kompetensiyalari tizimini vujudga kelishiga olib keladi. "Moslashuvchan" ko'nikmalar insonda yuqori adaptiv salohiyat, ya'ni hayotining barcha sohalariga kirishib keta olishini va u yerda o'zini bandligini hamda muvaffaqiyatini ta'minlab beradi. Ular insonning hayot kechirish sifati va undan qoniqqanlik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Moslashuvchan" ko'nikmalar oliy harbiy ta'lim natijasida kasbiy faoliyatda namoyon bo'lish darajasi quyidagi tarkibiy tuzilmada yaqqol aks etadi:

1. Ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalar: jamoada ishlay olishi, malakasi, bevosita vazifalarni amalga oshirish qobiliyati, og'zaki va yozma muloqotni yo'lga qo'ya olishi, ommaviy nutq so'zlay olishi, noverbal xatti-harakatlar imkoniyatlaridan foydalana olishi, axloqiyligi va etiket qoidalariga rioya qila olishi, hamkorlari bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish va davom ettira olishi, madaniyatlararo hamda shaxslar-aro muloqotlarda bema'lol ishtirok eta olishi.

2. Tashkiliy ko'nikmalar: jamoani shakllantira olishi, shaxsiy faoliyatini rejalashtirishi, ustunlik jihatlarni tanlay olish, amalga oshirsa bo'ladigan vazifalarni qo'ya olish, rejani amalga oshirishdagi davomiy xarajatlarni aniqlay olishi.

3. Funktsional ko‘nikmalar: shaxsiy va kasbiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan masalalarda global tarmoqlardan foydalanish, axborotni qidirish, baholash, qayta ishlash, saqlash va qo‘llay olishi.

4. Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar: mas’uliyatni o‘ziga ola bilishi, liderlik qobiliyatlari va tashabbuskorlikni namoyon etishi, o‘z hissiyotlarini nazorat qila olishi va muloqotdagi hamkorini emotsional holatini fahmlay olishi hamda u bilan munosabatni amalga oshirishning adekvat uslublarini tanlay olish.

Demak, XXI asrda yashayotgan zamonaviy insonlarning kompetensiyalari transformatsiyalashib borayotgan jamiyat va davlat iqtisodiyoti talablariga javob berishi lozim. Aynan ularning sharofati bilan insonlar murakkab bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda yuzaga keladigan ehtiyojlarni tezda qondira oluvchi moslashuvchan hamjamiyatlarni vujudga keladi. Shu bilan bir qatorda “kelajak kompetensiyalari” insonlar tomonidan ommaviy qo‘llanilsa, jamiyat va iqtisodiyot transformatsiyasi ham tezroq, ham ishonchliroq asosga quriladi.

Hozirda Milliy gvardiya saflarida jangovar shayligi va kasbiy malakasi yuqori, chuqur bilim va intellektual salohiyatga, o‘z muqaddas harbiy burchini bajarish yo‘lida qat’iy iroda va mustahkam tayyorgarlikka ega bo‘lgan, yurtimizga sadoqatli, mard va fidoiy insonlar ko‘p. Biroq, bu kadrlarni zaxirasini shakllantirishda tobora globallashtirib borayotgan zamon talablariga javob bera oladigan huquqiy asoslarni takomillashtirish dolzarb masala[11] bo‘lib qolaveradi. Binobarin, bo‘lajak harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi – bu yuqori darajadagi kasbiy mahorat va kasb malakasini oshirish, xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarlikning barqarorligini yuqori saviyada ta’minlash, yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va uzluksiz jarayondir.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh.A. O‘zbekiston Prezidenti Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini o‘tkazdi. Elektron resurs: <https://president.uz/uz/lists/view/6967> Murojaat etilgan sana: 21-aprel 2024-yil.

2. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son Elektron resurs: <https://lex.uz/ru/docs/6600413> Murojaat etilgan sana: 15-aprel 2024-yil.

3. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr, PF-5847-son. Elektron resurs: www.lex.uz

4. Akramova Sh.A. Harbiy pedagogika. Oliy harbiy ta’lim muassasalari tinglovchilari uchun darslik. — T.: HTI, 2018-y. — 150 b.

5. ArMI-2022”: O‘zbekistonda 5 ta yo‘nalishdagi musobaqalar o‘tkaziladi. Elektron resurs: <https://sputniknews.uz/20220803/armi-2022--26795073.html> Murojaat etilgan sana: 29-avgust 2023-yil.

6. Корытков В.А. Система подготовки к военной службе современной молодежи в государствах – членах НАТО. – Белоруссия: БелГУ, НАУЧНЫЕ ВЕДОМОСТИ / Серия: Гуманитарные науки. 2019. Том 38, № 1. 155-160 стр.

7. “Sharq-Aksilterror — 2024” qo‘shma aksilterror mashqlari bo‘lib o‘tdi. Elektron resurs: https://uza.uz/uz/posts/sharq-aksilterror-2024-qoshma-aksilterror-mashqlari-bolib-otdi_632383. Murojaat etilgan sana: 15-sentyabr 2024-yil

Kasbiy madaniyatning tarixiy-ilmiy ildizlari

Tojiboyev Muzaffar Turdiboyevich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

*“O‘zbekiston tarixi” kafedrası professori,
tarix fanlari doktori professor, podpolkovnik*

Annotatsiya: Mazkur maqola kasbiy madaniyat tushunchasini tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib unda ichki ishlar organlari xizmatining tarixi va huquqiy tartibot xodimlarining madaniyatini ifodalovchi fazilatlarning professional faoliyatdagi roli ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: kasb, mehnat faoliyati, ichki ishlar organlari, tinchlik, xavfsizlik, qonunchilik.

Kasb – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashgʻulot turi, ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim. “Kasb (*lotincha “professio”, “profiteor” – “oʻzimni ishim deb eʼlon qilaman”*) – inson mehnat faoliyatining bir turi, odatda, uning mavjudligining manbai; bu insonning daromad oladigan mehnati” deb koʻrsatilgan (Vikipediya). Ingliz jurnalisti Uaytxorni Ketrin kasb haqida shunday deydi: “Oʻsmirlarga beradigan eng yaxshi maslahat: – Oldin oʻzingga yoqadigan biron narsani top, keyinchalik buning uchun senga pul toʻlaydigan kimsani top”. Barcha kasb insondan nazariy bilim va amaliy koʻnikmalarni talab qiladi. Bu bilim va koʻnikma maxsus tayyorgarlik yoki maxsus taʼlim jarayonida shakllanadi. Dastlabki kasb turlari odamlar oʻtroq turmush tarziga oʻta boshlashi, markazlashgan davlatlar paydo boʻlishi bilan bogʻliq holda vujudga kela boshlagan. Ular, asosan, kulolchilik, temirchilik va harbiylik bilan shugʻullanishgan.

Jamiyat rivojlanishi bilan yangi kasb turlari shakllanib borgan. Keyinchalik faqat moddiy boyliklar ishlab chiqarish bilan bogʻliq kasb turlari emas, balki ishlab chiqarish suratlari, samaradorligi oshishi bilan erkin vaqt vujudga kelgan va ijodiy faoliyat bilan bogʻliq kasblar – aktyor, rassom, yozuvchi, musiqachi va boshqalar paydo boʻlgan.

Ichki ishlar organlari tizimidagi xizmat – bu kishilik jamiyatida shakllangan kasblardan biridir. Yangi Oʻzbekiston ichki ishlar organlari faoliyati uzoq tarixga ega. Masalan: Qadimgi Sugʻd, Turk xoqonligi davlatlarida xalqning tinchligi, moddiy boyligini saqlash bilan shugʻullanadigan qurollangan kishilarni chokarlar deyishgan. Xorazmshohlar davlati Alouddin Takash davrida chokarlar vazifalarini xarislar amalga oshirgan. Keyinchalik Xorazmshohlar davlatida osoyishtalik himoyachilarini shixnalar deb atashgan. Shixnalar xavfsizlikka tahdid qiluvchi barcha kuchlarga qarshi kurashishgan. Oʻzbekiston hududida uchta Xiva, Buxoro va Qoʻqon xonliklari paydo boʻlgandan keyin ularda ichki ishlar vazifalari, jinoyatchilikka qarshi kurash, tungi shahar soqchiligi masalalari bilan shugʻullanganlarni

mirshablar deyishgan. Rossiya Sovet federativ sotsialistik respublikasida 1917-yil 10-noyabrda “Ishchi militsiya to‘g‘risida” qaror qabul qilinib, Turkistonda 1918-yil fevral oyidan shahar va tumanlarda militsiya organlari vujudga kelgan, 1920-yil aprel oyidan Turkiston ASSR Xalq komissarlari “Sovet ishchi-dehqon militsiyasi” deb nomlangan. O‘zbekiston ichki ishlar organlari sobiq Ittifoq tarkibida 1924-yil tashkil topgan va ichki ishlar xalq komissarligi, 1956-yildan ichki ishlar organlari deb atalgan. Ittifoqdosh respublikalarda 1962-yil fevralda ichki ishlar vazirliklarining nomi Jamoat tartibini saqlash vazirligi deb o‘zgartirilgan. 1968-yil 25-noyabr kundan Jamoat tartibini saqlash vazirligi Ichki ishlar vazirligi deb o‘zgartirilgan.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ichki ishlar organlarida o‘zgarishlarni amalga oshirdi. “1991-yil 25-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 270-sonli qarori asosida O‘zbekiston SSR ittifoq-respublika IIV O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi. Qaror bilan vazirlik Nizomi va strukturasi tasdiqlandi. Keyinchalik ushbu sana mamlakatimizda Ichki ishlar organlari xodimlari kuni sifatida belgilandi[1].

O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun 2016-yil 16-sentyabrda qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 12-aprelda “Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlandi.

Ichki ishlar organlaridagi xizmat – tinchlik, xavfsizlik, qonunchilik, xalq va davlat mulkini himoya qilishdan iborat bo‘lgan. Shu jarayonda ular jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash bilan shug‘ullanishgan. Ushbu kasb sohibidan chuqur bilim, zarur bo‘lgan ko‘nikmalar, xizmat intizomi, madaniyat va ijobiy fazilatlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Ichki ishlar organlari xodimlarining asosiy fazilatlaridan biri, uning fuqarolar tomonidan yuksak qadrlanadigan sifati – bu kasbiy madaniyatidir.

Kasbiy madaniyat – bu umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, umuminsoniy madaniyat me‘yorlarining kasb turlarida namoyon bo‘lishidir. Kasbiy madaniyat keng tushuncha va u ko‘pgina qadriyatlarni qamrab oladi. Kasbiy va nutq madaniyatining ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi.

Ichki ishlar organlari xodimining kasbiy madaniyatini ifodalovchi fazilatlar quyidagilar:

- vatanparvarlik; – adolat;
- odob; – xushmuomalalik,
- insonparvarlik; – halollik;
- rostgo‘ylik; – kommunikativ, psixologik, tashkilotchilik;
- informatsion, kreativ, innovatsion kompetentlik;
- ilg‘or texnologiyalarni xizmat faoliyatiga tatbiq etish yo‘llarini belgilash;
- doimo o‘z bilimi va malakasini oshirish ustida ishlash.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyati dastavval ularning vatanparvarligida namoyon bo‘ladi. Vatanparvarlik – bu o‘z vatanini, xalqini sevish, ardoqlash, agar zarur bo‘lsa, vatan uchun jon fido qilishdir. Vatanparvarlik vatanni anglashdan boshlanadi. Vatan – bu insonning kindik qoni to‘kilgan, o‘sib-unib, voyaga yetgan joy, uni tarbiyalab, shakllantirgan xalq, millatdir. Nima uchun insonni u qayerda bo‘lishidan qat’i nazar o‘z vataniga tortadi? Chunki u shu tug‘ilgan joyning tuprog‘i, suvi, noz-u ne‘matlari va havosidan paydo bo‘lgan. Uning vujudida shular jo‘sh uradi. Shu joyning xalqi, qadriyatlari asosida tarbiyalanadi. Shuning uchun inson doimo o‘z vatanini, xalqini taqdirini o‘ylaydi. Vatanparvarlik – bu insonning vatani to‘g‘risidagi ichki hissiyotidir.

2022-yil 14-oktyabr kuni respublikamiz Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi 595-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning II bo‘limi “Davlat xodimlarining xizmatdagi xulq-atvorining asosiy prinsiplari va qoidalari” deb nomlanib uni 5-bandida “Davlat xizmatchilari o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi;
- vatanparvarlik va xizmat burchiga sodiqlik;
- adolatlilik, halollik va xolislik” asosida amalga oshirishi kerakligi belgilangan.

Shuningdek, qarorning 12-bandida: “Davlat xizmatchilari o‘zlarining xizmatdagi xulq-atvori bilan jamoada boshqa davlat xizmatchilari bilan o‘zaro ishchanlik va amaliy hamkorlik qaror topishiga da’vat etilgan. Ya’ni, davlat xizmatchilari xushmuomala, iltifotli, odobli, e’tiborli, fuqarolar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo‘lishi, ularni hurmat qilishi shart”, – deyilgan. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20 yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 10-son qarorning 1-ilovasi “Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi”ni 2 bobida quyidagi fikrlar mavjud:

kasbiy madaniyat qoidalari qaysi lavozimni egallashidan qat’i nazar, xodimlarning odob-axloqi va xizmatda o‘zini tutishning asosiy talab va mezonlarni o‘z ichiga oladi;

fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala, kamtar va bosiq bo‘lish, ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va boshqa omillardan qat’i nazar, hech bir shaxs, guruh yoki tashkilotning kamsitilishi yoki afzal ko‘rilishiga yo‘l qo‘ymaslik[1.1]. Bular ham kasb madaniyatiga qo‘yilgan talablardandir.

Voyaga yetmagan yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash orqali huquqbuzarliklarning oldini olish zarurligi haqida Prezident Sh.M. Mirziyoyev “...voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorizm, ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish[2] mumkinligini ta’kidlagan.

Ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo‘lgan fazilatlardan biri adolat hisoblanadi. Butun kishilik jamiyati tarixida insoniyat adolat uchun intilgan, kurashgan, jon fido qilgan. Adolat insonlarning tabiatidan kelib chiqadi, uning yashashi uchun zarur bo‘lgan shartlardan biridir. Adolat tenglikni anglatadigan, haqiqatni taqozo qiladigan tushunchadir. Jamiyatda adolat ijtimoiy mexanizmga ega. Dastlab adolat barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlaydigan muhim

omillardan biri hisoblangan. Ichki ishlar organlari xodimlari adolatning shu jihatidan samarali foydalangani o‘rinlidir.

Adolat muammosi insoniyatni qadimdan qiziqtirib kelgan. Eramizdan oldingi davrlarda adolatni qonun sifatida talqin qilishgan. Chunonchi, Zardusht adolatni “arta” tushunchasi yordamida ifodalagan. Adolatni ikki qutbdan biri sifatida tushungan.

Antik davrda Yunonistonda ham adolat, qonun, huquqqa diqqatni qaratishgan. Yunonlar adolat, haqiqatni “dike” va adolatga muvofiq keladigan narsalarni huquq deb talqin qilishgan. Gomerning fikricha, adolat o‘z tabiatiga ko‘ra ilohiy va huquqning asosi hamda mezonidir. Yunonistonda Femida – adolat va qonun himoyachisi ma’budasi, Dike – odil hakamlik bo‘lishini kuzatuvchi ma’buda hisoblangan. Yunon mutafakkiri Gesiodning fikricha, adolat va qonunning ildizlari bir. Aflotunning fikricha, jamiyatda turli tabaqalar o‘rtasida tenglik bo‘lmog‘i lozim, bu adolat hisoblangan. Arastu shogirdi Aleksandr Makedonskiyga shunday maslahat beradi: “Bilgilki, adolat buyuk va qudratli xudoning yerdagi o‘lchovidir. Uning yordamida zaif bo‘lgan haq odam kuchli bo‘lgan nohaqdan o‘z haqqini oladi. Kimki Alloh bandalari orasida o‘rnatgan ilohiy adolat o‘lchovini buzsa va undan chetlashsa, katta nodonliklar qilib, xatoliklarga yo‘l qo‘yadi...”.

Islom olamida adolat g‘oyasi haqiqatning mezoni hisoblanadi. Sohibqiron Amir Temur “Bir kunlik adolat – yuz kunlik toat-ibodatdan afzaldir” deya adolatga yuksak baho bergan. Amir Temurning shiori, qoidasi “Rosti-rusti”, ya’ni “Adolat — xolislik” bo‘lgan”[3]. “Kuch – adolatda” degan o‘giti uning davlati muhrida ham aks etgan. Amir Temur o‘z tuzuklarida “adolat”ni davlatni idora qilishning asosi bo‘lgan 12 ta qoidasining biri sifatida qaraydi: “adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdanda rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim”[3].

Alisher Navoiy haqiqatni yolg‘ondan ajrata olish zarurligi haqida gapirib, “Kimki haqiqatni yolg‘ondan, to‘g‘rini noto‘g‘ridan ajrata bilsa, u o‘z adli bilan G‘arb u Sharqni yoritgan bo‘ladi” degan fikrni bildirgan. Adolat tushunchasining ma’nosi “odillik”, “haqqoniylik” demakdir. Fransuz mutafakkiri J. Juber ta’kidlaga-

nidek: “adolat haqiqatning amalga oshishidir”. Adolat jamiyatning asab tolasi bo‘lib, odamlarning ijtimoiy kayfiyatini, ichki ishlar organlari xodimlariga bo‘lgan munosabatini ham ifoda etadi.

Sharqlik mutafakkir Abulqosim Firdavsiy o‘zining “Shohnoma” asarini Bahrom Go‘rning Biroham boyligini Lanbakka bergani qissasida bir ma’badni juhudning uyiga boylikni olib kelish uchun yuborib, adolat haqida quyidagi misralarni keltiradi:

Shoh dedi: “Bir otni mingil-da shitob,

Birohom uyiga yetib bor shu tob.

Keltirgil uyida bo‘lsa neki mol,

Adolat yuzidan ish tutgil halol”[4].

Adolat bugungi kunda huquqiy, axloqiy va ma’naviyat hamda madaniyatga oid tushuncha sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan ichki ishlar organlari faoliyatida katta ahamiyatga ega. Ichki ishlar organlari xodimlarining butun faoliyati jamiyatda adolatni qaror toptirishga qaratilgan. Adolat haqida yunonistonlik mutafakkir Suqrotning quyidagi fikri butunlay ichki ishlar organlari xodimlariga taalluqlidir: “Mardlik qo‘rquvni daf qilishni, donolik qonunlarga rioya qilishni, mo‘tadillik o‘z hissiyotlariga erk bermaslikni, adolat yaxshilik qilishni anglatadi”.

Xodimlar xizmat jarayonida doimo xalqimiz va ichki ishlar organlari tizimi tomonidan nazoratda bo‘ladi. Xodimning har qanday xatti-harakati kasbiy madaniyat va xizmat intizomi hamda adolat tamoyili jihatidan tahlil qilinadi. Xizmat jarayonida aybdorni – aybdor, aybsizni – aybsiz deb, ya’ni xolisona qaror qilsa, aybdorni javobgarlikka tortib, jabrlanganga o‘z xizmat burchi yuzasidan yordam ko‘rsatsa, bu adolatga muvofiq bo‘ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat jarayonida zarur bo‘lgan kasbiy madaniyati va intizomiga doir fazilatlardan biri odob, shirinso‘zlikdir. Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli kasbiy xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. U shaxs ma’naviy hayotining tashqi jihatini ifodalab, o‘zaro munosabatda, oila, mehnat jamoasida namoyon bo‘ladi. Odob asosini axloqiy tamoyillar, me’yorlar, tarbiyalanganlik darajasi va estetik ideal

talablari tashkil etadi. Odob o'zida bir qator qoidalarini qamrab olgan. Chunonchi, kishining jamiyatda o'zini tutishi, odamlar bilan muomala qilishi, turmush tarzi, bo'sh vaqtini tashkil etishi va tashqi olami qanday bo'lishi lozimligiga oid kategoriyalar (or-nomus, sharm-hayo, iffat, kamtarlik, xushmuomalalik)ni o'z ichiga oladi.

Ota-ona, qo'ni-qo'shni, atrofdagilarning yaxshi odobi farzandlarga ijobiy ta'sir etadi. Ularda vatanparvarlik, fidokorlik, daxldorlik, sadoqat, mardlik, jasurlik, vazminlik, qadr-qimmat, tashabbuskorlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Odobli kishi yaxshi amallarni o'ziga odat qiladi, qarindosh-urug', do'st-birodarlar hurmatini joyiga qo'yadi, sof vijdonli bo'ladi. Ichki ishlar organlari xodimlarining jamiyatda xizmat olib borishi, ularni ushbu fazilatlarni o'zlashtirib olishga undaydi. Xodimlarni ko'p hollarda odobiga qarab baho berishadi. Shuning uchun xodim odob talablariga qat'iy rioya qilishi lozim.

Ichki ishlar organlari xodimlari insonparvarlik fazilatini o'zida shakllantirgan bo'lishi darkor. Insonparvarlik insondagi insoniylik, insonni sevish, hurmatlash ma'nosini anglatadi. Xodimning xizmat predmeti, obyekti insonlardir. Shunday ekan, xodim doimo insonlar bilan ishlagandan keyin ularni qadrlamasa, ardoqlamasa, xizmati ilgari siljimaydi. Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: "Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz" [6], – degan va fikrini davom ettirib, "...millati, tili va dinidan qat'i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratamiz" [7] deb ta'kidlab o'tgan. Demak, xalqimiz "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat"ni barpo etmoqda. Bu jarayonga ichki ishlar organlari xodimlari ham o'zining fidokorona mehnatlari, hissasini qo'shmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi milliy manfaatlar" to'g'risida to'xtalib, "... jamiyatda millatlararo va dinlararo

munosabatlarni, diniy bag‘rikenglik madaniyatini, do‘stlik, o‘zaro hamkorlik va gumanizmni har tomonlama mustahkamlash” zarurligini ko‘rsatgan[8].

Ichki ishlar organlari xodimlari insonparvarlikni qonundan kelib chiqqan holda, barcha narsadan ustun qo‘ymog‘i lozim. Insonparvarlik xodimning vujudida genetik ravishda bor bo‘lgan ichki his, faqat uni namoyon qilishi kerak. Xitoylik mutafakkir Konfusiyaning shogirdi Sima Nyu insonparvarlik haqida so‘ragan. Shunda donishmand “insonparvarlik haqida so‘zlamoq mushkul degan”. Shogird “demak, nimaiki to‘g‘risida so‘zlamoq mushkul bo‘lsa, shu insonparvarlik ekan-da”, deb so‘ragan. “Unda amalga oshirmoq mushkul-u, u haqda so‘zlamoq mushkul bo‘lmaydimi?!” – deb ustoz javob bergan. Boshqa bir vaziyatda Konfutsiy fikrini davom ettirib shunday degan: “Har bir odamda insonparvarlik va burch hissi kuchli bo‘lsin”, “Insonparvarlik shunday narsaki, uni qidirib yurish kerak emas. Istasang bas, yoningda paydo bo‘ladi”[9].

Halollik ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining asosiy shartlaridan biridir. Ba’zi huquqbuzar shaxslar xodimlar tomonidan ushlanganda har xil bahonalar bilan qutulib ketish yo‘llarini izlaydi. Bunday sharoitda xodimdan qat’iyatlilik, halollik, huquqbuzar bilan til biriktirib qonun, huquq, axloq va diniy me’yorlar buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik talab qilinadi. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashish bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlarining asosiy vazifalaridan biriga aylangan sharoitda huquq, axloq va diniy me’yorlarga rioya qilish dolzarb mohiyat kasb etmoqda. Xodimlar qanday lavozimni egallashidan qat’i nazar ularga rioya qilishi shart. Nemis faylasufi F. Shiller aytganidek: “Halollik har qanday martabani bezaydi”.

Ichki ishlar organlari xodimlari kecha-yu kunduz, qish-u yoz har qanday ob-havo sharoitiga qaramay xalqimizning tinchligi yo‘lida xizmat olib boradi. Buni xalqimiz to‘g‘ri tushunib halol mehnat deb e’tirof etadi. Shularni hisobga olib, bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatlari munosib tarzda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilmoqda. Shu bois xodimlar peshona teri, halol xizmati bilan yaxshilarga yondashib, o‘zlarini baxtli his qilishmoqda. Yunon mutafakkiri Suqrot baxtli inson deganda: “Kimda halol fikr va o‘tkir zehn bo‘lsa,

o‘shani” – tushunaman deb javob bergan. Halollik qonuniy, o‘zining mashaqqatli mehnati bilan topilgan obro‘ moddiy boylikdir.

Halollik ichki ishlar organlari xodimlarining qonunbuzarlikka o‘rganmagan, birovni aldamasdan, noto‘g‘ri yo‘ldan bormaydigan, vijdoni va burchiga monand insoniy fazilati bo‘lishi kerak. Buning uchun xodim halollik vaksinasi bilan emlanishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz”, – degan[10]. Xodim o‘z xizmat faoliyatida halollikka intilishi zarur. Fransuz mutafakkiri J.J. Russo aytganidek: “Vijdonli odamlar uchun halollik savodli odamlar uchun ilm qanchalik zarur bo‘lganidan ham qimmatliroqdir”.

Ichki ishlar organlari xodimlarining halolligi bu fuqarolarning huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan xizmatini vijdonan bajarishi, qonunlarga qat’iy amal qilgan holda chin ko‘ngildan, beg‘araz ado etishidir. Xizmat va funksional vazifalarini ixtiyoriy tarzda o‘z vaqtida talablarga muvofiq ijro etishidir.

Xodim hayotda turmush o‘rtog‘i, farzandlari, qarindosh urug‘lari, qo‘ni-qo‘shnilar, o‘rtoqlariga nisbatan halol munosabatda bo‘lishi ham kasbiy madaniyatini talablaridan.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimi kasbiy madaniyat va xizmat intizomini amaliy faoliyatda to‘g‘ri qo‘llay olishi va adolat, vatanparvarlik, sodiqlik, daxldorlik, fidoyilik hamda halol bo‘lib xalqni dard-u tashvishi bilan xizmat olib borishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sattorov A. El-yurt osoyishtaligi generallari. – T., 2021. – B. 18.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli farmoni.

3. Farmonov R. Amir Temur Ko‘ragon va imperator Napoleon. – T., 2017. – B. 13.
4. Amir Temur. Temur tuzuklari. – T., 2004. – 6-qoidasi.
5. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. – T., 2018. – B. 480.
6. Jo‘rayeva S. 100 mumtoz faylasuf. Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar. – T., 2018. – B. 115.
7. Mirziyoyev Sh.M. 2021-yil 6-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimdagi nutqi.
8. Sheroziy S. Guliston. – T., 1967. – B. 102.
9. Mirziyoyev Sh.M. . 2020-yilning 24-yanvar kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

HARBIY XIZMATCHILAR KASBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA G‘OYAVIY TARBIYANING O‘RNI

Saitxodjayev Xusan Bekjanovich

*Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrasi
professori, falsafa fanlar nomzodi*

Annotatsiya: Maqolada g‘oyaviy tarbiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni, bugungi kunda zamon talablariga javob beradigan harbiy xizmatchilarni tayyorlashda jamiyatimiz oldida turgan vazifalar va ularni amalga oshirishning chora-tadbirlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, tarbiya, g‘oyaviy tarbiya, kasbiy madaniyat, oilaviy tarbiya, globallashuv, milliy ong, milliy qadriyat.

Bugungi kunda Respublikamizning barcha sohalarida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” hamda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish kabi mustaqil O‘zbekistonning kelajagini

belgilab beradigan buyuk g'oyalar ilgari surilgan. Bu g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish masalasi yangicha fikrlaydigan, har taraflama yetuk, bilimli, ma'naviyati yuksak va vatanparvar harbiy xizmatchilarni tarbiyalab voyaga yetkazishni har qachongidek dolzarb qilib qo'lladi. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo yetishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"[1] deb ta'kidlaydi.

Harbiy xizmatchilar kasbiy madaniyatni shakllantirish masalasi uzoq yillar davomida ta'lim va tarbiyaning ilg'or usul va vositalari yordamida shakllanib boradi. Hozirda ta'lim sohasi ham o'zining serqirra yo'nalishlariga, tarbiya ham o'zining turli xil shakl va vositalariga ega. Jumladan, tarbiyaning ma'naviy, axloqiy, estetik, huquqiy, g'oyaviy, ekologik, jinsiy va boshqa shu kabi turlari mavjud. Bu tarbiya turlarining barchasi harbiy xizmatchilar kasbiy madaniyatni shakllantirishda o'z o'ringa ega. Bunda ayniqsa, g'oyaviy tarbiyaning o'rni beqiyosdir.

Tarbiya inson bolasining hayoti faoliyati uchun muhimligi to'g'risida buyuk o'zbek ma'rifatparvar shoiri Abdulla Avloniy: "Hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Tarbiya, yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir. Tarbiya ona qornidan boshlanadi va umrning oxiriga qadar davom etadi"[2], deb ta'kidlaydi. Har qanday tarbiyaning asosida g'oyaviy tarbiya yotadi. G'oyaviy tarbiya tufayligina tarbiyaning maqsad va vazifalari, mohiyati inson ongi va ruhiyatiga singdirilishi mumkin. «G'oyaviy tarbiya – inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayoni»[3]dir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra, g'oyaviy tarbiyadir. Bunday tarbiyalar oila, mahalla, maktabgacha ta'lim muassasalari, o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, professional ta'lim, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot dargohlari va jamoat birlashmalari kabilarda xalqimizning, ayniqsa,

yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ongini ilmiy asoslangan dunyo tajribasi bilan boyitish, mamlakatning rivoji va taraqqiyotiga xizmat qiladigan sifatlarni kamol toptirishga qaratilgan bo'ladi. Bu kishilarning dunyo, olamning rivojlanish qonuniyatlari, milliy va umuminsoniy qadr-qimmat, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy munosabatlar haqidagi o'ziga xos maqsadlarini ifodalaydi. Bular esa, o'z navbatida, harbiy xizmatchilar kasbiy madaniyatni shakllantirishning asosini tashkil qiladi.

G'oyaviy tarbiya dastlab oilada farzand dunyoga kelgandan so'ng tarbiyaning boshqa turlari bilan uzviy aloqadorlikda ota-ona va oilaning boshqa a'zolari tomonidan berib boriladi. Oiladagi g'oyaviy tarbiya inson bolasining o'z "Men"ligini anglagan vaqtdan boshlab, to umrining oxirigacha davom etadigan uzluksiz jarayondir. Inson bolasining kelajakda kim bo'lishligi, biron-bir kasb to'g'risidagi ilk tasavvurlari, unga o'z munosabatini bildirishi, uni tanlashi, avvalo, oila muhitida shakllanadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat, unga xizmat qilish ham shu qadar ortadi.

Oilada Harbiy xizmatchilar kasbiy madaniyatni shakllantirish tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladigan g'oyaviy tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun avvalambor oiladagi ota-onaning o'zi g'oyaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Hozirgi kunda mavjud oilalardagi barcha ota-onalar yetuk g'oyaviy bilimlarga ega, deb bo'lmaydi. Jamiyatimizda insonning havasini keltiradigan, ulardan ibrat oladigan oilalar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Oilada harbiy xizmatchilar kasbiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladigan g'oyaviy tarbiyaning qanchalik samara berishi oiladagi ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi

mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

G'oyaviy tarbiyaning harbiy xizmatchilar kasbiy madaniyatni shakllantirishda maktab bilan ota-onalar o'rtasidagi doimiy o'zaro hamkorlik muhim hisoblanadi. Har bir ota-ona o'z farzandlari tahsil olayotgan maktab o'qituvchilari bilan uchrashuvlar tashkil qilib turishlari, unda o'z farzandlarining ko'proq nimalarga qiziqishlari, qaysi fanlarni a'lo baholarga o'qishlari, qaysi fanlardan darslarni yaxshi o'zlashtirmasliklari, farzandining xulqi, odobi, qolaversa kelajakda kim bo'lishligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lib borishlari lozim. Farzandi tomonidan qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etib borish, ularga to'g'ri yo'l-yo'riqlar ko'rsatish bolaning kasb tanlashda adashmaslikka ko'mak beradi. Farzandining kelgusi hayotiga befarq bo'lmagan, uning vatanparvar inson sifatida shakllanishini xohlagan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda g'oyaviy tarbiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirishini "Mahalla" institutisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, qadimdan o'zbek mahallalari qadriyatlar maskani bo'lib kelgan. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, yordamga muhtoj insonlar holidan xabar olish, to'y-tomosha, hashar va ma'rakalarni mahalla faollari bilan maslahatlashib o'tkazish, yaxshi va yomon kunlarda birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari, avvalambor, mahallada fuqarolarning kayfiyati va turmush tarzida seziladi. Bu to'g'risida Prezident Shavkat Mirziyoyev, "Mahalla – jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi", деб бежизга таъкидламаган.

Biz "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona", "Mahalla – ham ota, ham ona" kabi naqlarni ana shu hayoti haqiqatning yorqin ifodasi sifatida o'rganamiz. Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyatlar, udum va an'analarimiz qayta tiklanib zamon talablari asosida boyib bormoqda. Farzandlarimizni g'oyaviy jihatdan tarbiyalashda ma'naviy qadriyatlar maskani bo'lgan mahallaning

imkoniyatlaridan keng foydalanmog‘imiz lozim. Ota-onalarning mahalla fuqarolar yig‘ini raislari, mahalla faollari, mahalladagi mehnat faxriylari va oqsoqollari bilan hamkorliklari g‘oyaviy tarbiyaning vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Insonda vatanparvarlik tuyg‘usi avval, o‘zi tug‘ilib o‘sgan, voyaga yetgan mahallasi bilan g‘ururlanish, uning yutuqlari bilan faxrlanish kabilar yordamida shakllanib boradi.

G‘oyaviy tarbiyaning harbiy xizmatchilar kasbiy madaniyatni shakllantirishda ta‘limning professional ta‘lim olish bosqichi ham o‘z o‘rniga ega. Bunda professional ta‘lim bosqichida har bir kasbning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda, insonda o‘z kasbi bilan g‘ururlanish, faxrlanish hissi shakllanib boradi. Qaysi kasb egasi bo‘lishdan qat‘iy nazar uning vijdonan halol va pok faoliyati mana-shu ona Vatan, uning kelajagi uchun xizmat qilishini anglab borishi vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda o‘z oilasiga, farzandlarining tarbiyasiga befarq bo‘lmagan, ularning kelajagi uchun qayg‘uradigan, jamiyatimizning kelajagi bugungi kunda biz voyaga yetkazayotgan farzandlarimizning qulida ekanligini his qilib yashayotgan har bir ota-ona va o‘zini tarbiyachi-murabbiy, deb bilgan har bir inson quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- birinchidan, oila sharoitida farzandlarimizga Vatanimiz tarixiga oid bilimlarni chuqur va har taraflama berish asosida kasb madaniyatiga nisbatan hurmat hissini shakllantirish;

- ikkinchidan, farzandlarimizga jamiyatimizning asosiy bug‘ini bo‘lgan oilaning o‘zida tashqaridan kirib kelayotgan yot va buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- uchinchidan, mustaqillik hamda bugungi tinch va osoyishta hayotimiz, farovon turmushimizning negizida g‘oyaviy tarbiyaning o‘rni muhimligini farzandlarimizning ongiga singdirish;

- to‘rtinchidan, o‘zining mustahkam ilmiy g‘oyasiga ega bo‘lgan, o‘z g‘oyasini har qanday buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qila oladigan, o‘tmish va bugungi kun

saboqlaridan to‘g‘ri xulosalar chiqara oladigan, kelajakni oldindan ko‘ra biladigan puxta bilimiga ega bo‘lgan farzandlarni tarbiyalash;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi. 2020 yil. 30 dekabr.
2. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. 1913.51 бет.
3. Маънавият: асосий тушунчалар изҳли луғати. –Т; 2010., 317-318 бетлар.

ЗНАЧЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ВОЕННЫХ КАДРОВ.

Мадалиева Рухиона Хакижановна
Старший преподаватель кафедры
“Экономических и социальных наук”
Таможенного института, к.п.н

Аннотация: В контексте данной статьи выдвигается вопрос актуальности развития компонентов эмоционального интеллекта в процессах формировании адаптационных навыков военных кадров к профессиональной культуре.

Ключевые слова: военные кадры, армия, эмоциональная сфера человека, эмоциональный интеллект, IQ, EQ, профессиональная культура, профессиональная адаптация.

Мир человека выражается в эмоциях, которые не только влияют на его субъективное восприятие мира, но и непосредственно связаны с физическим состоянием организма.

Исходя из этого эмоциональная сфера занимает важное место в социальной, образовательной, профессиональной и личной жизни человека. И так как трудовая деятельность военнослужащих и сотрудников правоохранительных органов связана с особыми, нередко сложными условиями, то многие процессы и явления в служебной среде сопровождаются определёнными эмоциональными состояниями или наоборот их сдерживанием и самоконтролем.

В свою очередь эмоциональная сфера человека как ключевая часть психики, представляет собой совокупность всех эмоциональных процессов, которые сопровождают его восприятие мира, реакцию и поведение на различные внутренние и внешние стимулы, исходящие из окружающей среды.

Через призму изучения эмоциональной сферы человека, касательно постановки вопроса о его профессиональной деятельности в психологии нередко используется понятие эмоционального интеллекта.

Определение данного концепта в социальной психологии была не проста. Так, нам всем известна шкала числовой оценки уровня умственного развития человека — IQ, разработанная в 1905 году французским психологом Альфредом Бине. Многочисленные тесты, опросники, логические примеры, измеряющие интеллектуальный коэффициент можно легко найти в различных Интернет сайтах. Однако IQ как стандартизированный индекс, оценивающий когнитивные способности человека, оказался ограниченным в объяснении причин жизненного успеха человека.

В данном аспекте в западной психологии используется понятие эмоционального интеллекта, обозначаемого EQ. Полагается что именно эмоциональная грамотность и эмоциональный опыт помогали человеку в доисторические времена выживать и адаптироваться к суровым условиям окружающей среды. Об этом писал ещё Чарльз Дарвин в своём труде 1872 года “Выражение эмоций у людей и животных”. (В психоанализе эмоции человека рассматривались как защитные механизмы, помогающие человеку избегать опасные ситуации, сторонники гештальтпсихологии утверждали, что человек

больше запоминает эмоции, полученные от негативного опыта, для того чтобы в дальнейшем не повторять ошибочные решения и просчёты) В дальнейшем индекс эмоциональной совокупности был популяризирован психологами Питером Саловей и Джоном Майером в 1990 году и позднее развивался Дэниелом Голманом, который ввел его в широкий оборот.

Итак эмоциональный интеллект (EQ) в научных исследованиях рассматривается как способность распознавать, понимать и управлять своими эмоциями, а также распознавать эмоции других людей и эффективно на них реагировать[1].

На наш взгляд, возможности EQ можно конструктивно использовать в профессиях военных и силовых структур, а именно в формировании личностнонаправленных индикаторов адаптации военных кадров. Это поможет развивать военным психологические навыки эффективно приспосабливаться к условиям службы, взаимодействовать с коллегами и командованием, а также справляться с профессиональными и личными трудностями.

Благополучная адаптация военных кадров в систему служебной дисциплины облегчает процесс вхождения личности в военную профессию и стойко выносить все её трудности и специфические условия работы, максимально качественно осуществлять свою трудовую деятельность, ответственно относиться к профессии военнослужащего, добросовестно выполнять требования и задания командования.

Что также относится и к адаптации молодых специалистов, начинающих профессиональную деятельность после окончания учебного заведения. А так как подготовка военных кадров значительно отличается от гражданских высших образовательных учреждений, то важным представляется развитие адаптации будущих специалистов к профессиональной деятельности уже на этапе обучения в военном ВУЗе.

Эмоциональный интеллект включает в себя несколько ключевых компонентов, таких как:

- самосознание (самоидентификация с личностью военнослужащего, создающее чувство гордости, осознание престижности и важности военной профессии, ощущение уважения со стороны окружающих);

- саморегуляция (умение регулировать свои эмоциональные состояния, строгое следование военной дисциплине, самоконтроль поведения как на службе, так и вне её пределов, разумное подавление излишней эмоциональности, избегание конфликтных ситуаций, субординация по отношению к выше стоящим офицерам);

- мотивация (под воздействием внутренних и внешних стимулов любовь к профессии, получение очередных военных званий, признание трудовых достижений со стороны коллег-офицеров и начальств, материальное поощрение);

- эмпатия и социальные навыки (умение сострадать, готовность прийти на помощь, не оставить в сложных боевых условиях сослуживцев, готовность к совершению спасательной операции в экстренных ситуациях).

Все эти элементы эмоционального интеллекта могут существенно влиять на профессиональное развитие и психоэмоциональное благополучие военных.

Роль эмоционального интеллекта в профессиональной адаптации военнослужащих выражается в первую очередь с приспособлением к стрессовым условиям, с которыми часто сталкиваются военнослужащие. Участие в боевых действиях, выполнение боевой задачи, постоянная боеготовность, строгое следование дисциплинарным правилам, регулярные переезды в связи с ротациями, высокие требования к физической подготовке и тд. могут вызывать психоэмоциональными нагрузками.

Эмоциональный интеллект помогает военнослужащим лучше справляться со стрессогенными факторами, понимая и регулируя свои эмоции, а также эффективно реагируя на эмоции окружающих, избегать импульсивных реакций и контролировать поведение для сохранения спокойствия и адекватности[2].

Эмоциональный интеллект помогает военнослужащим удерживать эмоциональную стабильность в стрессовых ситуациях, что крайне важно для принятия правильных решений в условиях неопределенности и опасности. Это также способствует лучшему взаимодействию с коллегами, уменьшая конфликты или конструктивно решает их, улучшая коммуникацию.

Военнослужащие, имеющие большой опыт службы, обладают большей эмоциональной зрелостью, соответственно имеют высокую степень самосознания и способны анализировать свои эмоции, более объективно оценивать свои сильные и слабые стороны, что способствует более высокой производительности и выполнению служебных обязанностей. Важным аспектом является внутренняя мотивация, направленная на выполнение обязанностей в интересах службы и своей страны.

В условиях военной службы крайне важными представляются такие коммуникационные навыки, как способность работать в команде, строить доверительные отношения с коллегами и командованием. Эмоциональный интеллект способствует развитию социальных установок, связанных с конструктивной критикой своих действий, готовностью к сотрудничеству и разрешению конфликтных ситуаций, тесное взаимодействие с товарищами по службе в ситуациях, когда требуется поддержка после травм или потерь..

Эмоциональный интеллект способствует развитию психологической гибкости. Военнослужащие, обладающие высоким уровнем EQ, легче переживают сложные или травмирующие события, такие как участие в боевых действиях и спасательных операциях, или утрата товарищей.

Эмоциональная грамотность также способствует развивать психоэмоциональное здоровье. В условиях военной службы часто возникает риск возникновения психических расстройств, таких как посттравматическое стрессовое расстройство (ПТСР). Развитие эмоционального интеллекта помогает в профилактике этих состояний, так как военные учатся распознавать и управлять своими эмоциями, а также искать поддержку в трудные моменты[3].

Развитию эмоционального интеллекта в подготовке военных кадров осуществляется через образовательные программы. Проведение семинаров-тренингов, направленных на формирование и укрепление EQ среди военных кадров, которые включают элементы психоэмоционального обучения, развитие навыков саморегуляции и эффективного общения.

Офицеры и командиры, которые обладают высоким уровнем EQ, могут стать образцом для подражания для своих подчиненных, оказывая влияние на развитие эмоционального интеллекта в целом внутри подразделения.

Какие методики можно использовать на определение уровня эмоционального интеллекта? Конкретных известных методик, нацеленных на выявление эмоционального интеллекта военнослужащих немного, но существуют общие тесты-опросники, которые можно модифицировать и адаптировать под сферу профессиональных компонентов военных кадров. Среди них можно выделить такие как: тест Николаса Холла; тест на определение эмоционального интеллекта Дэниела Гоулмана; тест Пола Экмана на определение эмоций по микровыражениям; тест-опросник коммуникативного контроля М.Шнайдера и тд.

Таким образом, эмоциональный интеллект играет важную роль в профессиональной адаптации военных кадров, помогая им лучше справляться с трудностями, стрессами и взаимодействовать в коллективе. Развитие эмоционального интеллекта способствует повышению личной и командной эффективности, улучшает психоэмоциональное состояние военнослужащих и повышает их способность к адаптации в сложных условиях службы.

Использованная литература:

1. И.Саванин. Влияние компонентов эмоционального интеллекта на уровень профессиональной адаптации военнослужащих. // Вестник Московского университета МВД России. №1, 2021. С.- 331
2. С.Щербаков. Эмоциональный интеллект как структурный компонент психологической культуры курсантов военных ВУЗов //

Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2-19. // [Электронный ресурс]
URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=37955> (дата обращения:
06.01.2025).

3. Морально-психологическая подготовка личного состава подразделения.//https://www.kaznu.kz/Электр_учебник_ВПП_Досмухамбетова/public

HARBIY XIZMATCHILAR KASBIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA KASBIY KOMPETENTLIKNING O‘ZIGA XOSLIGI

Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilar kasbiy tayyorgarligini oshirishda kasbiy kompetentlikning ahamiyati va zarurati, harbiy sohadagi kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga kompetentlikning ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qurolli Kuchlar, harbiy xizmatchi, kasbiy bilim, ko‘nikma va malaka, kasbiy mahorat, kompetentlik, kompetentlik turlari, kasbiy kompetentlik, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, jangovar shaylik.

Har bir davlatning tinchligi va barqarorligi uning iqtisodiy-ijtimoiy, fan-texnika, sanoat taraqqiyoti hamda harbiy salohiyati va mudofaa qudratiga bevosita bog‘liq. So‘nggi vaqtlarda jahonda yuz berayotgan voqealar tahlili, dunyo mamlakatlar o‘rtasida turli qurolli to‘qnashuvlar va qarama-qarshiliklar, geosiyosiy kurashlarning keskin davom etayotganligi, xususan, AQSh, Xitoy, Eron, Isroil munosabatlari, Rossiya-Ukraina, Isroil-Falastindagi (Xamas) mojarolar, mintaqada yuz berayotgan voqealar, Afg‘oniston hududida o‘rnashib olgan turli xalqaro terrorchilik tashkilotlarining faoliyati ham Markaziy Osiyoda, ayniqsa O‘zbekistonda har tomonlama rivojlangan armiyani shakllantirishni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, Qurolli Kuchlarimiz oldida turgan eng mas'uliyatli vazifa, eng ulug' ne'mat – Vatan mustaqilligi, uning tinchligini himoya qilish hisoblanadi. Davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan tahdidlarning mavjudligini inobatga olsak, harbiy xizmatchi ularning salbiy mohiyatini tushunib yetadigan, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, o'z burchi va qasamyodiga sodiq qoladigan, xizmat manfaatini shaxsiy manfaatdan doimo ustun qo'yib, zimmasidagi vazifani bajaradigan kompetent shaxs bo'lishi lozim.

Harbiy xizmatchilar jismoniy, axloqiy-ruhiy va kasbiy jihatdan tayyorgarliklari yuqori darajada bo'lishiga erishishi ularda dastlab kasbiy kompetentlikni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi quyidagi kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi:

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umumharbiy nizomlarini, Mudofaa doktrinasini, Milliy xavfsizlik Konsepsiyasini va harbiy xizmatni o'tashning qonuniy asoslarini hamda mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mohiyatini bilishi;

O'zbekiston Respublikasini, uning manfaatlarini himoya qilishga, mudofaa salohiyatini va xavfsizligini, mustaqilligi va davlat chegaralari daxlsizligini ta'minlashga doimo shay bo'lishi;

o'z xalqiga, Vataniga, Prezidentiga sodiq bo'lishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati qarorlarini to'g'ri tushunishi va ularni tatbiq etishda faol qatnashishi, shaxs, jamiyat, davlat va milliy manfaatlari himoyasi yo'lida jonini fido etishga tayyor bo'lishi;

gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar asoslarini, davlatning zamonaviy siyosati dolzarb masalalarini bilishi;

ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar va muammolarni mustaqil tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

Vatan tarixini bilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiy asoslash va ifodalashni bilish, milliy g'oyaga amal qiladigan, keng dunyoqarashga ega bo'lishi;

tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon hamda hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasbiy faoliyatida foydalana bilishi va bu borada ko'nikmalarga ega bo'lishi;

tabiat va jamiyat aloqadorligi va o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni bilishi hamda kasbiy faoliyatida ularni hisobga olishi;

ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

o'z kasbiy faoliyatida mustaqil ravishda asoslangan qarorlarni qabul qila olishi;

o'z mutaxassisligiga mos ravishda yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

o'z faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

axloqiy va huquqiy me'yorlar hamda majburiyatlarni hisobga olgan holda maqsadga erishishda qat'iyat ko'rsatishi;

harbiy ishni tashkil etishda kuch va vositalarni qo'llashning asosiy prinsiplarini bilishi;

muomala va kasbiy madaniyatni egallagan bo'lishi, og'zaki va yozma nutqini asoslangan holda aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

axloqiy-ruhiy holati barqaror, jangovar shay bo'lishi va buning uchun doimiy ravishda psixologik va jismoniy tarbiyaga oid ko'nikmalarini oshirib borishi;

egallangan tajribani tanqidiy ko'rib chiqish qobiliyati, zarur bo'lganda o'z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o'zgartirishi;

bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari davrida jamiyatning rivojlanishidagi axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunishi, bu jarayonda vujudga keladigan xavf va tahdidlarni anglashi, axborot xavfsizligining asosiy talablariga, jumladan xizmat, harbiy va davlat sirlarini himoya qilish talablariga, ularga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

kasbiy faoliyatiga doir ma'lumotlarga o'z vaqtida ega bo'lish uchun xorijiy tillarni bilishi;

sogʻlom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati toʻgʻrisida ilmiy tasavvur hamda eʼtiqodga, oʻzini jismoniy chiniqtirish oʻquv va koʻnikmalariga ega boʻlishi.

Harbiy xizmatchilar yuqoridagi kasbiy bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi ularning kasbiy kompetentligini qay darajada ekanligi bilan mustahkamlanib, kompetentlik oʻz faoliyatlarining barcha yoʻnalishlarida namoyon boʻladi. Shu bois, bugungi kunda ofitserlar va serjantlarda kasbiy kompetentlikni tarbiyalashning barcha komponentlari, tamoyillari, mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash deganda, avvalambor chuqur bilim va yuksak intellektual salohiyat, oʻz harbiy burchini bajarishda qatʼiy iroda va puxta tayyorgarlik sifatlarini shakllantirish lozim.

Kompetensiya (*lot. competo – loyiqman, munosibman, erishyapman*) u yoki bu sohadagi bilimlari, tajribasi. Kompetentlik – shaxsning muayyan taʼlim yoʻnalishi yoki mutaxassisligi boʻyicha olgan bilim, malaka va koʻnikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qoʻllay olish qobiliyatidir.

Kompetentlik insonga maʼlum masalalarda fikr bildirish, maʼlum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki oʻzi qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Hozirgi zamon fanida kasbiy kompetentlik, ilmiy, boshqaruv, pedagogik, didaktik, metodik, ijtimoiy-psixologik kompetentlikka oid tushunchalar keng qoʻllaniladi.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, koʻnikma, malaka tushunchalaridan koʻra kengroq maʼnoni anglatadi. Chunki, ular shaxsning fikrlash qobiliyati, xarakteri, ziyrakligi, dunyoqarashi, umuman irodaviy sifatlarini qamrab oladi.

Bugungi kunda kompetentlik tushunchalari va ularning tarkibiga kiruvchi muhim komponentlar mazmunini aniqlash, shuningdek, ularni faoliyatning turli sohalarda shakllantirish hamda rivojlantirish muammolari boʻyicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan boʻlib, bu ularni tasniflashni yuzaga keltiradi. Jumladan, quyidagi kompetentlik turlari mavjud: oʻzini tutish (*individual*) kompetentligi; texnik (*professional*) kompetentlik; umumiy kompetentlik; maxsus kompetentlik; boshlangʻich kompetentlik; ijrochilik kompetentligi; differensial kompetentlik.

O‘zini tutish (individual) kompetentligi – o‘zining professional vazifalarini bajarish paytida insonning individualligini xarakterlovchi kompetentlik. U shaxslararo munosabat, boshqarish usuli, tahlil qilish qobiliyati, maqsadni egallashga yo‘naltirilgan masalalarni o‘z ichiga oladi.

Bular “yumshoq talablar” yoki “yumshoq kompetensiyalar” deb yuritiladi.

Texnik (professional) kompetentlik – mehnat natijalari, professional majburiyatlarni bajarish standartlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kompetentlik. Bular “qattiq talablar” yoki “qattiq kompetensiyalar” deb yuritiladi.

Umumiy kompetentlik – ma‘lum bir kasb bilan shug‘ullanuvchi barcha insonlarni xarakterlovchi kompetentlik. Shu bilan birga insonning qaysi tashkilotda ishlayotgani yoki qaysi lavozimni egallagani muhim ahamiyat kasb etmaydi.

Maxsus kompetentlik – aniq professional majburiyatlarni samarali bajarish uchun kerak bo‘lgan kompetentlik. Bunda asosan harbiy xizmatchining o‘z vazifasini bajarish uchun kerak bo‘ladigan shaxsiy sifat, ko‘nikma va malakasini keltirishimiz mumkin.

Boshlang‘ich kompetentlik – topshirilgan professional vazifalarni bajarish uchun xodimga zarur bo‘lgan asos, bazaviy kompetentlar. Harbiy xizmatchining irodaviy sifatlarini keltirishimiz mumkin.

Ijrochilik kompetentligi – erishilgan natijalarning sifatini aniqlashtiruvchi kompetentlik. Ch. Vudravning fikriga ko‘ra, boshlang‘ich va ijrochi kompetensiyalar o‘rtasidagi farqni sezish qiyin, buning uchun ma‘lum darajadagi kompetentlik kerak bo‘ladi.

Differensial kompetentlik – u yoki bu darajada samarali ijrochilarni farqlashga yordam beradigan kompetentlik. Bu xildagi kompetentlikda u yoki bu professional vazifani bajarish paytida o‘zini qanday tutish kerakligi tasvirlangan modellar mavjud bo‘ladi.

Shu bilan birga, shunday kasbiy kompetentliklar borki, ular ko‘plab kasblar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va ishlab chiqarishda ham, ijtimoiy amaliyotda ham samarali hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan kasbiy kompetentliklar bunga misol bo'la oladi. E.F. Zeerning fikricha, kasbiy kompetentlik kasbiy bilimlar, ko'nikmalar yig'indisi, shuningdek, kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari bo'lib, ular quyidagi tarkibiy qismlardan iboratdir:

ijtimoiy-huquqiy kompetentlik – ijtimoiy institutlar va odamlarning o'zaro faoliyatlari sohasidagi bilim va ko'nikmalar, shuningdek, kasbiy muloqot yo'llari va xulq-atvor qoidalarini puxta egallaganlik;

maxsus kompetentlik – mustaqil ravishda muayyan faoliyat turlarini amalga oshirishga tayyorlik, ko'p uchraydigan kasbiy masalalarni yecha bilish va o'z mehnati natijalarini baholay olish, o'z mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtira olishga qodirlik;

shaxsiy kompetentlik – kasbiy mahorat va malakalarni doimiy ravishda orttirib borishga qodirlik, kasbiy faoliyatda o'zini ko'rsata olish;

autokompetentlik – o'zining ijtimoiy kasbiy imkoniyatlari bo'yicha haqqoniy tasavvurga ega bo'lish, kasbiy qiyinchiliklarni bartaraf eta olish.

Kompetentlik ta'lim natijasi sifatida ularni o'z ichiga oladi, lekin kompetentlikni bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida tushunmaslik kerak. Kompetentlik harbiy xizmatchilarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi.

Hozirgi vaqtda ofitserlar va serjantlarning eng muhim vazifalaridan biri askarlar va kursantlarning kasbiy kompetentliklarini barqarorlashtirish, rivojlantirish va bosqichma-bosqich shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Jumladan, harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash pedagogik ko'nikmalar orqali ham namoyon bo'lishi mumkin, xususan, harbiy xizmatchilarning pedagogik ko'nikmasi, pedagogik fikrlashi va ularni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq jihatlarining mosligini anglatadi. Pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, harbiy xizmatchilarning ta'limi jarayoni ta'lim beruvchi (komandir, boshliq, o'qituvchi, instruktor)ning o'qitish, saboq berish va ta'lim oluvchilarning

o'qish, o'rganish bo'yicha maqsadli, tizimli va hamkorlikdagi faoliyatidir. Bu jarayonda ta'lim beruvchi rahbar funksiyasini bajaradi.

Uning asosiy pedagogik vazifasi quyidagilardan iborat:

tinglovchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish va unga rahbarlik qilish;

o'quv materialini tizimli va ilmiy asosda bayon etish;

tinglovchilarda bilim olishga nisbatan qiziqish uyg'otish va ijobiy motivlarni shakllantirish;

ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish xususiyatlarini shakllantirish;

harbiy mahoratni oshirish;

ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hamda kasbiy mahoratini baholash.

Bu faoliyat jarayonida, ta'lim oluvchilar tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Shu bilan bir vaqtda ularning tafakkuri rivojlanadi, irodasi va xarakteri chiniqadi, jangovar vaziyatlarda harakat qilish uchun ruhiy tayyorgarligi shakllanadi.

Bu esa o'z navbatida keng tajribalardan unumli foydalanish va ilg'or texnologiyalarni qo'llash, zamon talablari asosida, harbiy xizmatchilarning o'z professional, nazariy va amaliy bilimlarini uzluksiz oshirib borishi, kasbiy kompetentligini shakllantirish qoidalarini nazarda tutadi. Kasbiy kompetentlik harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatini tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni egallashlariga ham imkon beradi.

Harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyati davomida quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

o'z professional, nazariy va amaliy bilimlarini uzluksiz oshirib borishi, o'zining dunyoqarashi, bilim va tajribasini doimiy ravishda kengaytirish, yangi bilimlarni o'zlashtirishga intilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi axborotlarni olish, ilg'or tajribalarni o'rganish;

xizmat burchini bajarishga vijdonan yondashish, vatanga sidqidildan xizmat qilish, moddiy va ma'naviy boyliklarimizni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

yuksak kasbiy malaka va ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish, sezgirlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, hamda bilish bilan bog'liq intellektual salohiyatni rivojlantirish;

har tomonlama keng bilim va yuksak professional mahoratga ega harbiy xizmatchi bo'lish, favqulodda va keskin sharoitlarda o'zi mustaqil ravishda nostandart qarorlar qabul qila olish;

harbiy san'atni o'rganish, o'z kasbiy bilimdonliklarini doimiy tarzda oshirib borish, ya'ni mustaqil tarzda harbiy qurilish, harbiy taktika va strategiyaga, harbiy boshqaruv va kasb odobiga oid ilmiy adabiyot va ommaviy nashrlardan foydalanish;

xizmat munosabatlarida xushmuomalalikka amal qilib, Umumharbiy nizomlar doirasida harbiy burch va majburiyatlarni bajarish, jamoat joylarida o'zini munosib tutish, shaxsiy xulq-atvorni nazorat qilib borish;

xorijiy tillarni o'zlashtirish, xorijiy tilda turli janrdagi (teleko'rsatuv, radio eshittirish, e'lonlar, yangiliklar va h.k.) audio va video matnlarni eshitib, asosiy ma'nosini tushunib muhokama qila olish, har qanday og'zaki nutqni tinglab tushunish;

ruhan va jismonan tetik, bardam, hushyor, doimo ogoh bo'lish, irodasini chiniqtirib borish, og'ir damlarda sabr-bardoshli bo'lish, xizmat va kasb sirlarini saqlash;

kasbiy faoliyatda juda ko'p uchraydigan nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga, shuningdek, butun kasbiy faoliyat jarayon-hodisalarini tahlil qilishga imkon beruvchi fikr doiralarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, barcha bo'g'indagi harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyati ofitserlar, serjantlar, kursantlar va askarlarda kompetentlik va ularning tarkibiga kiruvchi muhim komponentlar, mexanizmlar, tamoyillarni shakllantirish, shuningdek, o'quv faoliyatining kasbiy yo'nalganligini ta'minlashga yordam

beradigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish harbiy bilim yurtlari va serjantlar tayyorlash maktablarining ta'lim tizimini takomillashtirishning muhim vazifalaridir.

Yuqoridagi munozaralarga asoslanib, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda harbiy ta'lim jarayonini ham mazmunan, ham shaklan o'zgartirish, bunda ta'lim oluvchilarga faqat ma'lum bir kompetensiyalar bo'yicha bilim berish emas, balki butun harbiy ta'lim jarayoni davomida ular asosida faoliyat olib borishni ta'minlash nazarda tutiladi. Chunki, fan va texnikaning rivojlanishi, Qurolli Kuchlarning zamonaviy va murakkab jangovar texnika va qurol-yarog'lar bilan ta'minlanishi, yangi ta'lim texnologiyalarining yaratilishi va boshqa shu kabi hozirgi zamonga xos o'zgarishlar ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan tobora yangi talablar qo'ymoqda. Bu esa o'z navbatida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni talab qiladi hamda harbiy ta'lim sifatini baholash uchun juda muhim vazifa bo'lib, harbiy kadrlar tayyorlashda erishadigan asosiy ta'limiy natija kompetentlik asosidagi kasbiy malaka hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. // O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA). — Toshkent, 2020.

2. Тимофеев А.В. Проблемы военно-патриотического воспитания молодёжи в отечественных педагогических исследованиях. // Теоретические основы педагогики. — М., 2010. 16-б.

3. “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 140-son Qarori. 23.02.2018. // <https://lex.uz/docs/3571158>

HARBIY TA'LIMDA KASBGA YO'NALTIRILGANLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reimbayev Rozimboy Saburovich,

*FVV Akademiyasi "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy
fanlar" kafedrası dotsenti, f.f.n*

O'razbayev Nemat Komilovich,

*FVV Akademiyasi "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy
fanlar" kafedrası boshlig'i, t.f.b.f.d (PhD)*

Teshaboyev Boburjon Abror o'g'li,

*FVV Akademiyasi "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy
fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi*

Pardayev Zavqi Ergashevich

*FVV Akademiyasi "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy
fanlar" kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, harbiy ta'limda nazariya va amaliyot birligining o'ziga xosligi, kursant va tinglovchilar kasbiy madaniyatini oshirish, bu borada ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, uning tarkibida oqilonalik elementlarining shakllanishi hamda tezkor (operativ) amaliyot muammolarini mantiqiy tahlil madaniyatining oshirilishi masalalari ko'rib chiqilgan

Kalit so'zlar: harbiy ta'lim, islohot, kasbiy madaniyat, mantiqiy tafakkur, amaliyot, oqilonalik, tezkor amaliyot, mantiqiy tahlil madaniyati.

Mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama chuqur bilim olishlari uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yoshlar tarbiyasiga, ularning ilimli, yetuk va barkamol bo'lish uchun alohida g'amxo'rlik ko'rsatish bugungi davr uchun hayotiy zaruratdir. Chunki yoshlar – bu katta kuch. Ayniqsa aholining uchdan

ikki qismi yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatimiz uchun yosh avlodni ilmi, ma'naviy jihatdan komil inson qilib tarbiyalash yanada muhimdir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur" [1].

Bugungi kunda vatanimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kasbiy madaniyatini oshirish hamda ularda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish masalasi davlat siyosatidagi muhim va kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan biri ekanligini alohida e'tirof etish lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatida, bo'lajak mutaxassislarning professional bilim va malakalarini oshirish, ularni har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun ta'limda zarur shart-sharoitlarni yaratish eng ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan ushbu masalaga alohida urg'u berilgan: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [2].

Ma'lumki, har bir sohaning kelajagi va uning samarali rivojlanishi yuqori malakali kadrlar qo'lida bo'lib, hozirgi kunning asosi talabi esa aynan yetuk va har tomonlama shakllangan mutaxassislar tayyorlashdir. O'z yurtiga fidoyi, kasbiy madaniyati baland va yuksak malakali kadrlar – mamlakatimiz taraqqiyotining bosh kafolatidir.

Hozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz tashkiliy va tarkibiy jihatdan ancha takomillashdi. Tuzilmalarning harakatchanligi, jangovar qobiliyati, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy tayyorgarligi oshdi. Harbiy qism va bo'linmalar zamonaviy qurol-yarog' va jangovar texnika bilan ta'minlandi. Milliy armiyamizni professional kadrlar bilan to'ldirish, harbiy xizmatchilarning

tayyorgarligini, bilim va ko'nikmalarini yanada yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar e'tiborga loyiq.

Jumladan, harbiy ta'lim O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining ajralmas va juda muhim bo'g'iniga aylandi. Shu sababdan jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy sohasida kechayotgan turli tuman ijobiy va shu bilan bir qatorda, muammoli jarayonlar ham harbiy ta'lim tizimining barcha bosqichlari, tuzilmalariga bevosita xosdir. Jumladan, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2023-yilda o'tkazilgan Milliy xavfsizlik kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida bu sohaga alohida e'tibor qaratib, harbiy ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq eng dolzarb masalalarning mohiyati, bu sohani isloh qilishning asosiy masalalari va bugungi kunda bu borada bajarilishi zarur bo'lgan fundamental vazifalarni belgilab berdi.

Harbiy ta'lim tizimi, ayniqsa uning oliy ta'lim bo'g'ini, boshqa ta'lim tizimlaridan o'zining alohida o'ziga xosligi, substansional jihatlari bilan ajralib turadi. Keyingilar qatorida bu sohada amaliyotga yo'naltirilganlikning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

Umuman olganda, ta'limning tegishli amaliyot sohasi bilan bog'liqligi masalasi bilim olish jarayonini amalga oshirishning eng muhim asoslaridan biridir. Xo'sh, amaliyotning bilim olish jarayonidagi o'rni va ahamiyati nimada?

Amaliyotga umum-falsafiy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak. bu- tashqi olamdagi obyektiv mavjud bo'lgan narsa va hodisalarga faol ta'sir etish, ularni o'zlashtirish, o'zgartirish va qayta qurish yo'li bilan insonning uni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitga kirib borish jarayonidir. Demak, amaliyot obyekt bilan subyekt o'rtasidagi munosabat bo'lib, uning mohiyati subyektning obyektga ta'siri, obyektning maqsadga muvofiq o'zgartirishdan iborat.

Haqiqatan ham, amaliyotning bilim olish jarayonidagi ahamiyati beqiyosdir. Chunki, birinchidan, amaliyot bilishning sarchashmasi, negizi, uni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi, ikkinchidan amaliyot o'zining muhim

ehtiyojlari bilan birga bilishning maqsadi hamdir, uchinchi amaliyot inson bilimlari va tasavvurlarining haqiqiyliги mezonі (ko'rsatkichi)dir.

Demak, amaliyot va bilish insonning bir butun ijtimoiy faoliyati tizimidagi bir-biriga dialektik aloqador bo'lgan ikki tomondir. Bu yerda ularning qaysi biri birlamchi, qaysisi ikkilamchi ma'nosida fikr yuritish unchalik to'g'ri emas. Amaliyot va bilish tizimi biri ikkinchisi orqali yoki ikkinchisi tufayli mavjuddir.

Amaliyot haqidagi yuqoridagi umumnazariy fikrlarni bu yerda keltirishdan maqsad harbiy ta'lim tizimi jarayonida harbiy amaliyotning o'ziga xosligi va ahamiyati hamda ta'lim oluvchilar tomonidan bu masalaga adekvat yondashuvning muhim jihatlarini ochib berishdan iborat edi.

Darhaqiqat, harbiy amaliyot o'zining qator substansional xususiyatlari bilan boshqa sohalar amaliyotchilaridan farq qiladi.

Harbiy amaliyot, birinchi navbatda, o'zining tezkor (оператив) xarakteri bilan ajralib turadi. Mazkur amaliyot jarayonlariga tezkorlik bilan kirishishlik, ko'p variantlilik, voqealar natijalarini oldindan aytib bo'lmaslik, xavflilik, tahlikalilik, vahimalilik, dahshatlilik va hakoza holatlar xosdir. Oddiy fuqarolar bunday holatlarda adekvat harakat qilishlari qiyin kechadi.

Harbiy amaliyotda haqiqatan ham vaziyatga to'g'ri yondashuv, tezkorlik bilan harakat qilish uchun xodimlar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, yuqori intellektual bazaga, tegishli ruxda shakllantirilgan tafakkurga, zaruriy psixologik ko'nikmalarga ega bo'lgan bo'lishlari shart. Bulardan ba'zilar, odatda, tegishli joylarda, maxsus amaliy mashg'ulotlarda shakllantiriladi.

Ammo, ta'lim jarayonida tinglovchilar asosan nazariy bilimlarni oladilar, ma'lum intellektual salohiyatga ega bo'ladilar. Shu sababdan, ularda harbiy tezkor (оператив) amaliyotga adekvat yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish uchun faqat tegishli bilim bazasini yaratishning o'zi kamlik qiladi. Shu bilan bir qatorda, ularda tafakkur va kasb madaniyatini, ya'ni "harbiy, tezkor (оператив) tafakkur"ni shakllantirish ham talab qilinadi. Bu esa o'z navbatida, tinglovchilar tafakkurini aqliy tafakkur darajasiga ko'tarish, aqliy salohiyatini oshirish, tafakkur mazmunida

oqilonalikni oshirish, fikrlash madaniyatini rivojlantirishni obyektiv zaruriyat sifatida keskin qilib kun tartibiga qo'yadi.

Bu masalaga harbiy ta'lim sohasida alohida e'tibor qaratish ayniqsa muhimdir. Masalaning muhimligi yana shu jihat bilan ham dolzarblashadiki, 2014-yildayoq bu borada davlatimi rahbariyati tomonidan harbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tafakkur salohiyati va fikrlash madaniyati darajasiga nisbatan jiddiy e'tirozlar bildirilgan edi. Shu munosabat bilan ushbu ta'lim muassasalari kursant va tinglovchilariga falsafa va mantiq kabi fanlarni o'qitish sifatini oshirish, o'quv rejasida ushbu fanlarning o'quv soatlarini ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan edi.

Darhaqiqat, falsafa va mantiq fanlari tinglovchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, tafakkurini boyitish, uning tarkibida oqilonalik darajasini oshirishga bevosita yo'naltirilgandir. Ushbu fanlar o'rganuvchilar tafakkuri kengligi va mazmunlilikini belgilab beruvchi, amaliy faoliyat va bilish jarayonining umumiy tamoyillarini tadqiq qiluvchi ta'limotlar, kategoriyalar yaratuvchi, umumiy qonunlarni ochib beruvchi va, bir so'z bilan aytganda, har qanday amaliyot va xususiy fanlarning nazariy-mantiqiy asosini tashkil qiluvchi yagona umumnazariy fanlardir.

Shu o'rinda buyuk mutafakkir Farobiyning "Falsafani o'rganishdan avval nimalarni bilish kerak" nomli risolasida mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlari alohida e'tiborga loyiq ekanligini ta'kidlash zarur. U shunday yozadi: "Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha xollarda, to'g'ri tafakkurga yetaklaydigan, uning yordamida har safar xulosa chiqarayotganda adashishga qarshi ehtiyoj choralarni ko'rsatadigan san'atni — mantiq san'atini o'rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo'lgan munosabati grammatika san'ati qoidalarining tilga bo'lgan munosabatiga o'xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to'g'rilash ehtiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo'lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda aqlni to'g'rilab turadi" [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, harbiy ta'lim muassasalarida tinglovchilarda tezkor tafakkur ("оперативное мышление")ni shakllantirish maqsadida quyidagilarga alohida e'tibor berish talab qilinadi:

kursant va tinglovchilarga to'g'ri muhokama yuritishning mantiqiy shakllari va qoidalarini o'zlashtirishga yordam berish, ularning mustaqil fikrlash madaniyatini yuksaltirish;

kursant va tinglovchilar tafakkurini boyitish, oqilonalashtirish;

o'zining va boshqalarning fikriga tanqidiy munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish;

sohaga oid murakkab muammo va masalalarning tuzilishi (strukturasini) aniqlash, ularning tub mohiyatini anglab olish, mavjud ziddiyatlarni idrok qilishga yordam beruvchi mantiq vositalarini egallash;

axborot yig'ish, tahlil qilish, umumlashtirish, tizimga solish va xulosa chiqarish metod (usul)larini egallash;

tizim tamoyili, tizimli tahlil va tezkor amaliyot sohasiga tizimli yondashuv usullarini egallab olish;

tushunish va tushuntirish metodlari va tamoyillarini egallab olish;

argumentlash, isbotlash va rad qilish (raddiya) asoslarini, usullarini egallab olish.

Ushbu vazifalarning to'laqonli amalga oshirilishi o'z navbatida, harbiy (operativ) amaliyotda samarali, aniq maqsadga yo'naltirilgan, muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zamin yaratadi. Faqat aqliy tafakkurgina tezkor (operativ) vaziyatni chuqur anglashning zaruriy quroli, ya'ni voqea va hodisalarni tushunish, to'g'ri tahlil qilish, olgan ma'lumotlarni umumlashtirish, sintez qilish, aniq xulosalar chiqarish vositasiga aylanadi. Natijada, bunday tafakkur, odatda harbiy xizmatchilar tomonidan sohaga oid muammo va masalalarning tub mohiyatini tushuntirib berishda, ularning tarkibiy tuzilmalarini (strukturasini) aniqlashda, ziddiyatli, tezkor (operativ) vaziyatlar sodir bo'lgan taqdirda ularni bartaraf etish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.M. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2021.
2. SH.M. Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2016.
3. Forobiy va uning falsafiy risolalari. M. Xayrullayev tahriri ostida. – T.: “Fan”, 1969.

HARBIY TA'LIM TIZIMIDA KASBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFA FANINING IJTIMOIIY FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI

Allayarov Otabek Erkinovich

O‘zbekiston Respublikasi

Qurolli Kuchlar Akademiyasi dotsenti

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori

e-mail:Otabekallayarov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola harbiy ta'lim tizimida kasbiy madaniyatni shakllantirish jarayonida falsafa fanining ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasining ahamiyatini tahlil qiladi. Falsafa va ijtimoiy fanlarning uyg'unligi shaxsiy va kasbiy qarashlarni shakllantirishda muhim o'rin tutishi ko'rsatilgan. Tadqiqotda harbiy kadrlarni tarbiyalashda axloqiy, ma'naviy va intellektual qadriyatlarning mustahkamlanishi zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, harbiy ta'limda falsafiy yondashuv orqali strategik fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy ta'lim, kasbiy madaniyat, falsafa, ijtimoiy fanlar, integratsiya, axloqiy qadriyatlar, strategik fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviy tarbiya.

Hozirgi kunda harbiy ta'lim tizimi mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlashda va harbiy xizmatchilarni har tomonlama yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Harbiy kadrlarning nafaqat yuqori malakali mutaxassis, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol inson bo'lishlari jamiyat uchun katta ahamiyatga ega. Bunda kasbiy madaniyatni shakllantirish alohida o'ringa ega bo'lib, falsafa va ijtimoiy fanlarning o'zaro integratsiyasi bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy madaniyat — bu mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar asosida amalga oshirish qobiliyatidir. Harbiy xizmatchilarda bu madaniyat faqat texnik bilim va ko'nikmalar bilan cheklanib qolmay, balki ularning ma'naviy dunyoqarashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, shuningdek, mas'uliyat va vatanparvarlik kabi fazilatlarni ham o'z ichiga oladi[1].

Harbiy ta'lim tizimida kasbiy madaniyatni shakllantirish, harbiy xizmatchilarning bilim va ko'nikmalarini mukammallashtirish hamda ularda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda falsafa fanining roli beqiyosdir, chunki falsafa fani harbiy xizmatchilarning tanqidiy fikrlash, qadriyatlarni anglash va mantiqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Falsafa boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda, harbiy ta'limni yanada samarali va mazmunli qilishga xizmat qiladi.

Falsafa inson dunyoqarashini shakllantiruvchi va undagi fundamental savollarga javob berishga qaratilgan fan sifatida harbiy ta'limda o'quvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda asosiy manba hisoblanadi. Ijtimoiy fanlar, jumladan, tarix, siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va huquqshunoslik bilan integratsiyalashgan holda falsafa quyidagi yo'nalishlarda samaradorlikni oshiradi:

Falsafa va tarixning integratsiyasi harbiy xizmatchilarda o'z milliy tarixi va madaniyatiga hurmatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafa milliy qadriyatlarning mazmunini anglash, ularning ma'naviy asoslarini tahlil qilish va ulardan saboq olish imkonini bersa, tarix esa ushbu qadriyatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonini aniq faktlar bilan tasvirlaydi. Bu ikki fanning birgalikdagi

ta'siri orqali harbiy xizmatchilar o'z xalqining boy madaniyati, tarixiy merosi va erishgan yutuqlaridan faxrlanish hissini chuqur his qiladilar.

Masalan, O'zbekiston tarixida Amir Temur kabi buyuk shaxslarning faoliyati va ularning davlat qurilishidagi o'rni haqida bilim olish harbiy xizmatchilarda nafaqat milliy g'ururni uyg'otadi, balki harbiy strategiya va liderlik fazilatlari bo'yicha ulardan ilhom olish imkonini beradi.

Falsafa va siyosatshunoslikning integratsiyasi harbiy xizmatchilarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Bu ikki fanning birlashishi orqali harbiy xizmatchilar o'zlarining siyosiy ongini rivojlantiradilar, jamiyat va davlat tizimidagi o'rnini tushunib yetadilar, shuningdek, xalqaro munosabatlar va geosiyosiy vaziyatlarga nisbatan to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Falsafa va siyosatshunoslik harbiy xizmatchilarni nafaqat o'zlarining harbiy majburiyatlarini, balki siyosiy va fuqarolik mas'uliyatlarini ham tushunishga o'rgatadi. Falsafiy nuqtayi nazardan, harbiy xizmatchilarga davlatning siyosiy tizimi, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari haqida tushunchalar beriladi, siyosiy vakolatlar va davlatning ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Falsafa va siyosatshunoslik integratsiyasi harbiy xizmatchilarga geosiyosiy masalalarni, xalqaro munosabatlar va xavfsizlikni tahlil qilishda yordam beradi. Masalan, falsafiy qarashlar orqali xotirjamlik, sabr-toqat va diplomatiyaning ahamiyati tushuniladi, siyosatshunoslik esa o'zaro munosabatlarning murakkabligini va ularning xavfsizlikka ta'sirini ko'rsatadi. Harbiy xizmatchi, shuningdek, turli siyosiy tizimlarning qanday ishlashini va ularning xalqaro xavfsizlikka qanday ta'sir qilishini tushunishi kerak.

Falsafa va psixologiyaning birlashishi orqali harbiy xizmatchilarning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy muammolarni hal qilishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Falsafa ularga axloqiy qadriyatlarning mohiyatini tushunishga va ularni hayotda qo'llashning umumiy prinsiplari bilan tanishtirishga yordam beradi. Psixologiya esa shaxsning psixologik xususiyatlarini o'rganib, stressli vaziyatlarda va murakkab sharoitlarda to'g'ri qaror qabul qilish uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Masalan, harbiy xizmat paytida qo'mondon yoki oddiy askar urush paytida tinch aholiga ziyon yetkazmaslik, qo'lga tushgan asirlarni insonparvarlik tamoyillariga muvofiq tutish kabi axloqiy masalalar bilan duch kelishi mumkin. Falsafaning inson huquqlari, axloqiy javobgarlik va adolat prinsiplarini o'rgatish orqali ular ushbu vaziyatlarda to'g'ri yo'lni tanlay oladi. Shu bilan birga, psixologiya ularga qiyin va emotsional jihatdan og'ir sharoitlarda stressni boshqarish, hissiy barqarorlikni saqlash va ratsional qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Falsafa va sotsiologiyaning uyg'unlashuvi harbiy xizmatchilarga ijtimoiy munosabatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi, bu esa ularning jamoa ichida samarali ishlashi va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Falsafa inson hayoti va ijtimoiy hayotning ma'nosi, axloqiy me'yorlar, mas'uliyat va adolat kabi fundamental masalalarni o'rgatadi. Sotsiologiya esa jamiyatning tuzilishi, jamoalar o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy tenglik va muvozanatni saqlash tamoyillari haqida bilim beradi.

Masalan, harbiy xizmatchilar uchun jamoa ichidagi rollarni to'g'ri anglash va ularga moslashish muhim ahamiyatga ega. Falsafa ularga har bir insonning qadr-qimmati va jamoadagi o'rnini tushunishga yordam beradi, bu esa hurmat va hamkorlik muhitini shakllantiradi. Shu bilan birga, sotsiologiya jamoa ichidagi ijtimoiy dinamikani, masalan, yetakchilik va izdoshlik munosabatlarini o'rganishga yordam beradi. Bu bilimlar harbiy xizmatchilarga murakkab sharoitlarda jamoaviy qarorlar qabul qilishda va ziddiyatlarni hal qilishda samarali yo'l tutishga yordam beradi.

Falsafa va huquqshunoslikning integratsiyasi harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimlarini kengaytirish bilan birga, qonuniylik va intizomga qat'iy rioya qilish madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Falsafa inson huquqlari, erkinliklar, adolat va mas'uliyat kabi asosiy tushunchalarni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Huquqshunoslik esa bu tushunchalarni amaliyotda qo'llash, qonunchilik va normativ hujjatlarga rioya qilish ko'nikmalarini beradi.

Misol uchun, harbiy operatsiyalar davomida xizmatchilar xalqaro gumanitar huquq qoidalariga rioya qilishlari shart. Bu qoidalar tinch aholini himoya qilish va

urush qoidalariga amal qilishni talab qiladi. Falsafa harbiy xizmatchilarni inson qadr-qimmati va hayotining ahamiyati haqida chuqur mulohaza yuritishga o'rgatadi. Huquqshunoslik esa xalqaro huquq me'yorlari, masalan, Jeneva konvensiyalari haqida aniq bilim beradi. Natijada, harbiy xizmatchilar qonuniy va axloqiy jihatdan to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Falsafaning tarkibidagi etika va estetika harbiy xizmatchilarning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi

Etika insonning axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonini belgilovchi tamoyillarni o'rgatadi va bu tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatchilar ko'pincha axloqiy jihatdan murakkab qarorlar qabul qilishga majbur bo'ladilar. Masalan:

1. Urush vaqtida axloqiy tamoyillarni saqlash – Falsafa harbiy xizmatchilarga insonparvarlik va adolat haqida chuqur tushuncha beradi, etika esa bu tamoyillarni amalda qo'llashni o'rgatadi. Jeneva konvensiyalari kabi xalqaro huquq normalariga rioya qilish jarayonida axloqiy mas'uliyatni his qilish zarur.

2. Jamoa ichida hurmat va o'zaro ishonchni saqlash – Etika jamoadagi har bir a'zoning o'zaro hurmat qilish tamoyillariga rioya etishini ta'minlashga xizmat qiladi, bu esa intizom va birlikni mustahkamlaydi.

3. Axloqiy liderlikni shakllantirish – Harbiy rahbarlar o'z qarorlarida nafaqat qonuniylikni, balki axloqiy adolatni ham inobatga olishlari lozim. Falsafa ularga mas'uliyatli rahbarlikni tushunishda yordam beradi, etika esa bu tamoyillarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi.

Etikaning tushunchalari — (yaxshilik va yomonlik, adolat, baxt, vijdon, burch va hokazo)

Tamoyillari — (insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik, hamkorlik va hokazo)

Etika mezonlari (normalari) -xushmuomalalik, shirinsuxanlik, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, chidamlilik, himmatlilik, samimiylik, do'stlik, sharm-hayo va hokazolarni ilmiy-amaliy asoslab beradi.

Estetika axloqiy tamoyillarni vizual va madaniy jihatdan boyitadi. Harbiy sohada estetik qarashlar harbiy xizmatchilarning ichki madaniyatini, professional qiyofasini va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

1. Harbiy intizomning tashqi ko'rinishi – Harbiy formaning go'zalligi, tozaligi va saranjom-sarishtaligi estetikaning namoyonidir. Bu nafaqat harbiy xizmatning tashqi jihatlarini, balki ichki intizomni ham aks ettiradi.

2. Muhitni tartibga solish va qulaylik yaratish –Madaniy muhit va go'zallik (san'at asarlari, yodgorliklar, tabiat manzaralari) harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladi, bu esa ularning xizmatga bo'lgan yondashuvini yaxshilaydi.

3. Estetik tarbiya va madaniy qadriyatlar – Falsafa estetik qadriyatlarni anglashni rivojlantirsa, estetika harbiy xizmatchilarning san'at, adabiyot va madaniyatga qiziqishini oshiradi. Bu ularning ma'naviy dunyosini boyitadi va milliy madaniyatga hurmatni mustahkamlaydi. Estetik tarbiyaning jamiyat taraqqiyotida naqadar muhim rol o'ynashi hammaga ma'lum. Estetik tarbiya ma'naviy tarbiyaning muhim va tarkibiy qismi ekanini unutmaslik kerak[2].

Harbiy ta'lim tizimida kasbiy madaniyatni shakllantirish jarayoni falsafa va ijtimoiy fanlarning integratsiyasiga asoslangan holda olib borilishi zarur. Bu integratsiya harbiy xizmatchilarning nafaqat yuqori malakali mutaxassis, balki yuksak axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatga ega shaxs bo'lishlarini ta'minlaydi. Natijada, harbiy kadrlarning jamiyatda o'z o'rnini anglashlari va mamlakat barqarorligini ta'minlashga qo'shadigan hissasi sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonov F.F. Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy pedagogik asoslari. //Xalq ta'limi – Toshkent, 2022. № 5. –B. 35-40
2. B.Ziyomhammadov. Pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006-yil.

PROKURATURA TIZIMINING O‘ZIGA XOSLIGI VA PROKURORLAR MA’NAVIY QIYOFASI. QONUN USTUVORLIGI VA AXLOQ MASALALARI

Xoliyarova Maxbuba Sottorovna

Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar”

kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Prokuratura tizimi davlat organlarining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, huquqni muhofaza qilish, adolatni ta’minlash va jamiyatda huquqiy tartibni saqlash vazifalarini bajaradi. Uning o‘ziga xosligi, birinchi navbatda, prokurorlarning vazifalari, funksiyalari va jamiyatdagi roli bilan bog‘liq. Maqolada prokuratura tizimining asosiy xususiyatlari va prokurorlarning ma’naviy qiyofasiga alohida e’tibor haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: prokuratura tizimi, prokurorning ma’naviy qiyofasi, ma’naviyat, kasbiy madaniyat, jamiyat, adolat, huquqni muhofaza qilish.

**“Qonun hukmron bo‘lgan jamiyatda albatta adolat,
siyosiy-ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va yuksalish
bo‘ladi, inson qadri, huquq va manfaatlari ta’minlanadi”.**

Shavkat Mirziyoyev

Bugun Yangi O‘zbekistonda davlat xizmati tizimini isloh qilish, xalq ongida va qarashlarida davlat xizmati va xizmatchisi munosabatlari va ularning davlat hamda jamiyat hayotida tutgan o‘rni, ahamiyati haqida yangi tasavvurlar va qarashlar shakllanib bormoqda. Davlat xizmatchisining Vatan oldidagi mas’uliyati, xalqqa xizmat qilishning birinchi darajali burch ekani, o‘z egallab turgan lavozimiga loyiqligini amalda ko‘rsatib berish kabi mezonlar ustuvorlik kasb etmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat xizmatining samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat organlari va tashkilotlarini

malakali mutaxassislar bilan yetarli darajada ta'minlash hamda kadrlar malakasini yuksaltirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu jumladan, nomzodlarni ochiq mustaqil tanlov orqali saralab olish jarayonini kompleks huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish samaradorligi va kompetensiyasini baholovchi mezonlarni, ularning malakasini oshirishga bo'lgan talablarni belgilovchi to'g'ridan-to'g'ri ta'sir kuchiga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

“Prokuratura tizimi ham, odamlarimizning unga nisbatan munosabati ham o'zgarmoqda. Bugungi kunda el-yurtimiz prokuratura timsolida “jazolovchi idorani” emas, balki aholi va tadbirkorlarning buzilgan huquqlarini tiklashga ko'maklashadigan, ularning dardiga sherik, madadkor bo'lishga harakat qiladigan xalqparvar tuzilmani ko'rmoqda”[1] Shavkat Mirziyoyev.

Hozirgi kunda yurtimizda yoshlarning intellektual va kasbiy madaniyatini yuksaltirish, ularni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning porloq kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan barkamol, yetuk, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Prokuratura tizimining o'ziga xosliklari:

1. Mas'uliyat va vakolatlar:Prokuratura organlari huquqbuzarliklarni aniqlash, tekshirish va ushlash, jinoyat ishlarini tadqiq etish, sudlarda jinoyat ishlari bo'yicha davlat aybdorini o'tkazish vazifalarini bajaradi. Ushbu vazifalar prokuraturaning o'ziga xosligini tashkil etadi.

2. Qonun ustuvorligi: Prokuratura tizimi qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Prokurorlar davlat organlari va jismoniy shaxslarning qonunlarga muvofiqligini nazorat qilish orqali huquqiy tizimning samaradorligini oshirishda ishtirok etadilar.

3. Huquqni muhofaza qilish: Prokurorlar jamiyatdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jinoyatchilikni kamaytirish va inson huquqlarini himoya qilishda

aktiv qatnashadilar. Ularning faoliyati jamiyatdagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish sud-huquq sohasidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan. Unga ko‘ra, davlat ayblovchisi faoliyatini xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribaga muvofiqlashtirish yuzasidan qonun loyihasini tayyorlash nazarda tutilgan. Bundan ko‘rinadiki, sud-huquq islohotlarida sudlar faoliyatida prokuror ishtirokini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, jinoiy sud ishlarini yuritishda prokurorlar davlat vakili sifatida namoyon bo‘ladi. Uning bilim-saviyasi, o‘zini tutishi, protsessga tayyorligi, dalillarni tekshirishdagi ishtiroki, ziyrakligi ish bo‘yicha qanday qaror qabul qilinishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Prokuratura xodimlari yuqori kasbiy malaka va yuksak insoniy fazilatlar bilan davlat organlari xizmatchilariga o‘rnak bo‘lishi, hamisha adolat va qonuniylik himoyasida turishi lozim”. “Prokuror” lotincha *procurare* – ya’ni “boshqarmoq, bermoq” va “g‘amxo‘rlik qilmoq” (inglizcha *public procurator*, *public procurator*, fransuzcha *procureur*) degan ma’nolarni anglatadi va prokuratura organlarining mas’ul mansabdor shaxsidir.

Prokurorlar ma’naviy qiyofasi deganda, ularning axloqiy, etik va huquqiy standartlarga bo‘lgan munosabatlari, professional faoliyatlaridagi prinsiplari va jamiyatdagi roli tushuniladi. Prokuratura tizimi jamiyatda huquqiy tartibni saqlashda, inson huquqlarini himoya qilishda va adolatni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Prokurorlarning ma’naviy qiyofasi ularning faoliyatidagi etik standartlarga, xalqaro prinsiplarga va jamoatchilik oldidagi mas’uliyatga asoslanadi. Shuning uchun prokuratura tizimida ish olib boruvchi har bir prokurorning ma’naviy qadriyatlari va professional etikasi juda muhimdir.

Bu ayniqsa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Etika va odob: Prokurorlarning ma'naviy qiyofasi ularning etik standartlari va odob-axloqiy prinsiplari bilan belgilanadi. Prokurorlar o'z faoliyatida adolat, haqiqat va inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerak. Ular o'z faoliyatlarida adolatli qarorlar qabul qilish va noto'g'ri faoliyatlarga yo'l qo'ymaslik uchun mas'uldirlar.

2. Mas'uliyat va xalqaro standartlar: Prokurorlar o'z vazifalarini bajarar ekan, jamoatchilik va davlat oldidagi mas'uliyatni his qilishlari muhimdir. Ular xalqaro standartlarga mos ravishda ish olib borishlari, korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etishlari lozim. Prokurorlar jamiyatdagi huquqiy tartibni saqlashda, jinoyatchilikka qarshi kurashishda va inson huquqlarini himoya qilishda mas'uldir. Ular o'z vazifalarini bajarishda jamiyatga va davlatga bo'lgan mas'uliyatni his qilishlari muhim.

3. Huquqiy bilim va malaka: Prokurorlar huquqiy bilimlarini oshirib borishlari, zamonaviy huquqiy standartlar va xalqaro talablarga mos ravishda ish olib borishlari lozim. Ular doimiy ravishda huquqiy va ma'naviy rivojlanishga intilishlari zarur.

Muntazam professional ta'lim dasturlari va seminarlarda qatnashish orqali o'z malaka va qobiliyatlarini rivojlantirishi kerak. Prokurorlar huquqiy bilimlari va malakasining ahamiyati juda katta. Ular jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqni muhofaza qilish va adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Prokuratura faoliyatining eng muhim prinsiplaridan biri bu qonuniylik bo'lib, bu bir tomondan uning faoliyatining boshqa barcha prinsiplarini amalga oshirish uchun zaruriy shartdir, boshqa tomondan esa davlatchilikni mustahkamlash va rivojlantirishning eng muhim vositasidir. Qonunda yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish prokurorning muayyan funksiyalarini belgilab beradi. Prokuratura funksiyasini qonun bilan belgilangan mustaqil faoliyat turi sifatida tushunish kerak, qaysiki prokuraturaning o'z vazifalarida ifoda etiladigan, ushbu vazifalarni hal etishga qaratilgan va yuklatilgan vakolatlar hamda huquqiy vositalardan foydalanishni talab etadigan ijtimoiy maqsadi bilan belgilanadi[2].

Sitseron: "Qonunlar sust bo'lganda, prokurorlar kuchli bo'lishi kerak."degan[3] fikrni olg'a suradi. Bu fikr qonun ustuvorligini ta'minlashda prokurorlarning muhimligini ta'kidlaydi.

Prokurorlar huquqiy bilimlarga ega bo'lganda, ular o'z vazifalarini samarali bajara oladilar. Ularning huquqiy bilimlari, jinoyatlarning qonunlar bilan bog'liqligini tushunish va buni jamiyatda o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Prokurorlar, jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda, jabrlanganlarning huquqlarini inobatga olishlari va ularga zarur yordam ko'rsatishlari kerak. Prokurorlar professional etika va mas'uliyatni his qilishlari uchun huquqiy bilimlar muhimdir. Ularning etik qarorlari va xulosalari, huquqiy normalarga asoslangan bo'lishi zarur. Prokurorlar jinoyatlarni tadqiq qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish va faktlarni aniqlashda yuqori professional malakaga ega bo'lishlari kerak. Bu, jinoyat ishlarini aniq va samarali tahlil qilishga yordam beradi. Prokurorlar huquqiy tizimning boshqa ishtirokchilari bilan, masalan, sudlar, politsiya va jamoat tashkilotlari bilan samarali hamkorlik qilishlari uchun huquqiy bilimlar zarur. Bu hamkorlik huquqiy tizimning samaradorligini oshiradi. Prokurorlar uchun huquqiy bilimlar va malaka, ularning faoliyatining asosiy elementlaridir.

4. **Insonparvarlik:** Prokurorlar jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda insonni, uning huquqlari va qadr-qimmatini hisobga olishi kerak. Ularning faoliyati jamiyatdagi adolat va tinchlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Prokurorlarga insonparvarlik muhimligining bir necha asosiy sabablari bor: Prokurorlar insonparvarlik prinsiplariga amal qilganda, ular inson huquqlarini himoya qilishga yordam beradilar. Bu, jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda insonning qadrini va huquqlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Insonparvarlik prokurorlarning adolatli qarorlar qabul qilishini ta'minlaydi. Ularning faoliyati jamiyatda adolatni mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Insonparvarlik yondashuvi prokurorlar va jamoatchilik o'rtasida ishonchni oshiradi. Agar prokurorlar insonparvarlikni asosiy prinsip sifatida qabul qilsa, bu jamiyatning ularga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Jinoyatchilar va jabrlangan shaxslarning ehtiyojlarini hisobga olish, ularning psixologik holatini tushunish prokurorlarning

faoliyatini samarali qilishga yordam beradi. Insonparvarlik ularga to'g'ri va o'z vaqtida yordam berishda muhim ahamiyatga ega.

"Adolat har bir davlatning ustunidir"- Aristotel bu fikrni olg'a surar ekan, har bir prokuror adolatni amalga oshirishga qaratilgan harakatlar markazida bo'lishi kerakligini uqtiradi[4].

Insonparvarlik, prokuraturaning jinoyatchilikka qarshi kurashishda samaradorligini oshiradi. Agar prokurorlar jinoyatchilikning sabablarini va jinoyatchilarning ijtimoiy sharoitlarini tushunsa, ular mos ravishda choralar ko'rishi mumkin. Insonparvarlik, jamiyatdagi konfliktlarni kamaytirishga yordam beradi. Prokurorlar jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni bartaraf etishda insonparvarlik prinsiplariga rioya qilishsa, jamiyatda tinchlikni mustahkamlaydi. Prokurorlarga insonparvarlik, faoliyatlarining samaradorligi va adolatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

5. Jamoatchilik bilan aloqalar: Prokurorlar jamoatchilik bilan o'zaro munosabatlarda shaffoflik va ishonchni ta'minlashi, o'z faoliyati haqida axborot berishda ochiq bo'lishi kerak.

Ochiq aloqalar prokurorlarning faoliyatiga bo'lgan ishonchni oshiradi. Jamoatchilik prokurorlarning adolatli va samarali ish olib borishini ko'rganda, ularning ishiga bo'lgan ishonchlari ortishi mumkin. Shaffoflik prokurorlarning jamiyatga bo'lgan mas'uliyatini namoyon etadi. Agar prokurorlar o'z faoliyatlari haqida ma'lumot berishsa, jamoatchilik ularning qarorlariga, faoliyatlariga va natijalarga tafsir berishi mumkin. Ochiq aloqa jamiyatdagi tinchlikni va huquqiy tartibni mustahkamlashga yordam beradi. Agar prokurorlar jamoatchilik bilan munosabatda shaffof bo'lsa, jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlikni oshirishi mumkin. Prokurorlar o'z faoliyatlarida inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari kerak. Shaffoflik va ochiqlik, inson huquqlarining buzilishini aniqlash va haqiqiy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Jamoatchilik prokurorlarning faoliyati haqida bilimga ega bo'lganda, ular huquqiy tizimga va prokurorlar zimmasiga yuklatilgan vazifalarga oid savollar bilan bo'lishishi mumkin. Bu, o'z navbatida, jamoatchilikning huquqiy bilimini oshirishga yordam

beradi. Shuning uchun, prokurorlar jamoatchilik bilan aloqalarda shaffof va ochiq bo'lishlari, jamiyatda adolatni, ishonchni va huquqiy tartibni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Prokurorlarning ma'naviy qiyofasi faqat ularning shaxsini emas, balki jamiyatdagi huquqiy tizimning ishlashini ham belgilaydi, shuning uchun bu boradagi qadriyatlar juda muhimdir. Prokurorlarning ma'naviy qiyofasi jamiyatdagi huquqiy tizimning ishlashini, adolatni va tartibni ta'minlashdagi samaradorlikni belgilaydi. Shu sababli, prokurorlar ma'naviy qiyofasi, jamiyatdagi huquqiy tizimning samaradorligi va adolatni ta'minlashdagi roli bilan chambarchas bog'liqdir. Prokurorlarning ma'naviy qiyofasi, ularning etik standartlari va odob-axloqiy prinsiplari jamiyat uchun juda muhim bo'lib, bu prinsiplar prokurorlarning adolatli, haqiqiy va mas'uliyatli faoliyatini ta'minlaydi, jamiyatda ishonchni mustahkamlaydi, inson huquqlarini himoya qilishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev “8-yanvar – prokuratura organlari xodimlari kuni munosabati bilan Prokuratura organlari xodimlari va faxriylariga tabrigi”- 2024-yil, <https://president.uz/oz/lists/view/6961>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-6097-son Farmoni. <https://lex.uz/en/docs/5073447>

4. “Prokuratura to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida <https://lex.uz/docs/-106197>

5. O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi/ Mas'ul muharrir N. Toychiyev. – T.: Adolat, 2010. – B. 372.

6. Prokuror nazorati (Umumiy qism): O.M. Madaliyev (Inog'omjonova Z.F.ning umumiy tahriri ostida.). – T.: TDYUI nashriyoti, 2009. – B. 49.

BO‘LAJAK OFITSERLAR KASBIY TAYYORGARLIGI - KASBIY RIVOJLANISHINING ASOSI SIFATIDA

Mardonov Bahodir Mardon o‘g‘li

Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti

“Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi,

siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Quvatova Zaxro Orifjonovna

Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti

“Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada faoliyatini rivojlantirishda kasbiy faoliyatga tayyorlash, o‘quv-tarbiya jarayonida bo‘lajak ofitserlarning, yuqori kasb egasi bo‘lishiga, ularga berilgan bilimlarni qabul qilib oluvchi emas, balki bilim olishi, faollariga, mas’uliyatni his etishga, ularning rivojlanishiga zamin yaratish masalasi talqin etilgan. Bo‘lajak ofitserlarning kasbiy tayyorgarligi, kasbiy rivojlanishi harbiy psixologiya negizida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: bo‘lajak ofitser, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy rivojlanish, kompetentlik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyev “Qurolli Kuchlarimizni modernizatsiya qilish, xususan, harbiy ta’lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur..”[1] deb ta’kidlaganlaridek, hozirgi kunda bo‘lajak ofitserning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga katta e’tibor qaratish lozim.

Ofitserning asosiy vazifalaridan biri o‘z qo‘l ostidagilarning iste’dod va iqtidorlarini o‘z vaqtida ko‘ra olish va ularni mutaxassisliklar bo‘yicha to‘g‘ri yo‘naltira olishi hamda unga ko‘maklashishdan iborat. Ofitserlardan yuksak

qobiliyat va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuqori malakali hamda ma'naviyatli harbiy xizmatchilarni tarbiyalash, ularni mamlakat mudofaasi va uning istiqboli uchun yo'naltirish talab etiladi. Bugungi kunda bo'lajak ofitserdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilayotgan ekan, uning bilimi va amaliy ko'nikmalari qay darajada ekanligini tahlil qilish o'ta muhim sanaladi. Bunda albatta bo'lajak ofitserning kasbiy tayyorgarligi va kompetentligi alohida ahamiyat kasb etadi.

“Bo'lajak ofitserlarning kommunikativ tayyorgarligi unda empatiyani, xushmuomalalikni, do'stonalikni, o'rtoqlik hissini, jamoatchilikni rivojlantirishni, kasbdoshlari bilan o'zaro aloqador munosabatlariga tayyorligi va qodirligini, shuningdek, keraksiz keskinliklarni yuzaga keltirmaslikni, yuzaga kelgan qiyinchilikni to'g'ri hal eta bilishni, ishda xodimlar, kasbdoshlari bilan munosabatlarda murosaga kelishni nazarda tutadi. Bo'lajak ofitserlar faoliyatining muvaffaqiyatlilikini yana bir muhim sharti uning kasbiy va shaxsiy jihatdan tayyorligi va qodirligi hisoblanadi. Bu yo'nalishda uning faollik darajasi ishtirok etadi. Kasbiy masalalarni hal etishda ham bo'lajak ofitserlar kasbdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda ham o'zini to'la va har tomonlama ko'rsatishga intilishdan iborat bo'ladi. Mutaxassisning bunday o'zini tutishi ko'p jihatdan uning muvaffaqiyatga erishish istagiga va intilishiga bog'liq bo'ladi”[2].

Kasbiy faoliyat jarayonida muvaffaqiyatga erishishda bo'lajak ofitserlarning shaxsiy xususiyatlari muhim rol o'ynadi. Hayotiy muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'plab shaxsiy sifatlar haqida V.Kroford [3] o'zining “Suhbat va munozara” kitobida Konfutsiyning g'oyasiga tayanib, do'stonalik, donolik va botirlikni ko'rsatadi. Muallif odamga ishida muvaffaqiyatga erishish uchun nima yetishmasligini aniqlash uchun qiziqarli metodikani ishlab chiqdi. V.Kroford hozirgi zamon mutaxassisi muvaffaqiyatga erishish uchun ko'rsatilgan 3 ta tushunchadan tashqari kasbiy mahorat ham kerakligini aytib o'tdi. Hozirgi zamonaviy tadqiqotlar muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagi asosiy shart- sharoitlarni ko'rsatadi:

- mutaxassis o'ziga ishongan bo'lishi kerak;
- maqsadga erishishga kuchli intilish kerak;

- nimaga erishish istagini aniq bilishi kerak;
- ishga pozitiv yoʻnalganlik;
- muvaffaqiyatlarni koʻra bilish va shu paytda quvonch va baxtni his etish zarur.

Kasbiy rivojlanishni oʻrganish yoʻnalishlaridan biri kasb tanlash tahlili bilan bogʻliq. Kasb tanlash shaxsiy kasbiy nuqtayi nazarni shakllantirish uchun asos va inson hayotidagi eng muhim strategik qarorlardan biri sifatida qaraladi, bu kasbiy rivojlanishni belgilaydi. Koʻplab tadqiqotlar kasb tanlashning motivlari, shartlari, individual, shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy tarkibiy qismlarini aniqlashga bagʻishlangan.

Kasbiy rivojlanishni oʻrganish, aniqrogʻi uning bosqichlaridan biri — kasb tanlash asos boʻlgan muhim qoidalar:

birinchidan, faqat alohida holatlarda kasbiy faoliyat shaxsning oʻziga xos xususiyatiga mos keladigan yagona sifatga ega boʻlishi haqidagi gʻoyadir. Shuning uchun u butun kasblar guruhi bilan bogʻliq boʻlgan individual fazilatlar majmuasini koʻrib chiqadi;

ikkinchidan, kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati va ishdan qoniqish uchun qobiliyatlar bilan bir qatorda shaxsiy xususiyatlar, birinchi navbatda qiziqishlar katta ahamiyatga ega;

uchinchidan, kasbiy taʼlim uchun individual fazilatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yoʻnalishni tavsiflovchi asosiy pozitsiya — bu kasbiy tanlov muammosidir, aniqrogʻi shaxsiy tuzilma va kasbiy talablar tuzilmasi "yigʻindisi" bilan hal qilinadi.

Boʻlajak ofitserlar oʻz kasbiy rivojlanishining har bir bosqichi maʼlum darajadagi bilim, koʻnikma va malakalar, mehnat funksiyalarini amalga oshirish usullarini oʻzlashtirish, yangi kasbiy vazifalarni hal qilish, yaʼni kasbiy tajribani toʻplash bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy sharoitda oliy harbiy taʼlim muassasalarida boʻlajak ofitserlarni kasbiy tayyorlashning asosiy maqsadi mustaqil ijodiy tafakkurga ega boʻlgan kadrlar tayyorlashdir. Faqatgina mutaxassislik bilimlariga ega boʻlish yetarli emas,

shaxsning intellektual kompetentlikka ega bo'lishi, shuningdek, boshqaruvchanlik salohiyatiga egalik darajasini hisobga olish kerak.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari o'zlari tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari kerak. Ushbu bilimlarni motivatsiya, o'ziga xoslik va fikrlash ravonligi bilan bir qatorda kasbiy rivojlanishiga olib keladigan ijodiy o'zini namoyon qilish uchun asos sifatida ishlatish kerak.

Shu sababli, bo'lajak ofitserlarning amaliy faoliyati uchun mutaxassislik fanlarning ahamiyati to'g'risida asosli tushuntirish zarurligini tushunamiz. Ushbu individual jihatlar, shuningdek, kasbga bo'lgan munosabat bo'lajak ofitserlarning kasbiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bo'lajak ofitserlarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari o'quv jarayonida o'z izini qoldiradi. Bo'lajak ofitserlarning kasbiy salohiyatidan tashqari, uning nostandart, xizmat vazifalarni hal qilish qobiliyati alohida ahamiyatga ega.

Bo'lajak ofitserlar ta'lim jarayonida aniq talablar bilan cheklanib qolmasdan, u ko'p qirrali, har xil fikrlashni rivojlantirish uchun yetarli, zamonaviy bilimlardan amaliy ko'nikmalari, kasb mustaqilligi, zamonaviy bo'lajak ofitser o'z mutaxassisligini mukammal egallashi uchun zarurdir. Bo'lajak ofitserlarni o'qitishning asosiy g'oyasi yangi, o'zgaruvchan voqelikda amaliy o'zini o'zi belgilash va olingan vazifalarni amalga oshirishga qodir bo'lgan, ta'lim va amaliyotning o'ziga xos tajribasini yaratishga qodir mutaxassis, yetuk harbiy xizmatchi shaxsini rivojlantirishdir. Bo'lajak ofitserlarning xizmat faoliyatida kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlarning, kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarning o'sishi, shakllanishi, birlashishi va amalga oshirilishi ahamiyatlidir, eng muhimi, bo'lajak ofitserlarning ichki dunyosini faol ravishda sifatli o'zgartirishi, mutlaqo yangi tuzilishi va hayot tarziga olib borishi — amaliyotda o'zini o'zi to'g'ri anglashi hisoblanadi. Mutaxassis ofitserlarni tayyorlash va uning yordami bilan kasbiy rivojlanish hamda amaliyotning samaradorligini oshirish bo'lajak ofitserlarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda bevosita o'quv jarayoni zarurdir.

Bo'lajak ofitserlarni amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Bo'lajak ofitserlarning xizmat faoliyatda kasbiy rivojlantirish xizmat motivlarini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Bo'lajak ofitserlardan nafaqat yuqori darajadagi maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qilinadi, balki amaliyotdagi qobiliyati ham talab qilinadi, chunki kasbiy va xizmat faoliyati faqat amaliy jarayonda rivojlanadi. Shuning uchun ham, ofitserlarning xizmat faoliyati natijasida yaratilgan obyektlar o'ziga xos xususiyatlarga ega va alohida e'tibor va idrokni talab qiladi.

Xulosa o'rnida kasbiy rivojlanishning psixologik strategiyalariga ega bo'lish bo'lajak ofitserlarning o'zining harbiy bo'linmaning ijtimoiy-professional hamjamiyatiga mansubligini anglashini aks ettiradi va turmush tarzi, hayot yo'li, hayotning ma'nosini qurish, shuningdek, harbiy kasbiy faoliyatni tartibga solish omili sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga bo'lajak ofitserlarning kasbiy rivojlanishi o'z qo'l ostidagilarni kasbiy mahorati va malakalarini oshirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Bo'lajak ofitser o'zining kasbiy mahorati bilan har doim namuna bo'la olishi va o'ziga ergashtira olishi shart.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyevning "14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni"ga bag'ishlangan bayram tabrigi.
2. N.A.Aripova, L.A.Xolmamatova, N.B.Qurbonova "Kasbiy psixologiya" Toshkent 2018
3. A.N.Mamatqulov "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining ijodkorligini rivojlanish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari" 2020.
4. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: "Fan", 2004. 33-bet.
5. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi / Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013. 41-bet.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ ОФИЦЕРОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ — КАК ВАЖНЫЙ КОМПОНЕНТ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Зарипова Лилия Фердаусовна

Самостоятельный соискатель

Аннотация: В статье описана важность и значение формирования психологической подготовки будущих офицеров. Подробно раскрыто понятие «психологическая подготовка». Даны предложения по совершенствованию психологической подготовки будущих офицеров.

Ключевые слова: будущие офицеры, военнослужащие, психологическая подготовка, психологическая готовность к профессиональной деятельности, личностные качества, коррекция, тренинговые мероприятия.

Аннотация: Мақолада бўлажак офицерларнинг касбий муҳим фазилатларини шакллантиришда психологик тайёргарликнинг аҳамияти ёритилган. "Психологик тайёргарлик" тушунчаси батафсил муҳокама қилинади. Бўлажак офицерларнинг психологик тайёргарлигини ошириш бўйича таклифлар берилди

Калит сўзлар: бўлажак офицерлар, ҳарбий хизматчилар, психологик тайёргарлик, касбий фаолиятга психологик тайёргарлик, шахсий фазилатлар, коррекция, тренинг тадбирлари.

«Все мы хорошо понимаем, что образование и воспитание имеют решающее значение не только в сегодняшней жизни, но и для будущего любого государства и общества», эти слова Президента Республики Узбекистан Шавката Миромоновича Мирзиёева из поздравительной речи посвященное ко дню учителя и наставников затрагивает важность получения образования, что является актуальным во все времена.

На современном этапе развития общественных отношений

к военнослужащим предъявляются высокие требования комплексной профессиональной готовности, это связано с постоянным решением задач повышенной трудности, большим объемом работы и периодическими осложнениями оперативной обстановки. Профессиональная деятельность офицеров предъявляет особые требования к профессионализму и личности сотрудников, которые включают в себя наличие соответствующего образовательного уровня, навыков коммуникативного общения, нервно-психической устойчивости, а также морально-нравственные качества и адекватные социальным нормам правовые ориентации. Успешная и эффективная профессионально-служебная деятельность сотрудников возможна только при их высокой психологической готовности.

Для профессиональной деятельности военнослужащих характерны особая специфика, спектр, характер и содержание задач. Совокупность таких факторов, как постоянные контакты с асоциальными элементами, работа с огромным количеством информации, напряженность, ответственность, риск, дефицит времени, противостояние психологическому давлению, постоянная угроза для жизни и здоровья, являются сопутствующими факторами повседневной служебной деятельности и определяют высокие требования к формированию психологической подготовки.

Рассматривая психологическую готовность исключительно с психологической точки зрения, то речь будет идти именно о предоставлении человеку возможности получить важные знания, тренировать навыки и производить на их основе необходимые привычки.

Психологическая подготовка – это процесс целенаправленного формирования психических качеств, обеспечивающих устойчивое и надежное выполнение профессиональной деятельности специалистами в различных, в том числе экстремальных и чрезвычайных ситуациях [1].

Психологическая готовность является сформированной, в случае если на высоком уровне развиты следующие личностные качества:

1) *квалификационные качества* - интеллектуальная способность получать, систематизировать и обобщать информацию, представляющую оперативный интерес;

2) *морально-психологические качества* - нравственная составляющая в поведении сотрудника, справедливость и принципиальность в работе, проявление гуманности по отношению к различным категориям граждан;

3) *эмоционально-волевые качества* - работоспособность в стрессовых условиях, борьба с эмоциональным выгоранием;

4) *коммуникативные качества* — способность к успешному взаимодействию, направленному на достижение поставленных перед ним целей.

Психологическая подготовка будущих офицеров – это целенаправленное воздействие на личность с помощью психологических и психофизиологических методов, направленных на формирование у нее психологической готовности к адекватным действиям в таких ситуациях.

Под психологической готовностью, в свою очередь, понимается система характеристик субъекта, обеспечивающие успешность и результативность определенных действий и деятельности [2].

Профессионально-психологическая подготовка в рамках образовательного процесса должна быть основана на определенных принципах, реализация которых позволит надлежащим образом воспитать у будущих офицеров необходимые личностные качества.

К таким принципам следует отнести:

1) целостность процесса формирования личностных качеств — использование различных подходов и методов; формирование устойчивой связи: наставник — курсант, ведущая воспитательная роль преподавателя, обладающего специальными знаниями, который способен выстроить доверительные отношения с обучаемыми;

2) научная обоснованность — реализация процесса подготовки, должна опираться на разработки ученых-психологов;

3) последовательность – психологическая подготовка должна сопровождать курсантов на протяжении всего периода обучения, при этом она не должна ограничиваться предусмотренными учебным планом дисциплинами [3].

Развитие профессиональных качеств личности будущих офицеров и способность к выстраиванию коммуникационных связей должно достигаться путем применения интерактивных форм обучения, так как они способны сформировать устойчивый интерес к получению необходимых знаний и навыков.

С учётом выше изложенного необходимо отметить, что *психологическую подготовку будущих офицеров целесообразно назвать* системным комплексом мероприятий влияния на психику личности (и ее соответствующую реакцию), направленных на: восприятие внешних условий окружающего среды (как изменяющихся в определенной ситуации, так и не изменяющихся, которые могут существовать в форме стереотипов, убеждений, установок и т.п.); адаптацию как организма, так и психики к изменчивости и быстротечности ситуации; целеустремленность действий в тех, или иных обстоятельствах (эффективность их выполнение); задание (при определенных условиях) неизменной программы действий; развитие индивидуально-психологических качеств личностей, необходимых для решения определенных задач; коррекцию и регуляцию собственного поведения; восстановление психического здоровья (нервно-психической устойчивости, уравновешенности, рассудительности и т.п.).

Таким образом, в качестве предложений по формированию психологической подготовки будущих офицеров видится целесообразным:

1) Увеличение количества полевых и городских практических занятий, что позволит будущим офицерам развить в себе необходимые эмоционально-волевые, коммуникативные, нравственные качества.

2) В образовательном процессе применять следующие методы психологической подготовки: «демонстрационные методы», «условно-

ситуативные» методы, методы «реальных» ситуаций, что позволит сформировать общую ориентировку в экстремальных условиях профессиональной деятельности, ознакомить с внутренней структурой и логикой профессиональной деятельности в экстремальных условиях и стрессовых ситуациях, актуализацию мотивов, адекватных мотивам реальной деятельности, и на формирование у курсантов ориентировки на осмысление выполняемых действий.

3) Усилить интенсивность и периодичность организации проведения психологических тренингов в рамках учебной программы, тем самым повысить активность и заинтересованность обучающихся различных категорий. Ведь именно интерактивные методы обучения позволяют заинтересовать и активизировать курсантскую среду.

4) Организовать обучение психологов, методистов, преподавателей в качестве «тренеров» для реализации тренинговой деятельности с учётом специфики и аудитории обучающихся. В рамках данных курсов обучить навыкам проведения тренингов, основных правил, специфике, принципам проведения и т.д.

5) Разработать программы тренинговых мероприятий, практических семинаров, мастер классов по различным актуальным направлениям развития личности военнослужащих, что позволит повысить профессиональные качества и предоставить возможность саморазвития.

6) На постоянной основе психологами проводить интерактивные мероприятия, индивидуальные беседы, наблюдения, направленные на развитие и коррекцию профессионально важных качеств.

7) С целью проведения коррекционных мероприятий по развитию личностных качеств, на плановой основе проводить мониторинг развития личностных качеств будущих офицеров, что позволит своевременно предотвратить негативные последствия.

8) В образовательном процессе обучать военнослужащих методам и приемам психической саморегуляции в ходе проведения с ними занятий по боевой и специальной подготовке.

Необходимо подчеркнуть, что комплексный подход к решению задач по подготовке специалистов своего дела и формированию всесторонне развитой личности будущих офицеров образовательных учреждений Республики возможно реализовать посредством достаточно эффективных интерактивных технологий обучения совместно с психологическим сопровождением жизнедеятельности и учебного процесса в целом.

Таким образом, психологическая подготовка будущих офицеров должна позволить сформировать каждый элемент готовности к предстоящей служебной деятельности.

Список использованной литературы:

1. Крылов А.А. Психология. М.: Проспект, 2005. — С. 326.
2. Смирнов Б. А. Психология деятельности в экстремальных ситуациях. Х.: Гуманитарный центр, 2007. — С.276.
3. Червова А.А. Современное состояние проблемы обучения курсантов в вузах МВД РФ / Червова А.А., Гонтарь В.Н., Еробкин Р.П. // Школа будущего. -2016. — № 3. — С. 166-174.

BOJXONA XODIMINING AXLOQIY FAZILATLARI

Yuldasheva Umida Sa'dullaevna

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti

“Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar” kafedrası

dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bojxona xodimlarining faoliyatida kasbiy-axloqiy fazilatlari, halollik va mas'uliyatlilik sifatleri hamda namunaviylik talablari

haqida soʻz yuritiladi. Shuningdek, bojxonachilar oʻz vazifasini ado etishi balki, uni qayday darajada bajarishi, uning xalq oldidagi masʻulligini his qilishida, kasbiy salohiyatidan tashqari shaxsiy sifat va fazilatlarini belgilovchi mexanizmlarni shakllantirish lozimligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlari: Bojxona xodimi, bojxona kasb etikasi, kasbiy-axloqiy fazilatlar, kasbiy masʻuliyat, kasbiy halollik, boshqaruvda axloqiylik, axloqiy qadriyatlar.

Bugun biz tarixiy bir davrda-xalqimiz oʻz oldiga ezgu va ulugʻ maqsadlar qoʻyib tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalam bor oʻz kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yoʻlida ulkan natijalarni qoʻlga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Oʻzbekiston bugungi kunda tom maʼnodagi asrga teng buyuk voqealarni boshidan kechirmoqda, tarixan maʼlumki, biror xalq hayotida tub burilish sodir boʻlayotgan davrlarda jamiyat yangi istiqbollar sari bormogʻi uchun ijtimoiy munosabatlarni shunga muvofiq oʻzgartirmogʻi lozim boʻladi. Shu bois, ijtimoiy muhitdagi oʻzgarishlar shaxsning va butun jamiyatning tafakkurida dunyoqarashida maʼnaviy olamida oʻzgarishlarni taqozo etadi.

Inson jamiyatda muayyan maqsad va muddaosiz yashay olmaydi. Har bir inson oʻzining kelajagini biron-bir maqsad shaklida oldindan tasavvur qila olmasa, uning bunyodkorlik harakati pasayib, kayfiyatini tushkunlik, faoliyatini beparvolik, loqaydlik kabi illatlar egallab oladi. Shu maʼnoda maʼnaviy yetuklik ham shaxsga jamiyatda oʻz oʻrniga va muayyan ijtimoiy mavqega ega boʻlib, yashashi uchun yoʻnaltiruvchi gʻoyalar, tushunchalar va axloqiy qarashlar tizimini taqdim etadi.

Maʼnaviy yetuklik mazmun mohiyatiga koʻra ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega. Maʼnaviy yetuklik insonning ongi, fikri axloqi va faoliyatini ijtimoiy qonunlar asosida yoʻnaltiradi.

“Axloq” atamasi xulq soʻzining koʻplik shakli sifatida vujudga kelgan. Inson koʻp qirrali mavjudotdir. Uning barcha xususiyatlarini toʻla ifodalash maqsadida koʻproq “axloq” soʻzi qoʻllaniladi, hattoki, taʼlim-tarbiya sohasida ham “Tarbiya”

soʻzi bilan emas “axloqiy” soʻzi ishlatiladi. Aslini olganda, axloq-maʼnaviyatning oʻzagi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi yoshlarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishdir. Axloqiy munosabatlar ijtimoiy hayot bilan uzviy bogʻliq. Axloqiy meʼyorlar-insonning xulqi va feʼl-atvorini tartibga soluvchi talablar yigʻindisidir .

Axloqiy juda ham meʼyorlar koʻp. Yuksak maʼnaviyat barqaror boʻlgan jamiyatda axloqiy qadriyatlar hech qachon zavolga yuz tutmaydi. Chunki maʼnaviy qadriyatlar ham qonun huquq burch ham aynan axloqiy qarashlar negizida yuzaga keladi.

Inson faoliyati muayyan axloqiy talablarga asoslanadi. Dunyoda qanchalik koʻp kasblar boʻlsa, shuncha kasb axloqi-degan tushuncha mavjud. Shu jumladan, bojxona tizimining ham kasb axloqi bor.

Axloqiy madaniyat-insoniyat tomonidan erishilgan xulq-atvor va odobga oid qadriyatlar yigʻindisidir.

Bojxona xodimi xizmatida zarur boʻlgan axloqiy meʼyorlar- vatanparvarlik, xushmuomalalik, halollik, rostgoʻylik, shijoat, hushyorlik. Axloqiy meʼyorlar tarkibiga-kamtarlik, saxiylik, muruvvat, samimiylik, hurmat, doʻstona munosabat kabilar ham kiradi. Biror fan yoki taʼlimotning asosiy qonun-qoidasi ”tamoyil”- deyiladi. Axloqiy tamoyillar-jamiyatda insonlarning axloqiy munosabatlarini tartibga soluvchi umumiy qonun-qoidalari va bu tamoyillarini bir nechtasini misol qilishimiz mumkin.

Vatanparvarlik tamoyili-ona vatanga muhabbat va sadoqat bilan xizmat, uni dushmanlardan asrash, kerak boʻlsa uning mustaqilligi, obodligi va tinchligi yoʻlida jonni fido qilishga tayyor turmoqlik.

Insonparvarlik tamoyili-odamlarga mehr-muhabbat bilan munosabatda boʻlish, ularning har tomonlama kamol topshirishlari uchun sharoit yaratib berish, ularga gʻamxoʻrlik qilishni ifoda etuvchi oliyjanob qarashlarda aks etadi.

Adolatlilik tamoyili-jamiyat tomonidan belgilangan axloqiy va huquqiy meʼyorlarni haqqoniy va qonuniy tarzda hayotga tatbiq etishga qaratilgan faoliyatda namoyon boʻladi.

Qonuniylik tamoyili-ijtimoiy munosabatlarga kirishgan jamiyat a'zolarining huquq me'yorlariga qat'iy rioya qilishlarida o'z ifodasini topadi. Qonuniylik tamoyillari Konstitutsiyamizda, Qonunlarda, Farmon, Qaror va buyruq talablarini qat'iy amalga oshirilishi va o'ziga yuklatilgan vazifalarni barcha tomonidan bajarilishini taqozo qiladi.

Bojxona xodimi axloqiy tushuncha, me'yor va tamoyillarning mohiyatini bilish, anglash va ularga amal qilish orqali yuksak madaniyatga hamda kamolotga erisha oladilar.

Ushbu moddalar axloqning vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik va qonuniylik tamoyillarini hayotga tatbiq etishga chorlaydi.

Bojxona xodimining kasb axloqi quyidagi vazifalarni bajaradi.

- Xodimning xizmat vazifalarini talab darajasida amalga oshirishga yordam beradi;
- Axloqiy jihatdan tarbiyalab, xodimda insonparvarlik, halollik, jasurlik, shijoat adolat, sabr-toqat va intizomiylik kabi fazilatlarni shakllantiradi;
- Insonlardagi yaxshi va yomon sifatlarini bilishga o'rgatadi;
- Axloqiy qadriyatlarni baholash, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni axloq talablari asosida tartibga solish uchun imkoniyat yaratadi;
- Xodimlarni axloqqa zid xatti-harakatlaridan saqlanishga da'vat qiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosa qilsak, axloqiy bilimlar va ularning natijasida shakllanadigan axloqiy madaniyat bojxona xodimlari uchun juda zarur.

O'zbekistonning sivilizatsiya va taraqqiyotning yuksak, yorqin cho'qqilariga erishishda madaniy va tarixiy merosning, xalqning insonparvarlik an'alarining yuksak marralarini umuminsoniy qadriyatlar va me'yorlarga sodiq bo'lgan va har tomonlama uyg'un kamol topgan shaxs asosiy tayanch bo'lishini ta'kidlaganmiz.

Bojxona xodimining axloqiy madaniyati — ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amalini o'z-hayoti va xizmatining mazmuni deb bilishida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tushuncha, me'yorlar va tamoyillarini o'rganish, ularga amal qilish bilan bojxona xodimlari xalqimizning yetuk, sadoqatli va vatanga munosib farzandlari bo'la olishlariga shubha yo'q.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // <https://president.uz/uz/lists/view>.
2. Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-son Qarori. www.lex.uz
3. Begmatov A. Davlat xizmati odobi. // Jamiyat va boshqaruv. №3. 2004. – 8-bet.

BOJXONA XODIMLARINING SO‘ZLASHUV MADANIYATI

Yusubov Davlet Abdusharipovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

*“O'zbekiston tarixi” kafedrası dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi.*

Annotatsiya: Bojxona xizmati mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini himoya qiluchi organ sifatida O'zbekiston taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga bojxonaning faoliyati fuqarolar bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun uning xodimlarining kasbiy madaniyatida so'zlashuv odobiga katta e'tibor qaratilmoq lozim. Mazkur maqolada bojxona xizmati organlari xodimlarining muloqot va so'zlashuv madaniyatini shakllanishining xususiyatlari haqida bayon etilmoqda.

Kalit so'zlari: muloqot va so'zlashuv madaniyati, muomala madaniyati, bojxona organlari xodimlari, bojxona xodimlarining so'zlashuvi, tallafuz, ifodali so'zlash, gap, ona tili, davlat tili, adabiy til.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti, madaniyati, ma'naviyatida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar hayotimizni ijobiy tomonga o'zgartirib yubormoqda. Ayniqsa Prezident

Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-yilda boshlanib bugungi kunda davom etayotgan islohotlar yaqqol sezilarli bo'lmoqda. Ushbu o'zgarishlar fuqarolarimizning fikrlashlari, xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, kiyinishi va so'zlashishlarida ham aks etmoqda. Bugungi kunda so'zlashishda so'zlarga katta e'tibor berilmoqda.

Insonda umr bo'yi uni tark etmaydigan bir ehtiyoj bor – u muloqotdir. Muloqot asosan so'zlashish orqali amalga oshadi. Muloqot so'zlashuvga nisbatan keng tushunchadir. Muloqotning turlari ko'p. Ularga so'z (og'zaki), nigoh (ko'rish), ushlash (vujudiy), xat-maktub (yozma) orqali, xayolan (telepatiya) va boshqalarni kiritish mumkin. Muloqotlar ichida keng tarqalgani va eng ta'sirchani so'z orqali, og'zaki muloqot — so'zlashuvdir. So'zlashuv muloqotning bir turi, ko'rinishi hisoblanadi. So'zlashuv (muloqot) insonning ikkinchi tabiati, borlig'idir. Ko'p hollarda insonlarni so'zning ko'pligi emas, kamligi bezovta qiladi. So'zlashuv jarayonida erkaklarni so'zlashuvi ayollarni so'zlashuvidan, ishlatadigan so'zlar miqdoriga ko'ra farq qilar ekan. Amerikalik mutaxassislar Alan Piz va Barbara Pizning aytishicha “ayollar bir kunda 20-21 mingta so'z ishlatar ekan. Erkaklar ulardan uch marta kam gapiradi. Eng ko'p gapiradigani 3-4 yoshli go'dak ekan. Ular antropolog Rey Berdvistell tadqiqotlaridan misol keltirishadi. “O'rtacha odam bir kunda 10-11 minut so'zlar ekan. O'rtacha bir gap 2,5 sekund davom etar ekan”[1].

So'zlashuv madaniyati insonlar o'rtasidagi muomala madaniyatining tarkibiy qismlaridan biridir. So'zlashuv madaniyati murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. Insonlar o'rtasida so'zlashuv oson amalga oshmaydi. Uning o'ziga xos talablari mavjud. So'zlashuvda ohang, to'g'ri talaffuz, to'xtam, marom, grammatika, mantiq qoidalariga rioya qilish, fikrlash va gapirishning o'zaro uyg'unligi, tabassum, yuz mimikasi, qo'l harakatlari o'ziga xos ahamiyatga ega. Sababi odam so'zlamoqchi bo'lgandagi tashqi ko'rinishi, uning aytmoqchi bo'lgan so'zining, munosabatining mazmunidan darak beradi. Shuning uchun so'zlashuv jarayonida tabassum qilish lozim. Tabassum suhbatdoshning Sizga nisbatan samimiyligi, do'stona munosabatda ekanligining belgisidir. Tabassumning yo'qligi, qayg'uli ko'rinish suhbatdosh kayfiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Bir donishmand

aytadi: “qayg‘uli ko‘rinish – baxtsizlik oqibati emas, balki g‘amgin fikrlar natijasidir”.

Bojxona xodimlari o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishda so‘zlashuv madaniyati o‘ziga xos ahamiyatga ega, ya’ni ularning o‘z funksiyalarini bajarishida ijobiy bir rol o‘ynaydi.

So‘zlashuv madaniyati – bu xodimning fikrlash madaniyati, uning madaniyatlilik darajasi hamda axloqiy barqarorligining bevosita ifodasidir. Yaxshi yozish yoki yaxshi so‘zlash uchun dastavval fikrning mazmunan chin bo‘lishligi va shaklan to‘g‘ri ifodalanishi kabi mantiqiy qonun va qoidalarga amal qilish talab qilinadi. Chunki, so‘zdagi, gapdagi chalkashlik – bu fikrlashdagi chalkashlik, noaniqlikdir. Bu albatta xodimning obro‘yiga va olib borayotgan tarbiyaviy ishlarining samarasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bojxona xodimining suhbat jarayonida kasbdoshlariga, atrofdagi odamlarga o‘z fikrini tushunarli, o‘rinli va vaziyatga mos vositalardan foydalanib bayon qilishidir. So‘zlashuv madaniyati bojxona xodimidan so‘zning mazmundorligi, mantiqiyliqi, asoslanganligi, ishonarliligi, tushunarlilik, aniqligi, ravshanligi, tilning sofliligiga qat’iy rioya qilishlikni talab etadi.

Bojxona xodimi so‘zlashuv madaniyatining asosiy fazilati uning aniqligidir, agar so‘zlar aniq bo‘lmasa so‘zlashishda maqsadga erishib bo‘lmaydi. Xodimning so‘zlashish madaniyatiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar – bu so‘zlar mazmunlilik, boyligi, rang-barangligi bo‘lib, ulardan unumli va o‘rinli foydalanish suhbatdoshga maqsadli ta’sir ko‘rsata olish qobiliyati demakdir.

Xodimning so‘zlashuv madaniyati subyektning obyektga, so‘zlashuvchilar yetkazadigan axborotlarni, ma’lumotlarni shunchaki to‘kib yoki qalashtirib tashlash emas, ularni dildan chiqarib, mo‘tadil marom, sevinch, hayajon, kuyunish, achinish, afsuslanish kabi xilma-xil holatlarda suhbatdoshga yetkazish jarayonidir.

Binobarin, so‘zlashish madaniyati muayyan predmet, hodisa haqida sodda, tushunarli, ravon tilda, shu bilan birga muayyan hissiy holatlar vositasi hamda ta’sirida suhbatdoshga yetkazish jarayonini tashkil etadi.

So‘z so‘zlashuv madaniyatining o‘zagi (xom ashyosi). So‘z muayyan ma’noni anglatadigan tovushlar uyg‘unligidir. Ona tili grammatikasida so‘z gapning bir bo‘lagi hisoblanadi. Xodimning so‘zni muomala jarayonida talablardan kelib chiqib qo‘llashi, uni mavzu mazmuniga moslab talaffuz qilishi so‘zlashish madaniyatining asosiy qoidalaridan biridir. Shuning uchun ham xalq maqoli bejiz aytilmagan:

Har so‘zning o‘z joyi bor,

Har nuqtaning – makoni.

So‘zlashishda so‘zning mazmunini, ma’nosini, ohangini ahamiyati katta. Xalqimiz bunga qadim-qadimdan diqqatini qaratgan. Bu narsa bugungi kunda dolzarb mohiyat kasb etmoqda. Shu o‘rinda mashhur shaxslarni fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir. Nemis olimi Xayns Lemmerman ta’kidlaydiki “so‘zlashish jarayonida bizni ovoqimiz, so‘zlash usulimiz suhbatdoshda qanday taassurot qoldirayotgani bilan juda ham kamdan–kam xollarda qiziqamiz”[2]. Bizni ovoqimiz suhbatdoshga yoqishi yoki yoqmasligi mumkin. Bu esa bizni suhbat davomida maqsadga erishishimizda katta ahamiyatga ega. Maqsadga erishish uchun ovoqimiz suhbatdoshga yoqqani ma’qul. Bojxona xodimlari ham o‘z faoliyatida ushbu o‘gitlarga rioya qilgani ma’qul.

Bojxona xodimlari gapirgan paytda o‘ylab, shoshilmasdan, kezi kelganda so‘zlashi kerak. Bu yaxshi odatni nafaqat bojxona xodimlari, balki har birimiz o‘zimizda shakllantirishimiz zarur. S.Sheroziy “Guliston”da shunday keltiradi:

Jahonni ko‘p ko‘rgan keksa suxandon,

O‘ylab ko‘rib, so‘ngra so‘z boshlar ravon.

O‘ylamasdan so‘zga dam urma hech ham,

Soz so‘zlagil, kechroq so‘zlasang ne g‘am.

Yaxshi o‘ylab, so‘ngra so‘zga ur nafas,

To‘xtab suhbatdoshing demasidan “bas”. [3]

Xodim so‘zlaganda hovliqmasligi zarur, aks holda yaxshi so‘z ham tushunarsiz bo‘lib, ahamiyatini yo‘qotishi mumkin va fuqaroda o‘zi haqida salbiy taassurot vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Qadimgi yunon mutafakkiri Biant – “Hovliqmasdan so‘zla: shoshilish aqlsizlik belgisi”- deydi.

Ko‘rinib turibdiki, so‘zga qaysi nuqtayi nazardan yondashmaylik, u so‘zlashuv madaniyatida, hatto oddiy muloqot jarayonlarida ham asosiy xom ashyo bo‘lib hisoblanadi. Faqat bu xom ashyo bojxona xodimlari tomonidan obdon ishlanishi, sayqallanishi va o‘z o‘rnida ishlatilishi lozim. Shunda u faqatgina xom ashyo emas, sehrli bir qudratli kuchga aylanib, xodimlar, fuqarolar diqqatini o‘ziga rom qila oladi. Antik davr notiqlardan biri Demetriy Falerkiyning fikricha — “Jang paytida temir qanday qudratga ega bo‘lsa, siyosiy hayotda so‘z shunday qudratga ega”.

Bojxona xodimlarning so‘zlashishi umuminsoniy va milliy madaniyat talablaridan va xizmatda mavjud bo‘lgan me‘yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Bojxona xodimlari so‘zlashuv madaniyati me‘yoriy xarakterga ega, ya’ni xodimning so‘zlashuvi shu tizimda mavjud bo‘lgan Nizomlar, buyruqlar talablariga muvofiq bo‘lishi zarur.

Bojxona xodimlari kasbdoshlari, fuqarolar bilan muomala jarayonida har bir og‘zidan chiqayotgan so‘zga juda ehtiyotkor bo‘lishi, o‘ylab ishlatishi kerak. Sababi so‘z inson ruhiyatiga ta’sir qiladi. Yunonistonlik mutafakkir Gorgiy (er.av.481-375) so‘zni odamga ta’sir qilishini dori-darmonga qiyoslaydi. “Dori-darmon jismingizga qanday ta’sir o‘tkazsa, so‘z ham ruhingizga shunday ta’sir etadi. Dorilarning ba’zisi tanadagi turli kasalliklarni haydasa, boshqalari goho o‘limga sabab bo‘ladi.”[4] Xuddi shunga o‘xshash ba’zi bir xodimlarning so‘zlari fuqarolarga huzur-halovat, ko‘tarinkilik baxsh etsa, boshqalari ularni qayg‘uga botiradi. Xodimning har bir gapi, so‘zi yaxshilikka yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim, sababi yaxshilikka yo‘g‘irilgan har bir so‘zda shifo bordir.

Bojxona xodimining gapi, gapidagi so‘zlar fuqarolarni xursand yoki xafa qilib qo‘yishi, kamsitishi mumkin. Shuning uchun insonlarni xafa qilmaydigan gap, so‘zlardan foydalanishimiz zarur. Xayns Lemmerman bu haqda Rim notiqlik maktabi asoschilaridan biri Kvintilianni “odatda nimaiki insonlarni qulog‘ini kamsitsa, ularning qalbiga yetib bormaydi” degan so‘zlarini keltiradi.[5] AQSH prezidentlaridan biri B.Franklin: “Agar oyog‘ing chalishib ketsa, tezda o‘zingni o‘nglab olishing mumkin, agar so‘zing chalishib ketsa sen hech vaqt o‘zingni

o‘nglay olmaysan” degan. Bu haqda xalqimizda shunday maqollar bor: “O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir”, “O‘ynab aysang ham, o‘yingdagini ayt”.

Jamiyatda so‘z, so‘zlashish katta ahamiyatga egaligidan qadimdan so‘zlashish odobi shakllangan. So‘zlashish odobiga rioya qilish zarurligini Abu Ali Ibn Sino, Axmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojiblar ham ta’kidlab o‘tishgan. So‘zlashish odobiga ko‘ra so‘zlashganda ovoz balandligi oson eshitish mumkin bo‘lgan darajada bo‘lishi, so‘zlar tushunarli bo‘lishi, har qanday so‘zlarni ishlata bermaslik, o‘ylab gapirish, tilini tiyib, nazorat qilib yurish, fikrni uzundan-uzoq so‘zlar bilan ifodalamasdan, qisqa, lo‘nda, tushunarli qilib gapirish, sergap bo‘lmaslik lozim. Sababi birovga qanday gapirsangiz, shunga yarasha javob olasiz. Faqat mazmun jihatdan emas, balki shakl jihatdan ham. Yaxshi gapirsangiz yaxshi, qo‘pol, qo‘rs gapirsangiz shunga muvofiq javob olasiz. Buni xalqimizning maqollari: “So‘z – kishining o‘zagi, odob uning bezagi”, “So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor”, “So‘zning boyligi – odamning chiroyligi”, “Toqqa nima deb qichqirsang, shuni eshitasan”, “Og‘izdan chiqqan so‘z qaytmas”, “So‘z chumchuq emas, og‘izdan chiqsa tutib bo‘lmas” — kabilar ham talab qiladi. Shuning uchun bojxona xodimlari so‘zlashish jarayonida qochirim, kinoyali so‘zlardan foydalanmaslik, gapiradigan so‘zlarni o‘lchab, Forobiy ta’kidlaganidek aql tarozisida tortib, keyin so‘zlashi lozim.

Bojxona xodimlari odamlar orasida o‘zaro gapirishganda pichirlab gapirishmagani yaxshi, chunki atrofdagilar “men haqda yomon fikrda gapiryapti” deb o‘ylashi mumkin. Shuning uchun yaxshi, yomon, o‘rinli, o‘rinsiz bo‘lishidan qat’iy nazar ularga ham eshitarli qilib gapirish zarur. Yoki chetroqqa chiqib gapirishib olgani ma’qul.

Xodim so‘zlaganda albatta so‘zining qadrini bilib so‘zlashi kerak. Qadrini bilmasa so‘zlamagani ma’qul. Bu haqda Maxtumquli shunday yozadi:

Odam bo‘lib, odam qadrin bilmasa,

Undan ko‘ra o‘tlab yurgan mol yaxshi.

So‘zlaganda so‘z qadrini qilmasa,

Undan ko‘ra so‘zlamagan lol yaxshi.

Har bir xodim davrada, jamiyatda o‘z so‘zini ayta olishi, aytgan so‘zini isbotlay olishi, so‘z va ishi birligini ko‘rsata olishi lozim. Bu haqda buyuk mutafakkir Konfutsiy bilan bog‘liq voqeani eslashadi. “Konfutsiyning o‘g‘li hovlida o‘ynab yurgan paytida uni o‘z yoniga chaqirib, “She’rlarni yod oldingmi?” – deb so‘ragan. O‘g‘li yo‘q hali, deb javob bergan. “She’rlarni yod olmagan bo‘lsang boshqalarga aytadigan so‘zing bo‘lmaydi” – degan. Boshqa safar yana o‘g‘li o‘ynab yurganida, undan “Qoidalarini yod oldingmi?” – deb so‘ragan. O‘g‘li yo‘q hali, deb javob bergan. “Agar qoidalarini yod olmasang, hech qachon qat’iy fikr aytib, so‘zingni isbotlay olmaysan”[6] – degan.

So‘zlash jarayonida har bir so‘zni boshlashni va oxiriga yetkazishni bilish zarur. S.Sheroziy “Guliston”da:

“Ey, oqil, so‘zning ham bosh-oyog‘i bor,

O‘zga so‘zga so‘zing qistirma, zinhor.

Aqlu hush egasi tadbirli inson,

So‘z boshlar suhbatdosh jim bo‘lgan zamon”. [5.1]

So‘z doimo ifodali bo‘lishi, ifodalikni ta‘minlash uchun ba’zi talablarga qat’iy rioya etish kerak. Masalan, suhbat mohiyatini bilish, suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, mantiqiy urg‘u, to‘xtam va ishora mahoratiga rioya qilish, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish, siyqasi chiqqan va axloqqa zid so‘zlarni ishlatmaslik va h.k.

Bojxona xodimlari so‘zlashuv jarayonida ohangga jiddiy e’tibor qaratmog‘i lozim. Chunki ohang orqali ko‘p narsaga erishish yoki ko‘p narsani yo‘qotish mumkin. “Gap so‘zda emas, ohangda” – deydi rus olimi V.G.Belinskiy. So‘zimizni yoqimli, yoqimsizligi, o‘rinli, o‘rinsizligi, xodimning fuqaroni o‘ziga rom etishi yoki uni bezdirishi ohangga bog‘liq jarayondir. Afsus ba’zi xodimlar so‘zlashuv jarayonida o‘zining so‘zlashuv ohangi suhbatdoshda qanday tasavvur shakllantirayotganiga zarur darajada e’tiborni qaratmaydi.

Har bir bojxona xodimi o‘z ona tilida, davlat tilida ya’ni o‘zbek tilida aniq ravon, sodda va tushunarli tilda kasbdoshlari hamda fuqarolar bilan so‘zlasha olishi

zarurligi hozirgi zamon talabidir. Shu yerda turk olimi Adxat Seno‘g‘lining to‘rtligini keltirmoqchiman:

Hazrati Sulaymon bo‘l, ming bir zabon bil,

Egalla bulbulning xushovozini.

Ammo soqov, karsan, agar unutsang,

O‘z xalqingning so‘z u sozini.

Chunki adabiy til umumxalq tilining yuqori, oliy shakli sifatida har doim normativlikka intiladi. Bunday intilish, avvalo, adabiy tilning umumxalq aloqa quroli sifatidagi vazifasini unumliroq, yaxshiroq bajarishiga xizmat qilsa, ikkinchidan, adabiy tilning o‘z lisoniy negizi hisoblanuvchi xalq so‘zlashuv tilidan uzoqlashib ketmasligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Allan Piz., Barbara Piz. *Yazыk telodvijeniy.* – M., 2013. str.14
2. Lemmerman X. *Oratorskoye iskusstva.* 17 b.
3. Jo‘rayeva S. 100 mumtoz faylasuf. Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar. –T., 2018. 54-bet.
4. Maxtumquli “Sevmisham seni”. –T., 2018. 60 b.
5. Sheroziy.S “Guliston” –T., 1976. 105b.

BOJXONA TA’LIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

Shadmankulov Ablakul Shadmankulovich

*Alfraganus universiteti dotsenti,
iqtisod fanlari nomzodi, bojxona faxriysi*

Annotatsiya: Maqolada bojxona ta’limini innovatsion rivojlantirish jarayonlari tahlil qilingan hamda Bojxona instituti faoliyatini takomillashtirish yuzasidan fikrlar berilgan.

Kalit soʻzlar: Innovatsiya, bojxona, oliy maʼlumot, bojxona ishi, bojxona huquqi, bitiruvchilar, ilmiy salohiyat.

Yosh avlodni taʼlim va tarbiya olishiga sarflangan mablagʻlar dunyo miqyosida eng samarali investitsiya hisoblanadi. Chunki har bir millat kelajagini bugun taʼlim olayotgan yoshlar bilan quradi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan joriy yilda Oʻsimlik moddalari kimyosi institutida ilmiy fan va taʼlim sohasi namoyondalari bilan uchrashuvda mamlakatimizga kiritilayotgan investitsiyalarning kamida 5 foizini ilmiy tadqiqot ishlari va taʼlim jarayoniga yoʻnaltirilishi lozimligini va bu koʻrsatkich tobora oshirib borilishini taʼkidlaganlar. Hozirgi shiddat bilan borayotgan globallashuv jarayonida barcha sohalar kabi taʼlim va tarbiya jarayonini ham zamon talablari bilan hamnafas ravishda rivojlanishini taqozo etmoqda.

Bu borada mamlakatimizda ham keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Dastlab Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi toʻgʻrisida”gi Qonunlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar doirasida taʼlim jarayonini koʻp bosqichli tizimiga oʻtildi. Taʼlim muassasalarining moddiy texnik bazasi yaxshilandi, taʼlim sifati ham bir muncha koʻtarildi. Ammo hozirgi zamon konyunkturaviy oʻzgarishlari zamonaviy yuqori bilimga ega malakali mutaxassislarni tayyorlash, taʼlim — tarbiya berish jarayonini ham muntazam innovatsion modernizatsiyalab borishni talab qilmoqda. “Innovatsiya” — soʻzi lotincha “novatio” – yangilanish, oʻzgarish maʼnosini anglatadi. Keyinchalik bu termin jamiyat hayotida “joriy etilgan yangilik” maʼnosida foydalanila boshlandi. Oʻzbekistonning oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda innovatsiyalarni joriy etish orqali taʼlim sifatini oshirish mumkin.

Zamon talablaridan kelib chiqib Oʻzbekistonda barcha taʼlim yoʻnalishlari kabi bojxonachilar tayyorlash jarayoniga ham innovatsiyalarni joriy etgan holda takomillashib bormoqda. Mustaqillikni dastlabki yillarida bojxona xizmati tarkibida oʻquv markazi tashkil etilib, unda xizmatga tanlab olingan xodimlar 3 oylik

boshlang'ich tayyorgarlikdan o'tish orqali bojxona ta'limini olishgan. 1995-yildan boshlab Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida "Bojxona ishi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha qabul boshlangan. 1998-yilda Davlat bojxona qo'mitasi tarkibida Bojxona kolleji tashkil etilib, unda 3 yillik ta'lim asosida o'rta maxsus ma'lumotli bojxonachi ofitser kadrlar tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi. 2001-yilda tashkil etilgan Soliq va bojxona organlari akademiyasida oliy ma'lumotli bojxonachi ofitser kadrlar tayyorlash ishlari boshlandi. Markaziy Osiyo hududida yagona bo'lgan Toshkent shahrida 2003-yilda Oliy harbiy bojxona instituti tashkil etildi. Unda "Bojxona ishi" hamda "Bojxona huquqi" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotli ofitser kadrlar tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi. Mamlakat iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar shu jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishiga uyg'un tarzda Bojxona ishi sohasi ham rivojlanib, takomillashib bordi. 2018-yilda institut qayta tashkil etilib unga Bojxona instituti nomi berildi. Sohaning ana shunday o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bojxona ta'limining mazmuniga qo'yilayotgan zamon talablari ham o'zgarib bormoqda. Shu jumladan, bojxona yuk deklaratsiyalarini taqdim qilish va uni rasmiylashtirish jarayonlari elektron tarzda amalga oshirilishi to'liq yo'lga qo'yildi. Xalqaro huquq normalariga hamda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilish tizimini o'z ichiga qamrab olgan Bojxona kodeksining yangi tahriri qabul qilindi. Ushbu o'zgarishlarga mos holda ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalari takomillashtirilib, uyg'un tarzda fan dasturlari, ma'ruzalar matni hamda boshqa o'quv materiallari ishlab chiqildi. Shu jumladan, barcha mutaxassislik fanlar bo'yicha o'qitilayotgan mavzular to'liq inventarizatsiyadan o'tkazildi, zamonaviy yo'nalishdagi istiqbolli mavzular bilan to'ldirildi. O'quv – metodik baza (*darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv uslubiy ko'rsatmalar, fan majmualari, ma'ruzalar matni*) muntazam tizimli ravishda shakllanmoqda.

Institutda ta'lim jarayonini yanada yuqori bosqichlarga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5414-sonli Farmoni asosida Bojxona instituti faoliyatini, yuqori professional ko'nikmaga, ma'naviy-axloqiy sifatlarga va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, tanlash hamda joy-joyiga qo'yish tizimini tubdan takomillashtirish bojxona organlarini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri deb, belgilangan.

OHBI pedagog xodimlarni xizmatini rag'batlantirish maqsadida joriy yil 12-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 3665-sonli Qarorida Oliy harbiy bojxona instituti ilmiy-pedagogik xodimlari, shuningdek, o'quv-uslubiy jarayoniga jalb etilgan mutaxassislariga o'quv mashg'ulotlarini o'tkazganlik uchun ish haqini soatbay to'lashning o'rnatilgan miqdoridan 50 foiz yuqori belgilash nazarda tutildi. Bu esa ta'lim jarayoni sifatini oshirishga ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi kunda bojxona ta'limini rivojlantirish bo'yicha Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan barcha shart-sharoitlar, huquqiy asoslar, imkoniyatlar hamda rag'batlantirishlar tizimi yaratib berilmoqda. Shular bilan birga Bojxona instituti oldiga quyidagi muhim vazifalar bajarilishi belgilangan:

- "Bojxona ishi", "Bojxona huquqi" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yangilangan ta'lim standartlari, fanlar bo'yicha dasturlar ishlab chiqish;

- institutni yuqori malakali ilmiy pedagogik kadrlar bilan ta'minlash;

- malakali mutaxassislar, ilmiy pedagogik kadrlar uchun rag'batlantiruvchi soatlik ish haqqi tizimini tatbiq qilish;

- xalqaro va xorijiy ilmiy-tadqiqot institutlari bilan keng hamkorlikni tashkil etish;

- amaldagi bojxona xizmati organlari xodimlari uchun sirtqi ta'lim shaklini ta'sis etish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni sifatli va o'z muddatida bajarish hamda bojxonachilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun eng avvalo ta'limga innovatsiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiq. Shu jumladan:

- mutaxassislik fanlarning bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning kamida ellik foizini bevosita bojxona organlarida (*bojxona postlari va hududiy bojxona boshqarmalarining sohaviy bo'limlarida*) hamkorlikda tashkil etish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha seminar va ayrim mavzulardagi amaliy mashg'ulotlarni o'qitish uchun DBQ YAAAT tizimiga bevosita ulanish imkoniyatiga ega bo'lgan USB kalit bilan institut xodimlarini ham ta'minlash;

- tinglovchilarning dunyoqarashini boyitish maqsadida ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlar bo'yicha seminar mashg'ulotlar mavzularni tegishliligi bo'yicha tarixiy muzeylar, qadamjolar, monumentlar, maydonlarga ekskursiyalar uyushtirish shaklida tashkil etish.

Yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish orqali bojxona ta'limini innovatsion rivojlantirish hamda bojxona organlariga yuqori professional ko'nikmaga, ma'naviy-axloqiy sifatlarga va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, tanlash hamda joy-joyiga qo'yish tizimini tubdan takomillashtirishga hissa qo'shiladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent — 2017.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.11.2018 y PQ-3995-son Qarori “O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.05.2003-y. 229-son qarori “[O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida](#)”.

4. <https://new.customs.uz/uz/>

ZAMONAVIY HARBIY MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSINING AHAMIYATI

Mullajonov Islomjon Yuldashevich

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq Renessansi davri olimlarining asarlarida ilgari surilgan g'oyalar hozirgi davrda yosh ofitserlarda innovatsion ongni shakllantirishning nazariy asoslarini tashkil qilish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sharq Renessansi, dunyoqarash, qadriyat, milliy mentalitet, jamiyat, rivojlantirish, shakllantirish, takomillashtirish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining islohoti ta'limda ko'p qoidalarining o'zgartirilishini, ilmiy asoslangan yangi tizimning shakllanishini va korporativ hamkorlikni keng yo'lga qo'yishda ishlab chiqilgan nazariy bilimlarimizni ishlab chiqarishga tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida jamiyatning ma'naviy yangilanishi buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosiga tayanadi. Shu nuqtayi nazardan Sharq Renessansi davri olimlarining asarlarida ilgari surilgan g'oyalar hozirgi davrda yosh ofitserlarda innovatsion ongni shakllantirishning nazariy asoslarini tashkil qiladi. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek: "Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak"[1].

IX-XI asrlar musulmon fani va madaniyati tarixida katta yutuqlar va muhim ilmiy kashfiyotlar davri bo'lganligidan, bu davrni tadqiqotchilar tarafidan Sharq fani va madaniyatining "oltin davri" deb e'tirof etiladi. O'sha davrda arab xalifaligi tarkibiga kirgan Movarounnahr va Xuroson mintaqasi yuz bergan madaniy-ma'rifiy yuksalishni ta'minlovchi va harakatlantiruvchi asosiy kuchlardan biri edi. Bu xulosa,

birinchi navbatda, bu ilmiy yuksalishda ishtirok etgan mutafakkirlarning asosiy qismi ushbu zamin farzandlari bo'lgani bilan izohlanadi[2].

Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri madaniyatini belgilagan ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi mintaqani egallagan bugungi O'zbekiston hududi va unga qo'shni mamlakatlar qadim zamonlardan beri qator sivilizatsiyalarning o'chog'i bo'lib kelgan. Miloddan avvalgi bir minginchi yillarda xorazmliklar, sug'dlar, marg'iyonlar va parkanlar kabi nomlar bilan atalgan sak(skif)lar istiqomat qilgan bu hudud Eron Ahamoniylari tomonidan mil.av.VI asrda zabt etilgan. O'sha va undan avvalgi davrlarda bu yerdagi xalqlar zardushtiylik diniga e'tiqod qilishgan. Mil.av.III asrlarda makedoniyalik Iskandar ishg'ol etgach, Yunon-Baqtriya madaniyati vujudga keldi. Mil.av.II-I asrlarda Buyuk Ipak yo'li vujudga keldi va mintaqani Yevropa bilan bog'ladi. Milodning I asrlarida Kushon saltanati, Sosoniylar, Kidariylar va Xiyoniylar kelgan bo'lsa, milodiy V asrda Eftalitlar, VI asrda Turk xoqonligining tasarrufida edi. Aytish mumkinki, mintaqa xalqlari arablar fathigacha zardushtiylik, ellin madaniyati, buddaviylik, xristianlik bilan tanish edi. Islom dini Movarounnahrda VIII asrda arablarning O'rta Osiyoni fath etishi bilan kirib keldi[3]. Bir tomondan O'rta Osiyoning iqtisodiy salohiyati, asrlar qa'ridan oshib kelgan mahalliy ilmiy an'analari fan va madaniyatning yuksalishiga poydevor bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan O'rta Osiyoning Arab xalifaligiga bo'ysundirilishi bu zamin tili, fani va madaniyatiga o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmadi[4].

Shu bois, asrlar davomida jahon falsafasi, xususan Sharq falsafasi qadriyatlari asosida yosh ofitserlarda falsafiy mushohada, tafakkur etish ko'nikmalarini shakllantirishni uzluksiz ta'lim tizimiga kiritish, nazarimizda, milliy mentalitetimizning milliy taraqqiyot g'oyasi asosida yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'rta asrlar sharq allomalari orasida Abu Nasr Forobiyning davlat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlari ilmiy jamoatchilikning e'tiborida bo'lib keladi. Buyuk alloma Abu Nasr Forobiyning "Ixso al Ulum" asarida shunday yozilgan: "... Jamoa haqidagi bilim ongli ish, harakatlar, turmush yo'l-yo'riqlari hamda odat-

malakalar, axloq, xarakter va moyillik xislatlarini o'rganadi. Chunki ongli ish harakat va turmush yo'l-yo'riqlari ana shulardan tashkil topadi. Jamoa haqidagi bilim yana shu ish-harakatlarning qanday maqsadga yo'naltirilganini, bu (axloq, malakalarning) insonda qaysi tartibda yuzaga kelishi, qanday mavjud bo'lishi, ularni boshqarish hamda saqlab qolish vositalarini o'rganadi"[5].

Forobiy fikricha, ijtimoiy takomilga va umumiy baxt-saodatga erishish ilm va ma'rifat yordamida hosil qilinadigan va erishiladigan yuksak intellektual va axloqiy fazilatlarning qo'llanilishi tufayli amalga oshiriladi. Bundan tashqari odam jamiyatdan, olib borilayotgan siyosatdan, ma'naviy, mafkuraviy islohotlardan ayro yashay olmaydi. Biz bugungi kunda ko'proq "yoshlarni yangi mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishimiz kerak", "ularning ongi va qalbida milliy g'oyani shakllantirishimiz lozim", "mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz shart", "dunyoqarashni o'zgartirish kerak" va shunga o'xshagan iboralar bilan bong urmoqdamiz. Demak, bunday vaziyatda o'z qadriyatlarimizga sodiq qolmog'imiz va uni o'zimizda rivojlantirib, shakllantirib hamda takomillashtirib borishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Faylasufning davlat boshqaruviga yangiliklarni joriy etish va shu orqali farovonlikni ta'minlash to'g'risidagi fikrlari dolzarb ahamiyatga egadir. "Ba'zan rahbarlar bir shaharning sohibkori, shahar xalqi hayotiga tegishli ishlarda tadbirkor bo'ladilar. Ular bu yo'l-yo'riqlarni o'tmishda kechgan boshliqlardan o'rganadilar, lekin shu bilan birga, rahbar kelajak uchun o'tmishdagi rasm-rusum, yo'l-yo'riqlarni isloh qilishi lozim va foyda topsa turmush sharoiti taqozosiga qarab ularni o'zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishning talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish bo'lmaydi"[6].

Davlat va jamiyat boshqaruviga joriy etilayotgan innovatsiyalar mavjud tizimlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi zarur va xalq farovonligiga yo'naltirilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Faylasufning fikrlaridan ma'lum bo'ladiki, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmaydigan qonun-qoidalaridan voz kechish va yangi boshqaruv shakllarini joriy etish ijtimoiy taraqqiyotning muhim omilidir.

Tibbiyot sohasidagi ilmiy kashfiyotlari o'z davridan bir necha yuz yillar oldinga o'tib ketgan Abu Ali ibn Sino falsafa fanlari doirasida ham yirik ilmiy asarlar muallifidir. Olimning inson hayotida bilimning o'rni va roli, olingan bilimlarni ijtimoiy turmushda qo'llash borasidagi betakror fikrlari alohida ahamiyatga ega. Faylasufning fikricha, insonning ma'naviy-ruhiy olami bilish, bilim olish va amaliy hayot davomida shakllanadi. Shu bilan birga hayot bilimsiz bo'lishi mumkin emas, bilim esa amaliyotsiz befoydadir. O'zining bilimi tufayligina inson zoti takomillashib boradi va boshqa jonzotlardan ustun turadi. Inson bilimsiz komillikka yetishi mumkin emas va doimo bilimga intilganlarga baxtli sanaladi[7].

Buyuk sarkarda Amir Temur faoliyatini ilm-fanning davlat boshqaruviga, iqtisodiy-siyosiy hayotga tatbiq etilishining natijasi sifatida o'rganish mumkin. Uzoq yillar mo'g'ullar zulmiga bardosh berib kelgan xalqni ozodlikka olib chiqish va shu asosda buyuk saltanat tuzish uchun mutlaqo yangicha yondashuv talab qilinar edi. Bu haqda faylasuf olim Ibrohim Mo'minov tarixiy manbalarga tayanib shunday yozadi: "Temur xislatlaridan biri shu ediki, u biror masalani hal etishdan oldin shu sohaning bilimdon odamlari, olimlar bilan maslahatlashar, so'ng konkret qaror qabul qilar edi". Davlat boshqaruvi, harbiy san'at, iqtisodiy-ijtimoiy hayotda mavjud an'analar bilan birga yangicha yondashuvlarning ham izchillik bilan tatbiq etilishi, qisqa muddatda yirik saltanatning vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillardan biridir.

Ulug' bobokalonimiz falakiyotshunos olim va temuriyzoda Mirzo Ulug'bekning o'z davrida ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan, uning ilmiy kashfiyotlari qimmati qanchalik yuksak ekanini tarixning o'zi isbotladi. Mirzo Ulug'bek ilm-fan yutuqlaridan davlat boshqaruvida foydalangani va o'zi ham bu jarayonga innovatsion yangiliklarni kiritib borgani qator asarlarida qayd etilgan. Hukmdor sifatida siyosiy jarayonlarni baholashda yangicha yondashuvlarga alohida e'tibor qaratgan. "To'rt ulus tarixi" asarida Tuminahon ibn Boysung'urxon podshohligi haqida shunday yozgan edi:

“Tuminaxon otasi saltanati taxtiga o‘ltirib, qoonlik tojini kiygandan keyin jahonbonlik rasm-u rusumi va tartiblarini yangiladi. Saltanati va komronligi ovozas, sarvarlik va xonligi bongi olamning barcha mamlakatlariga ketdi”[8].

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, Sharq Renessansi davri allomalarining merosi insoniyat ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Qomusiy allomalar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar hozirgi davrda ham ilmiy jamoatchilikning e‘tibor markazida ekanligi, buyuk allomalarimizning ilmiy merosiga murojaat etayotgani, ajdodlarimizning nomi bilan bog‘liq ilmiy markazlar, majmualar, oliy o‘quv yurtlari, o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi muassasalari va maktablar tashkil etilayotgani O‘zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida innovatsion taraqqiyotning tarixiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi.
2. Abduhalimov B.A. “Bayt al-hikma” va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati: (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). -T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004. -236 b. -b. 209.
3. Qarang: Sag‘dullayev A., Aminov B., Mavlonov U., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism. -T.: 2000. -B.38-44.
4. Abduhalimov B.A. “Bayt al-hikma” va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati: (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). -T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004. 236b. -B.11.
5. Forobiy, Abu Nasr. Risolalar. T.: “Fan”, 1997. –144b. 131-b.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – B.189-190.
7. Boltaboyev M.N. Abu Ali ibn Sina – velikiy mislitel, ucheniy-ensiklopedist srednevekogo vostoka. – Moskva: Sampo, 2002. – S. 355-356.

**BO‘LAJAK BOJXONA XIZMATI ORGANI XODIMLARINI KASBIY
FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONIDA HUQUQIY
MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH**

Rafikova Muattar Ravshanovna

Bojxona instituti “Umumhuquqiy fanlar”

kafedrasi dotsenti, bojxona xizmati podpolkovnigi,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori(PhD)

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida huquqiy madaniyatni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bojxona xizmati organi xodimlari, huquqiy madaniyat, huquqiy ta’lim, huquqiy tarbiya, kasbiy shakllanish.

Bugungi kunda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ularning faolligini oshirish, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bejiz emas. Chunki yurtimizni yuksak rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shish maqsadida amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarasi ko‘p jihatdan bilimli, huquqiy tafakkuri yuksak, intiluvchan yoshlarga bog‘liq.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “... birinchi navbatda aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida huquqiy tarbiyani keng yo‘lga qo‘yishimiz lozim. Oddiy qilib aytganda, farzandlarimizga bolalik paytidan “yaxshi” va “yomon”, “mumkin” va “mumkin emas” degan tushunchalar o‘rtasidagi farqni o‘rgatishimiz, o‘zimiz esa ularga doim shaxsiy namuna bo‘lishimiz kerak” deb ta’kidlab o‘tgan[1].

Bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarining yuksak huquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlaydi. Darhaqiqat, yuksak huquqiy madaniyat-demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligini ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning siyosiy va huquqiy tizimlarini samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi[2].

Izchil, uzluksiz, zamonaviy talablarga javob beradigan huquqiy ta'lim tizimini yaratish, ta'limning barcha bosqichlarini qamrab oladigan o'quv komplekslarini tashkil etish bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarini tayyorlashning muhim vositasidir.

Ilmiy asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va huquqiy ta'limning ixtisoslashuvini izchil amalga oshirish bojxona kadrlarini tayyorlash tizimini isloh qilishning zarur shartidir.

O'quv jarayonida huquqqa oid fanlarni o'qitishdan asosiy maqsad kursantlarda huquqiy bilimlarni egallash, huquqiy ishonch, e'tiqodni hosil qilish, ijtimoiy-huquqiy faollik ko'nikmalarini hosil qilish orqali huquqiy madaniyatni takomillashtirishdir.

Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo'ladi:

1) davlat va huquq masalalariga oid bilimlar tizimini o'rgatish orqali kursantlarning hayot faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ma'lumotlar bilan qurollantirish;

2) huquqqa, qonunchilikka, huquqni muhofaza qilish organlariga hurmat hissini tarbiyalash;

3) huquqiy normalarga mos xatti-harakatni amalga oshirish ko'nikmasini shakllantirish;

4) faol fuqarolik nuqtai-nazarini shakllantirish, huquqbuzarlikning har qanday ko'rinishlariga qarshi murosasizlik ruhida tarbiyalash;

- 5) har bir muammoni qonuniy yo‘l bilan hal etish ko‘nikmasini hosil qilish;
- 6) huquqiy faollikni shakllantirishdan iborat.

Huquqiy madaniyatni shakllantirishning vosita va usullarini takomillashtirish maqsadi fuqarolar bilan olib boriladigan huquqiy ishlar saviyasini oshirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning va o‘quv yurtlarining kadrlar bilan yetarli ta‘minlanishiga erishishdir.

Huquqiy ta‘lim va tarbiya o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjud bo‘lib, huquqiy madaniyatni shakllantirishning garovi hisoblanadi.

Huquqiy ta‘lim kursantlarda davlat, huquq, huquqiy me‘yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar haqidagi tizimga tushirilgan bilimlarni hosil qilish, ularda huquqiy bilimlarni mustaqil egallashga bo‘lgan ehtiyojni vujudga keltirish, huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan izchil va uzluksiz jarayondir.

Huquqiy tarbiya esa bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlari tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida ularning huquqiy faoliyat ko‘rsatishiga oid ko‘nikma va malaka hosil qilish, huquqni, qonunni hurmat qilish, unga ongini ravishda bo‘ysunish, huquqiy faollik asosida huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan izchil va uzluksiz jarayonidir.

“Yoshlar huquqiy madaniyatining tarkibiy unsurlari huquqiy bilish, tushunish hamda unga rioya etishga odatlanishdan, huquq talablarini hurmat qilish, huquq ko‘rsatmalarining to‘g‘riligiga va adolatligiga ishonch hamda yuridik sohada faol hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishdan iboratdir”[3].

Bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlari huquqiy madaniyatining eng muhim belgilaridan biri ular tomonidan egallangan huquqiy bilimlar hajmining kengayishi va darajasining oshib borishiga ko‘ra qonuniy va noqonuniy, maqsadga muvofiq va maqsadga nomuvofiq bo‘lgan xulq-atvorni baholay bilish qobiliyatining shakllanishiga, ya‘ni huquqni tushunishiga zamin yaratadi. Lekin, bo‘lajak bojxona xizmati xodimlarining qonunni bilishi va huquqni tushunishi huquqbuzarlik amalga oshmaydi, degan so‘z emas. Faqat huquqqa hurmat va unga ongini ravishda itoatkorlik shakllangan taqdirdagina huquqbuzarlik yuz bermaydi.

Bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarining huquqiy madaniyatini takomillashtirishda kursantning kasbiy qiziqishi, moyilligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda asosiy metodik (didaktik) vazifa – huquqiy madaniyatni takomillashtirish jarayonini bosqichma-bosqich tizimli tashkil etib, ularning o'z-o'zini huquqiy madaniyatini rivojlantirishi, o'zida mavjud bo'lgan kasbiy sifatlarni yanada rivojlantirishi va o'z ustida mustaqil ishlashiga yo'naltirilgan maqsadli faoliyati uchun zarur bo'lgan pedagogik-metodik shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim. Shuningdek, ularining huquqiy madaniyatini takomillashtirishda tamoyillar, bilimlar tizimligi, huquqiy-me'yoriy shartlilik, shaxsiy-yo'naltirilganlik, funksionallik, kreativlik, jamoaviy hamkorlik, hissiy barqarorlik, integrativlik, kommunikativlik, ta'lim fanlarining o'quv-uslubiy imkoniyatlari, modellashtirish vaziyatni to'g'ri baholash, ijodiy yo'naltirilganlik, refleksiyadan to'g'ri foydalanish kerak.

Bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarining faqat kasbiy bilimlari, ko'nikmalar va malakalarnigina emas, balki shaxsiy imkoniyatlarini, shaxsiy sifatlarini, rivojlantirishni nazarda tutadi. An'anaviy ta'lim o'z faoliyatini samarali tarzda bajarishga qodir bo'lgan bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarini yo'naltirib o'qitish jarayoni sifatida qarab chiqib, kursantlarning rivojlanishiga ma'lum darajada ahamiyat beradi, ammo, bunda mazkur rivojlanishni kasb faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning ma'lum to'plamining shakllanishi, kursantlarning kasb qobiliyatlari va kasbiy muhim xossalarning rivojlanish natijasi sifatida qarab chiqiladi.

Kasbiy shakllanish — bu bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarining kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatlari, bilimlari, malakalari va harakat namunalarining shakllanish jarayonidir.

Shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishning mohiyati – borliqning soddalashgan, kichraytirilgan aksini yaratish, ya'ni undagi lavhalarni yuzaga keltirish – yaratish — shakllantirish — hosil qilishdan iborat. Borliqdagi qiyofalarni mos ravishda qo'llay olish uchun biz o'zimizda ushbu lavhalardan hayotning to'laqonli aksini yarata

olishimiz lozim. Kasbiy shakllanish jarayonining maqsadi — uni qiyofa – modellardan qayta tiklay olishdan iborat[4].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, har bir kursant “mumkin”, “zarur”, “ta’qiqlanadi” tushunchalarining ma’nosini to‘la anglagan holda quyidagi asosiy yo‘nalishlarni belgilab olishi zarur bo‘ladi:

1) huquqiy munosabatlar boshqa qatnashchilarning huquqlariga zid bo‘lmagan holda o‘z subyektiv huquqini himoya qila bilish;

2) davlat, jamiyat, mehnat jamoasi, oila a’zolari oldidagi yuridik majburiyatlarni to‘la anglashi;

3) yuridik javobgarlikning chegaralarini va turlarini bilish.

Ziddiyatli, munozarali xususiyatga ega bo‘lgan huquqiy masalalarni bo‘lajak bojxonachilar auditoriyada muhokama qilishlari bilan birga, ularni mustaqil tayyorgarlik ko‘rish jarayonida amaliy topshiriqlarni bajarish va mustaqil, asoslangan qarorlar qabul qila bilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son farmoni // [Elektron manba] // URL: <https://www.lex.uz/docs/4149765/query>.

2. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 2018-yil 6-dekabr.

3. Салников В.П. Правовая культура // Теория государства и права курс лекций / Под ред. Н.И.Матузова, А.В.Малко. – М.: Юрист, 2001. – С. 629.

4. Якиманская И.С. Технология личностно-ориентированного образования. – М.: 2000. – 176 с.

HARBIY TA'LIM TIZIMIDAGI BO'LAJAK OFITSERLARNING AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Sharipov Rasul Shokir o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak ofitserlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini rivojlantirish omillari, kasbiy muhim sifatlari hamda harbiy ta'lim tizimini takomillashtirish yoritib berilgan. Shuningdek, "Kursant kodeksi" tushunchasi va mexanizmlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: Qurolli Kuchlar, harbiy ta'lim, bo'lajak ofitserlar, psixologik trening, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, "Kursant kodeksi".

Dunyoda yuz berayotgan nostandart vaziyatlar, turli xil qurolli to'qnashuvlar va ularning harbiy xizmatchilarga ta'siri ortib bormoqda. Shu o'rinda yuzaga kelayotgan turli xil murakkab vaziyatlar harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini yanada oshirish, turli xil psixologik ta'sirlarga barqarorlik ko'nikmalarini yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev "Harbiy xizmatchilarning ruhiy jihatdan chidamli bo'lishi haqida gapirganda, keyingi paytda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlarda ko'zga tashlanayotgan bir holatga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Ya'ni, jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o'rtasidagi yo'qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta'sir va zarbalar bilan bog'liq ekani ma'lum bo'lmoqda. Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch sharoitda ham davolash juda murakkab masaladir"[1] deb ta'kidlagan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasiga asosan "Jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning

qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish”[2] belgilab berilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida axloqiy-ruhiy ta’minot ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida qo‘shinlarning jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini yuksaltirish, mamlakat tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashga, halol harbiy xizmatchilarni tarbiyalashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari axloqiy-ruhiy ta’minot Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qo‘shma qaror imzolandi[3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni[4].

Shu munosabat bilan, bo‘lajak ofitserlarining kasbiy muhim sifatlaridagi (*Muloqotchanlik, bama’nilik, mas’uliyatlilik, jahldorlik, o‘z-o‘zini tanqidiy baholash, yolg‘onchilik, o‘z fikrlarini himoya qila olish, tavakkalchilikka moyillik, zararli odatlar mavjudligi va h.k.*) kuzatilayotgan o‘zgarishlar hech birimizga sir emas. Shunga o‘xshash salbiy sifatlarni oldini olish maqsadida bo‘lajak ofitserlarni psixologik tayyorlash, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, Vatanga bo‘lgan sadoqatini oshirish, Qurolli Kuchlar umumharbiy nizom talablari bo‘yicha qo‘shimcha ravishda mashg‘ulotlar tashkillashtirish hamda axloqiy-ruhiy tayyorgarligini takomillashtiruvchi psixologik trening mashg‘ulotlarini o‘tish talabi yuzaga kelmoqda.

Yuqoridagi talablarni amalga oshirish uchun eng avvalo bo‘lajak ofitserlarning biologik omillari yoki psixologiyasiga katta e’tiborni qaratishimiz lozim.

Qurolli Kuchlar professional harbiy xizmatchilarga ega bo‘lishi uchun birinchi o‘rinda bo‘lajak ofitserlarning biologik omillarni sinchkovlik bilan o‘rganishi lozim bu esa uning axloqiy-ruhiy holatiga shubhasiz ta’sir etadi.

Shu ma’noda inson psixologiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan: psixologik jarayon (hissiyot, iroda); xususiyatlar (temperament, xarakter); holatlar (ruhiy tushkunlik, ko‘tarinki kayfiyat); tuzilmalar (bilim, malaka, odat).[5]

Shuning uchun bo'lajak ofitserlarni tayyorlashda asosan ularning psixologik jarayonlarini to'g'ri baholay olish darkor bu esa boshliqlardan kasbiy-pedagogik mahoratning yuqori darajada bo'lishini talab qiladi.

Ta'lim va tarbiya murakkab jarayon bo'lib, u bo'lajak ofitserlarning ongiga shunday ta'sir etishni nazarda tutadiki, shu ta'sir ostida ularda yana siyosiy onglilik, harbiy burchga sadoqat va himoyasi uchun ma'suliyat hissi kabi sifatlar shakllanadi. Ta'lim va tarbiyaviy ta'sir eng avvalo insonning ruhiyatiga, ongiga qaratilgan bo'ladi.

Harbiy faoliyat, ayniqsa, rahbarlik (boshqaruv) faoliyati murakkab va qiyin ma'suliyatli ishlardan biri hisoblanadi. Buning sababi ushbu faoliyat kishisiga tushadigan jismoniy va ruhiy zo'riqishgagina bog'liq bo'lmasdan, komandirlarning bo'lajak ofitserlar bilan o'z psixologik nuqtayi nazaridan faoliyati bu turli vositalardan foydalanishi orqali mavjud ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar tizimidan iborat[6].

Yuqoridagilarni inobatga olib, jamiyatimizdagi teng huquqlilik va demokratik muhitni shakllantirishga intilgan holda xorij davlatlari tajribasini o'rganib harbiy ta'lim tizimida **“Kursant kodeksi”**ni qo'llash taklif qilinadi.

Bunda ta'lim oluvchi o'qishga kirgan kundan boshlab bitiruv kuniga qadar ball berilishi yoki olishi orqali har bir qilgan xatti-harakatlari tartibga solinadi. Buning uchun esa birinchi o'rinda “bo'lajak ofitserlar uchun alohida intizomiy kodeks” ishlab chiqish lozimdir. Bu xatti-harakatlar orqali ta'lim oluvchini rag'batlantirish yoki tanbeh berish, ularning intizomiy mavqeyini oshirishga ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. “Kursant kodeksi” quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi: Ta'lim oluvchiga oliy harbiy bilim yurti 4 yillik o'quv jarayonida 200 ball berilishi va o'quv davrida bir marotaba ham tanbeh olmasligidan kelib chiqib qo'shimcha 5% rag'batlantirish (ball) berish. 200 ball ichida yuzdan ortiq intizomiy xatti-harakatlari uchun 1-5 bo'lgan miqdorda ballni olib tashlash. Eng og'ir intizomlar uchun esa 10-50 ballgacha bo'lgan miqdorda yo'qotishdir.

Ta'lim oluvchining intizomiy xatti-harakatlari uchun ma'lum miqdorda ballni olib tashlash misolida:

-imtihonda (shpargalka) ishlatgani uchun (birinchi marta) – 50 ball, ikkinchi marta – 100 ball;

-boshqa bir ta'lim oluvchi bilan gap talashish yoki mushtlashganligi uchun – 20 ball;

-darsga loqaydligi yoki kechikib kirganligi uchun – 15 ball;

-komandirlarning buyruqlarini o'z vaqtida bajarmaganligi uchun – 10 ball;

-o'z harbiy kiyimini toza saqlamagani uchun – 5 ball va hokazolardir.

Undan tashqari sodir etilgan intizom qoidalari uchun dam olish kunlari shaharga chiqish man etilishi va shanba-yakshanba kunlari uchun 2 balldan jami 4 ballni olib tashlash (masalan yuqori unvondagi harbiy xizmatchiga salom bermaganligi uchun) 1-2 hafta shaharga chiqish taqiqlash va tezkor navbatchiga yo'qlama qildirish.

Shu bilan bir qatorda, imtiyozli bahoga bitirishi ham to'plagan baliga bog'liq bo'ladi. Shunga o'xshash harbiy xizmatdagi kunlik hayotiy shart-sharoitlarning hammasi "Kursant kodeksi"ga muhrlab qo'yilishi lozim.

Shundan kelib chiqib, bo'lajak ofitserlar o'z qobiliyatlarini har tomonlama nazorat qila boshlaydilar. Bularning hammasi qonuniy amalga oshirilishi uchun har bir noto'g'ri say-harakatni komandirlar tomonidan qayd etib borilishi lozim va ularni hammasi ma'lumotlar bazasiga kiritib borilishi shart, yuqorida belgilangan 200 ball "0" ballga yetganda oliy harbiy bilim yurtidan chetlatish nazarga tutilishi kerak. Bu esa bo'lajak ofitserlarning o'zini-o'zi boshqarish va o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishga undaydi hamda xulosa shaklida namoyon bo'ladi. Bo'lajak ofitserlarning ballari Akademiya elektron platformasi va elektron axborot doskasida joylashtiriladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi harbiy o'quv bo'linmalarida dolzarb hisoblanib, o'z yechimini kutayotgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- zamon talablariga va harbiy faoliyatga qiziqqan kadrlarni tanlab olish va tayyorlash;

- ta'lim oluvchilarni har tomonlama va uyg'un shaxs sifatida tarbiyalash, ularda yuksak vatanparvarlik, axloqiy-ruhiy va harbiy-ixtisoslik sifatlarini shakllantirish;

- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash masalalarini hal etish va ofitser kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish va o'tkazish;

- ta'lim oluvchilarni ko'p bosqichli tizimda tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- harbiy nazariya va amaliyot sohasida fundamental, tadqiqiy va amaliy tadqiqotlarni tashkil etish, o'tkazish va ularni muvofiqlashtirish;

- respublikadagi oliy harbiy ta'lim muassasalari, universitetlar va ilmiy markazlar bilan ilmiy hamda amaliy aloqalarni rivojlantirish, mustahkamlash hamda ular bilan o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish;

- harbiy fanlar va harbiy ta'lim sohasi bo'yicha ilmiy, ilmiy-amaliy va uslubiy konferensiyalar, seminarlar va kengashlar tashkil etish;

- harbiy psixolog lavozimlariga mutaxassis bo'lgan psixologlarni tayinlash.

Bo'lajak ofitserlarni o'qitishni quyidagi ilmiy-ijodiy va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida takomillashish tavsiya etiladi:

- harbiy pedagogika va psixologiya nazariyasining asosiy muammolari va ushbu fanlarning metodologiyasi tadqiq qilinishi va milliy mentalitetimizga xos bo'lgan psixologik treninglar yaratish;

- pedagogik g'oyalar hamda uning tarixiy taraqqiyotini o'rganish;

- yosh avlodni tarbiyalash yuzasidan ilg'or tajribalarning ilmiy tahlil etish va umumlashtirish;

- bugungi yoshlarni zamon talab qilayotgan bilimlar bilan qurollantirishning samarali yo'llari ustida izlanish va ularni vatanparvarlik yo'lidagi maqsadlar sari birlashtirish hamda axloqiy-ruhiy barqarorligini yuksaltirish.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim oluvchilarni uzluksiz o'qitishning asosiy maqsadi ta'lim olish va xizmat jarayonida har qanday murakkab sharoitlarga tayyor bo'lishi, yondashuvlarni tavsiflash va hayot siklining barcha bosqichlarida uzluksiz o'qitish jarayonini yaratish, kasbiy faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish asosida amalga oshirish axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishning asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etildi. Bu o'z navbatida, bo'lajak ofitserlar faoliyati bilan bog'liq

shaxsiy-kasbiy fazilatlarni belgilovchi psixologik omillarni tadqiq etish dolzarb masala ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2018-yil 10-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 26 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan xavfsizlik kengashining yig'ilishidagi nutqidan.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasiga asosan 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son qaroriga 5-ilova. 5.2 band. 97-maqsad.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-sentyabrdagi PQ-371-son qarori. (O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish konsepsiyasi).

4. <https://nrm.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. (2020-yil 24-yanvar).

5. Масагин В.П. Военно-профессиональное самосовершенствование офицеров: сущность и содержание. // Военная мысль, 2005, № 4, С18-22

6. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya.- T.: O'zbekiston, 2004. –B.5

HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Muinov Alisher Musinovich,

*Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti,
“Gumanitar fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi, dotsent*

Ergashev Abdusattor Tulanovich,

*Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti
“Gumanitar fanlar” kafedrası professori, t.f.b.f.d.(PhD), dotsent*

Raimov Shukurullo Karimovich,

*Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti
“Gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti, p.f.n.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy kadrlarni tayyorlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni, harbiy professionalizm nima, professional harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda buyuk avlodlarimizning o‘g‘itlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: professional tayyorgarlik, professional malaka, mahorat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, harbiy islohotlar.

Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, shovinizm, millatchilik, diniy ziddiyatlar bosh ko‘tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda.

Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning muhim kafolati, xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Yanada ogoh va sergak bo'lish, eng asosiy boyligimiz bo'lgan va bir haqli ravishda faxrlanadigan ko'pmillatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir [1].

Bugungi kunda bizning harbiy xizmatchilarimiz o'zlarining professional tayyorgarlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamoqda. Xalqaro harbiy o'quv musobaqalarda, armiyalar o'rtasidagi va sport bellashuvlarida O'zbekiston vakillari o'zlarini mahorati, ruhan baqquvvatligi, g'alabaga bo'lgan irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko'rsatmoqda. Hech shubhasiz, bularning barchasi butun O'zbekiston xalqida, ayniqsa, yoshlarimizda milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg'usini, Vatan himoyachisidek sharaflilik kasbga hurmat-ehtirom hissini uyg'otmoqda.

Mutaxassislar fikricha, professional malaka har bir kadrning xizmat vazifalarini bajarish imkoniyatini ta'minlovchi malakaviy bilimdonlik, kasbiy tashabbuskorlik va mahoratni o'zida mujassamlashtirgan integrativ qobiliyatdir.

Shunday ekan harbiy professionalizm Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibini yuqori tayyorgarlikka ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlashdir. Professional tayyorgarlikdan o'tgan harbiy kadrlar haqiqiy harbiy xizmatda yoki zaxirada turishlari mumkin. Jangovar holatlar yuzaga kelgan paytlarda safarbarlik e'lon qilish, qo'shinlarni tuzish, Qurolli Kuchlar jangovar shayligini ta'minlash va ularga yuklatilgan vazifalarni bajarishda haqiqiy harbiy xizmatda bo'lgan professional harbiy kadrlar faoliyati alohida ahamiyatga ega.

Harbiy kadrlarning jangda g'alabaga erishish uchun qurol-yarog' va harbiy texnikadan samarali foydalanishi, dushmandan ustun kelishi jangovar mahoratni baholashning muhim mezonidir [2].

Mutaxassisda professionalizm ko'rinishlari zamonaviy texnikani boshqarish, foydalanish kabi bilim, mohirlik va ko'nikma mavjudligi bilan izohlanadi. Professionalizm maxsus fanlar uslubiyatlaridan foydalanib murakkab vazifa va muammolarni yechishda, ular mazmunini tasvirlashda namoyon bo'ladi.

Professional harbiy faoliyat, shaxsiy-ijodiy jarayon sifatida, kasbiy mahorat esa, ijodiy xarakterga ega, ijtimoiy-siyosiy natijaga erishish uchun yo'naltirilgan faoliyatning samarali darajasidir. Kasb sohalarida professional mahoratni tahlil qilishda maxsus bilim, mahorat, ko'nikma, qobiliyat va shaxsning kasbiy sifatlari tizimiga e'tibor berish lozim. Muhim kasbiy bilimlarni, mohirlik va ko'nikmalarni egallamay, hech qachon professionalizm shakllanmaydi [3].

Mahorat tushunchasi alohida mohirlikka tegishli emas. U turli darajadagi faoliyatlarni mujassamlashtiruvchi mohirlik majmuasiga tegishli. Mahoratning yuksak ko'rinishi harbiy san'at va kasbga ijodiy yondashuv hisoblanadi.

Professionalizm murakkab muammolarni yechish usullaridan tashqari, natijalarini tahlil etish, sabablarni tashxis qilish, faoliyatni takomillashtirish kabi usullarda kasbning mutaxassis shaxsi va imkoniyatiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi. Shaxsning kasbiy ta'lim olish jarayonida professionalizmga asos solinadi. Yurtning osoyishtaligini saqlash professional harbiy kadrlarning muqaddas burchidir. Har bir millatning g'ururi, milliy his-tuyg'ulari o'z elining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Biroq, mustabid tuzum davrida O'zbekiston Respublikasida milliy kadrlar tayyorlashdek muhim ijtimoiy-siyosiy muammo hal etilmadi. Natijada milliy kadrlar salmog'i kamayib ketdi. Markaz buyrug'ini so'zsiz bajarishga majbur bo'lgan ko'pgina yuqori lavozimdagi rahbarlar o'n yillar davomida mahalliy yoshlar orasidan milliy kadrlar tayyorlash bilan astoydil shug'ullana olmadilar. Natijada, mahalliy millat vakillarini lavozimlarga jalb qilmay millat g'ururi va qadriyatini kamsitadigan yo'ldan borib, boshqa respublikalardan tayyor harbiy kadrlarni yollash yo'lini tutdilar. Mahalliy kadrlardan ko'ra, ko'proq markaziy idoralar rahbarlari bu ishga jadallik bilan kirishib, o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun astoydil harakat qildilar [4].

Mamlakatimiz milliy g'oyasi sobiq tuzum g'oyalaridan tubdan farq qilib, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ulug'lanadi. Inson omiliga eng oliy qadriyat sifatida qoraladi. Unda shaxsni tarbiyalash, komillikka yetkazish uchun buyuk allomalarimizning boy ma'naviy merosi, jumladan Naqshbandiya tariqatidan foydalanish tavsiya etilgan. Naqshbandiya tariqatida odillik va komillikka erishish

g‘oyasi mustabid tuzum “odilligidan” tubdan farq qiladi. Naqshbandiya g‘oyalari jamiyatni yalpi o‘zgartirishga emas, shaxsni yakka tartibda tarbiyalashga, har kimning o‘zini-o‘zi kamolga yetkazish uchun intilishga qaratilgan. Fuqarolar ongida insof, adolatli jamiyat kabi tushunchalarning qaror topishida va ularni rivojlanishida Naqshbandiya g‘oyasining tutgan o‘rni beqiyosdir.

Ingliz tasavvufshunosi J.S.Trimingem ta’kidlaganidek, tasavvuf, jumladan, Naqshbandiya falsafasi bundan buyon ham insoniyatning ma’naviy barkamolligi uchun muhim hayotiy ta’limot bo‘lib qolaveradi [5].

Buyuk mutafakkir va alloma bobolarimizning ma’rifatli jamiyat to‘g‘risida g‘oyalari, orzu-umid va armonlari ko‘pchiligimizga yaxshi tanish. Bu borada Abu nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini eslash kifoya.

Avlodlarimizning ana shunday asriy intilishlarini ro‘yobga chiqarish uchun ta’lim va ma’rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo‘naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash zarurligini yaxshi anglaymiz.

Shu munosabat bilan harbiy xizmatchilarning ong-tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Va bunda mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, umuminsoniy madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalarni samarali amalga oshirish lozim.

Yana bir misol, Bahovuddin Naqshband ta’limotining ahamiyatini faqat uning tarixdagi o‘rni bilangina cheklash to‘g‘ri emas. Eng muhimi, bu tariqat g‘oyalari bugungi kun harbiy kadrlarining kamoloti va kelajak avlod ma’naviy saviyasini yuksaltirishda bebaho manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ma’lumki, jamiyatning taraqqiy etib borishi bilan bir vaqtda shaxs tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan g‘oyalarning mazmun-mohiyati shu jamiyatning kelajakdagi orzu-intilishlari va maqsadlariga qarab o‘zgarib boraveradi. Ammo ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlar, sirtidan har qancha o‘zgarmasin uning asl mohiyati saqlanib qolaveradi. Inson bilimi qanchalik mukammallashib borgani sari uning ezgulik haqidagi o‘y-fikrlari, bunyodkorlik borasidagi orzu havaslari ortib boraveradi. O‘z mehnati

natijasidan ruhlanish, har bir insonning qalb go'zalligiga erishishi, ko'ngil xotirjamligini his qilish, o'tgan har bir kunga shukrona qilishi, o'zini-o'zi boshqarish va tarbiyalab borish, ma'rifat dunyosini zabt etish, kamolot cho'qqilarini egallash Naqshbandiya g'oyalarining asosini tashkil etdi. Mazkur ta'limot milliy g'oyamizning asosiy ustunlaridan biri bo'lib, professional harbiy kadrlarning ma'naviy dunyoqarashini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qurolli Kuchlarimiz jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgani sababli yuqarida qayd etgan jamiyatdagi islohotlar va o'zgarishlar harbiy xizmatchilarimizning ong u-tafakkuriga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Qurolli Kuchlarda professional harbiy kadrlarni tayyorlash muhim ijtimoiy vazifagina bo'lib qolmay, balki juda zarur siyosiy masala hamdir. Shunday qilib professional harbiy kadrlarni tayyorlash milliy, ma'naviy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash va uning samarali vositalarini yaratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi – Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Eshnayev N.J. Harbiy xizmatchilarda kasbiy professionalizmni mustahkamlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning psixologik ahamiyati. – Chirchiq DPU, 2020.
3. Деркач А.А. Формирование и развитие профессионального мастерство руководящих кадров. – Москва, издательство "Луч", 1993.
4. Bobojonova D. O'zbekistonda milliy ishchi kadrlar tayyorlash tajribasidan // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 1997. № 3-4.
5. Olim Sultonmurod. Naqshband va Navoiy. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

KOMILLIKKA INTILISH NEGIZLARI

Razakov Davron Haliqovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti,

tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq va shaxsning madaniyatida halol mehnat qilish, kamtarlik, namunali axloq kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish dolzarbligi to'g'risidagi muallifning ijtimoiy-falsafiy fikrlar-mulohazalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: halollik, kamtarlik, insoflilik, nutq, mehnat, xalqining tarixi, talaffuz, madaniyatli xalq, kelajak avlodlar.

Har bir xalqning o'z madaniyati bor. Tabiiyki, o'zbek xalqi ham bundan mustasno emas. Bu madaniyat nimadan iborat? Madaniyat deganlari nima o'zi? Madaniyatli kishi, madaniyatli xalq deganda nimani tushunamiz? Bu haqda, albatta, har odamning o'z tushunchasi, qarashi bor.

Madaniyatli kishi uch narsaga suyanadi: biri – halollik, ikkinchisi – kamtarlik, uchinchisi insoflilikdir. Chunki halollik, kamtarlik va insoflilik adolatning ustunlari hisoblanadi. Bunday odam, albatta, o'qimishli, nazokatli, xushmuomalalik, kechirimli, qanoatli, sabr-bardosh egasi bo'la oladigan shaxsdir.[1]

U o'z xalqining tarixinigina biladigan emas, balki jahon tarixidan ham xabardor inson. Boylik, pul to'plash uning uchun asosiy maqsad emas, balki yashash uchun bir vositadir. U qimmatbaho kiyimlarga, yasanib-tusanishga intilmaydi, balki sodda, o'ziga yarashib turadigan libos kiyadi. Mumkin qadar o'zgalar ko'ziga tashlanmaslikka harakat qiladi.

Hayotda birovga xalal bermaslikka tirishadi.

Taomni ham tanlab tanovul qiladi, taom yemoq uchun yashamaydi, taom yemoqni ko'ngilga tugilgan ulug' niyatlarni amalga oshirish uchun sarflashga kuch-quvvat yig'moq yo'li, deb biladi.

Uning tabiati o'ziga yarasha nozik, duch kelgan davralarga qo'shilib ketolmaydi, balki ruhiyatiga mos davralarga borishni orzu qiladi. "Og'iz bo'lma, quloq bo'l" maqolini juda ardoqlaydi, hamisha oz gapirishga, ko'proq boshqalarni eshitishga chanqoq bo'ladi. Gapirganda o'z nutqiga e'tibor beradi, har bir so'zni shoshilmay, dona-dona talaffuz qiladi.

Birovlarning g'ashiga tegish uning tabiatiga yot. U o'zgalar izzatini joyiga qo'yadi, o'zgani o'zidan o'n chandon bilimlir oq ko'radi. Faqat yaqinlariga emas, begonalarga ham mehribon bo'lishga intiladi, zero shafqatli, rahmdil bo'lish odobli kishining sharaflil qismati ekanligini yaxshi biladi.

Yunon tarixchisi Plutarxning "Mehnat qilish – shohona ish" so'zlari uning uchun aytilgandek. U halol mehnat qiladi, aslo manmanlikning yoniga bormaydi. Birovlar yaxshiligini esdan chiqarmaydi, ammo o'zining qilgan yaxshiliklarini unutib yuboradi. Har doim birovga yaxshilik qilishni, yordam berishni istaydi, bordi-yu yaxshilik qilish qo'lidan kelmasa ham, zinhor yomonlikka yuz burmaydi. Chunki, Rasululloh hadisida aytilganidek, birovga yomonlik qilmaslikning o'zi ham bir yaxshilikdir, deb hisoblaydi.

Ko'pchilik qismi ana shunday odobli, ichki madaniyatga boy odamlardan iborat xalq, shubhasiz, madaniyatli xalq sanaladi. "Madaniyat" so'zini umumxalqqa nisbatan qo'llaganimizda, keng qamrovli jahoniy bir tushunchaga duch kelamiz. Bu tushunchaga ko'ra, xalq madaniyati bir necha muhim jihatlardan tashkil topadi. Bular: ona tarix, til, adabiyot, san'at, ilm-fan, yashash tarzi, urf-odatlar, muomala-odob, dunyoqarash, tinchliksevarlik, ezgulik fazilatlari va hokazo.

Demak, bunday xalq o'z tarixini yaxshi biladi, dunyo tarixiga qiziqadi, ona tili va adabiyotining qadriga yetadi, san'atini ulug'laydi, ilm-fan yutuqlaridan xabardor bo'lishga intiladi, kelajakka umid bilan qaraydi.

Madaniyatli xalq, bunday xalqqa mansub inson yashash tarzini tobora yaxshilab boradi. Millat ma'naviyatini buzuvchi tashqi ta'sirlarga berilmaydi. Urf-

odatlarining millat rivojiga xizmat qiladiganlarini asrab qoladi, dunyoga ko‘z-ko‘z etadi, to‘g‘onoq bo‘ladiganlaridan voz kechadi. Boshqa xalqlarga hurmat bilan qaraydi, bir millat yuqori, ikkinchi millat past deyishdan yiroq bo‘ladi.

Bunday xalq, albatta, o‘z qobig‘ida qolib ketolmaydi. Dunyoga nazar solib, boshqa xalqlarning yaxshi urf-odatlarini o‘rganadi, kerak bo‘lsa, ulardan o‘rnak oladi. Bu narsa uni faqat boyitadi. Chunki, yashash – tinimsiz o‘rganish demakdir, dunyo esa buyuk tajribalar maydonidir. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, yurtimiz tarixiga nazar salsak, Birinchi va Ikkinchi Renessans kabi noyob hodisalar avvalo qadimiy va boy madaniyatimizdan oziqlanib, o‘lmas qadriyat va an‘analarimiz asosida vujudga kelganini ko‘ramiz.[2]

Xulosa shuki, xalqimiz, har birimiz madaniyatga shunday intilaylikki, toki kelajak avlodlar bizlardan, ya’ni ajdodlaridan minnatdor bo‘lsinlar, shunday xalqning farzandlari ekanliklaridan faxrlanib yashasinlar.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammad Ali. “Madaniyat nima?” / Kitob dunyosi” gaz., 2012-yil 1-noyabr, № 13.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston madaniyat va san’at sohasi xodimlariga / Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iyat bilan davom ettiramiz. 6-jild, "O‘zbekiston" nashriyoti, 202Z. – B.460.

OLIIY HARBIY TA'LIM MUASSSASALARI — O'ZBEKISTON QUDRATLI ARMIYASINING GAROVI

*Xudayorova Zebuniso Otanazarovna,
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti,
“Gumanitar fanlar” kafedrası katta o'qituvchisi
Erkinov Rahmatillo Ibodillo o'g'li
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti,
4-bosqich 3-bataloni kursanti*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan Oliy Harbiy Ta'lim tashkilotlari va ulardagi ta'lim sifati haqida fikr yuritiladi. Jumladan Chirchiq Oliy Tank Qo'mondonlik Muhandislik Bilim Yurtining ilmiy salohiyati alohida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kadr, harbiy kadr, davlat, mudofaa, ta'lim, harbiy ta'lim, tarbiya, vatanparvarlik, insonparvarlik, sadoqat, davlat dasturi.

Bugungi kunda biz inson huquqlari, erkinliklari va burchlari birlamchi o'ringa qo'yiladigan insonparvarlikka asoslangan Gumanistik jamiyatda yashamoqdamiz. Xalqaro huquq tizimida inson huquqlari obyekt sifatida qaraladi, xalqaro siyosatning subyektlari bo'lmish davlatlar esa o'z boshqaruvini amalga oshirayotganda eng birlamchi vazifa sifatida aynan Inson huquqlarini himoya qilishni bajarishi lozim.

Nima uchun maqolamizni aynan xalqaro maydon va inson huquqlariga bog'lagan holda boshladik...? Sabab oddiy bugungi tobora ziddiyatlar kuchayayotgan, tashqi ta'sir va xavflar sezilarli darajada kundan-kunga oshib borayotgan, mamlakatlar xavfsizligini ta'minlash masalasi o'z dolzarbligini yana bir pog'ona yuqoriga ko'tarayotgan globallashuv davrida inson huquqlariga kafillik qiluvchi, insonning eng birlamchi va ajralmas haqqi hisoblangan yashash huquqini ta'minlash qaysidir mintaq va qaysidir mamlakatlarda tobora imkonsiz holga kelib qolayotgani hech kimga sir emas. Ana endi shunday bir vaziyatda davlatimiz va

hukumatimiz tomonidan yaratilib berilayotgan imkoniyat-u imtiyozlar, erkin namoyon bo‘luvchi haq-huquqlarimiz qadrini anglash uchun ham yuqoridagi masalaga to‘xtalib o‘tish zarurat edi aslida.

Shu o‘rinda muhtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari beixtiyor esimizga keladi: “Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo‘lishni talab etmoqda. Shu borada O‘zbekiston chegaralarining xavfsizligi va daxlsizligini ta‘minlash, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yurtimiz ostonasiga hech qanday balo-qazoni yaqin keltirmaslik kabi hal qiluvchi vazifalar hamisha diqqatimiz markazida bo‘ladi”[1]. Mamlakat o‘z fuqarolariga huquqlarini ta‘minlash kafolatini berar ekan, o‘z-o‘zidan ushbu kafolatga asos bo‘luvchi tayanch bu shubhasiz “Qudratli Armiya” hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasi suverenitetini, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish, urushlar va qurolli mojarolarning oldini olish, zarur bo‘lganda qaytarish uchun davlat tomonidan tashkil etiladi va ushlab turiladi. Qurolli kuchlar o‘z ichiga harbiy birlashmalar, qo‘shilmalar va qismlarni oladi. Mamlakat mudofaasiga va Qurolli Kuchlariga rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy bosh qo‘mondoni, amalga oshiradi. Bir so‘z bilan aytganda

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari tizimiga ilg‘or, har tomonlama bilimli va chuqur ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan yosh ofitser kadrlarni yetkazib berish vazifasini mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan bir nechta Oliy Harbiy Ta‘lim tashkilotlari amalga oshiradi. Shulardan biri bu yil ramziy ma’noda o‘zining 105 yillik yubileyini nishonlayotgan Chirchiq Oliy Tank Qo‘mondonlik Muhandislik Bilim Yurti bo‘lib, ushbu ilm maskani har yili mamlakat mudofaasi uchun xizmat qilayotgan armiyamiz safiga yetuk kadrlar yetkazib bermoqda. Bejizga ushbu Oliy Harbiy Ta‘lim tashkilotini ilm maskani deya atamadim, sababki so‘ngi yillarda bilim yurti rahbariyatining sa’y-harakatlari bilan Chirchiq Oliy Tank

Qo'mondonlik Muhandislik Bilim Yurtining ilmiy salohiyati qisqa muddatlarda ya'ni 2020-yildan bugungi kungacha 1,3% dan salkam 45 %gacha o'sdi. Bunda albatta bilim yurti boshlig'i, dotsent, polkovnik Shavkatbek Xusanbayevich Mamajonov muharrirligida, bilim yurti boshlig'ining o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, h.f.d., professor, polkovnik Sobirjon Sayipjanovich Abdurayimov mas'ul muharrirligi ostida 2020-yil mart oyidan boshlab bilim yurti nashriyoti tomonidan chop etilayotgan "Zirhli qalqon" ilmiy-axborot jurnalining ham o'rni juda katta.

Boisi ushbu ilmiy-axborot jurnali O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalari chop etilishi tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, bilim yurti professor-o'qituvchilari va Harbiy kadrlar o'z ilmiy ishlariga doir ilmiy maqolalarini ushbu jurnalda chop etish kabi qulayliklarga ega bo'ldilar. Ushbu imkoniyatlar o'z o'rnida bo'lajak yosh ofitserlarga ham cheksiz imkoniyat eshiklarini ochmoqda.

Zero harbiy kadr degani faqat jismoniy kuchga tayanuvchi, ilmdan yiroq, faoliyatini faqatgina qurol-aslaha bilan bog'lagan inson siymosi emas. Aksincha harbiy kadr bu ham jismonan, ham aqlan, ham ma'nan barkamol shaxsdir. Modomiki unga eng oliy ne'mat bo'lmish tinchligimiz kafolati ishonib topshirilar ekan uni boshqacha tasavvur etishning o'zi noto'g'ridir.

Harbiy kadrning ilimli va salohiyatli bo'lishligiga diyorimizda qadimdan e'tibor kuchli bo'lgan. Masalan, "Temur Tuzuklari" da ham o'z davrida Amir Temur saltanatining asosini o'n ikki toifadan iborat insonlar tashkil etishi qayd qilinib, unda beshinchi bo'lib tilga olinadigan sipoh esa mamlakat tikligining, mavjudligining asoslaridan biri[2] ekanligi alohida keltirib o'tilgandir.

Bulardan tashqari bilim yurti tomonidan 2021-yilda ilmiy-innovatsion (amaliy-startap) loyihalar bajarilishi nolga teng bo'lgan bo'lsa, 2022- yilda ularning soni 9 ta, 2023- yilning birinchi choragining o'zidayoq bunday loyihalar soni o'ndan ortiq ekanligi yana bir karra ushbu muassasa naqadar tezkorlik bilan ilm sohasida ildamlab borayotganligini ko'rsatib bermoqda. Yana bir misol esa bu 2020- yil

davomida Oliy Harbiy Ta'lim tashkiloti jamoasi tarafidan nashr etilgan maqolalar soni 100 tacha bo'lgan bo'lsa 2022- yil davomida ular naqd yarim mingdan o'tdi. Joriy yilning yakunigacha ilmiy maqolalar mingtadan oshishi kutilmoqda. Bilim yurtida 2021-yilgacha konferensiya, ilmiy-anjumanlar deyarli umuman o'tkazilmagan bo'lsa, bugungi kunga kelib yiliga bunday tadbirlar 50 talab, muntazam ravishda o'tkazib borilmoqda va ularning aksariyati xalqaro miqyosda ekanligi ushbu tadbirlarning ahamiyati va nufuzini qanchalar baland ekanligini tasdiqlamoqda.

Bularning barchasi yangicha qarash va yangicha fikrlash samarasi bo'lib, zamonaviy yondashuv nuqtai nazardan olib qaraganda bunday tizim har taraflama davr bilan bir nafasda harakat qilishga yo'l ochib beradi va zamonaviy armiyamizda ilg'or kadrlarni tarbiyalashga asos bo'lib xizmat qiladi albatta.

Shu o'rinda qayd etish lozimki so'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlar tag zahirida ayni shu masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biz buning isbotini davlat dasturlarida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar Strategiyasi", mamlakatimizni 2022-2026 yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi" va bu yil 11-sentyabr kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan "O'zbekiston-2030" davlat dasturlarida ham ayni masalalarga alohida urg'u berilgan bo'lib, har bir davlat dasturida bitta yo'nalish mamlakat xavfsizligi va mudofaa tizimiga qaratilgan. Taraqqiyot strategiyasida 89 dan 100- gacha maqsadlar[3], O'zbekiston-2030 dasturida esa 90 dan 100-gacha bo'lgan maqsadlar[4] yuqorida biz tilga olgan masalalarga bag'ishlanadi.

Xulosani muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ushbu jumalari bilan yakunlamochiman- "Harbiy xizmat jarayonida har bir yosh askar bilan alohida ish olib borishimiz, ularni avvalo, Jaloliddin Manguberdi va Amir Temur kabi buyuk, jasur ajdodlarimizni munosib vorislari, ona Vatanni haqiqiy himoyachilari etib tarbiyalashimiz darkordir"[5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 2023. 80 -b.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60. <https://lex.uz.28.01.2022>.
3. "O'zbekiston-2030" davlat dasturini amalga oshirish to'g'risida PF-158. <https://lex.uz.11.09.2023>.
4. Mirziyoyev Sh.M., Yangi O'zbekiston strategiyasi.— T., "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
5. Temur tuzuklari-T.: "Hilol Media" nashriyoti, 2019. -145 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, // Yangi O'zbekiston gazetasi. 2022. 30 – avgust, 177 — son, — B.1-2.

HARBIY TA'LIM TIZIMIDA KASBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA MOTIVATSION JIHATLARI

Sa'dullayeva Dono Abdukomil qizi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar

Akademiyasi katta o'qituvchisi

e-mail: Sa'dullayevadono@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy ta'lim tizimida kasbiy madaniyatni shakllantirishning psixologik va motivatsion jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi, stressni boshqarish va motivatsiyaning kasbiy madaniyatni rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Maqola harbiy ta'lim jarayonida psixologik va motivatsion yondashuvlarning integratsiyasi

harbiy xizmatchilarning samarali xizmat faoliyatini ta'minlashda muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Harbiy ta'lim, kasbiy madaniyat, psixologik jihatlar, motivatsiya, stressni boshqarish, Vatanparvarlik hissi, axloqiy qadriyatlar, xizmat faoliyati, integratsiya va samaradorlik.

Harbiy ta'lim tizimi jamiyat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu tizim faqat harbiy bilimlarni emas, balki shaxsiy va kasbiy madaniyatni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyati ularning kasbiy faoliyatidagi samaradorlikni belgilovchi asosiy omillardan biridir. Kasbiy madaniyat esa nafaqat nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning uyg'unligi, balki axloqiy qadriyatlar, yetakchilik qobiliyatlari va ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi. Shu bois, harbiy ta'lim jarayonida kasbiy madaniyatni shakllantirish psixologik yondashuvlarni talab qiladi. Bu jarayon harbiy xizmatchilarda analitik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, stressga bardoshlilikni oshirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, zamonaviy harbiy ta'limda jamoaviy ishlash, kommunikatsiya ko'nikmalari va ijtimoiy intellektni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu jihatdan, harbiy ta'lim tizimi nafaqat professional tayyorgarlik, balki shaxsiy kamolot va ijtimoiy faollikni oshirishga ham xizmat qiladi. Kasbiy madaniyatni shakllantirish jarayonida psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy ta'limda motivatsiyani shakllantirish nafaqat o'quv jarayonining ajralmas qismi, balki harbiy xizmatchilarning kasbiy shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy vazifalardan biridir. Bu jarayon harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga bo'lgan ijobiy munosabati, ularning vatanparvarlik hissi va axloqiy qadriyatlariga asoslanadi. Motivatsiya harbiy xizmatchilarning faqatgina maqsadga intiluvchanligini emas, balki ular murakkab sharoitlarda qat'iy va samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu jarayonda ularning shaxsiy motivatsiyalarini vatan manfaatlari va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish strategik ahamiyatga ega.

Harbiy xizmatchilar faoliyatlarida Vatan himoyasini nafaqat xizmat majburiyati sifatida, balki insoniy va fuqarolik burchi sifatida anglashlari zarur. Ularning ichki motivatsiyasi davlat manfaatlariga bo'lgan sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat va o'z jamiyatining xavfsizligini ta'minlashga intilish kabi omillar bilan mustahkamlanishi kerak.

Shu bilan birga, motivatsiyani shakllantirishda rahbarlar va o'qituvchilarning o'rni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Harbiy rahbarlar o'z shaxsiy namunasi bilan xodimlarni ruhlantirishi, ularda mas'uliyat va jamoaviy birdamlik tuyg'ularini mustahkamlashi muhimdir. Shuningdek, harbiy rahbarlarning kommunikatsiya ko'nikmalari va boshqaruv qobiliyatlari, ularning psixologik yondashuvni qo'llash mahorati motivatsiya jarayonida muhim o'rin tutadi.

Harbiy ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, interaktiv o'qitish metodlari, shuningdek, qiziqarli va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish orqali kursantlarning faoliyatga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga erishiladi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, virtual reallik, simulyatsiyalar, va multimedia darsliklari yordamida o'quv jarayoni yanada jonli va samarali bo'ladi, bu esa kursantlarga murakkab jangovar vaziyatlarni xavfsiz sharoitda sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Interaktiv o'qitish metodlari esa kursantlarning faolligini oshirib, jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, kursantlarda qiziqish uyg'otish uchun darslarning mazmunini hayotiy misollar bilan boyitish va amaliyotga yo'naltirish kerak. Amaliy mashg'ulotlar, jumladan, dala sharoitidagi harbiy tayyorgarlik, taktik mashqlar va strategik rejalashtirish bo'yicha treninglar, nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki kursantlarda muhim qobiliyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Motivatsiyani kuchaytirishda psixologik yordam va stressni boshqarish metodikalarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi[1]. Kursantlarni murakkab va qiyin sharoitlarga psixologik jihatdan tayyorlash uchun maxsus treninglar, maslahatlashuvlar va guruh psixoterapiyasi tashkil etilishi kerak. Bu nafaqat stressga bardoshlilikni oshiradi, balki ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Shuningdek, kursantlarning intellektual va emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bu maqsadda kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar, emotsional intellekt mashg'ulotlari va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi dasturlar amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, o'quv jarayonida liderlik ko'nikmalarini shakllantirish va mas'uliyat hissini oshirishga yo'naltirilgan treninglar o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega.

Barcha yuqoridagi choralar natijasida kursantlar nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi, balki o'z kasbini yanada samarali va maqsadli bajarishga intiluvchi, psixologik jihatdan barqaror va intellektual rivojlangan shaxslar sifatida shakllanadilar.

Motivatsiyaning ilmiy asoslangan tarzda shakllantirilishi harbiy xizmatchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini jadallashtiradi, ularning xizmat sifatini oshiradi va strategik vazifalarni samarali amalga oshirishga zamin yaratadi. Bu jarayonda harbiy xizmatchilarning psixologik holatini tahlil qilish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va individual yondashuvni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, motivatsiyani mustahkamlash uchun zamonaviy metodologiyalar, masalan, motivatsion treninglar, rag'batlantiruvchi dasturlar va kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar joriy etilishi lozim.

Motivatsiya nafaqat individual darajada, balki jamoaviy birlikni mustahkamlash orqali ham rivojlantiriladi. Jamoa ichidagi sog'lom muhit, o'zaro hurmat va hamkorlik, shuningdek, muvaffaqiyatlar va yutuqlarni tan olish kabi omillar xodimlarning xizmatga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Rahbarlar tomonidan adolatli baholash tizimi va rag'batlantirish choralari ham motivatsiyani oshirishda muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari, motivatsiyani shakllantirish jarayonida davlatning strategik maqsadlari va milliy xavfsizlik tamoyillari bilan uyg'unlikni ta'minlash zarur. Harbiy xizmatchilar o'z faoliyatlarining milliy manfaatlar va jamiyat xavfsizligini ta'minlashdagi muhim o'rnini anglashlari uchun maxsus ma'ruzalar, seminarlar va targ'ibot ishlarini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy asoslangan motivatsion yondashuvlar harbiy tuzilmalarning umumiy samaradorligini oshirish, milliy xavfsizlik darajasini mustahkamlash va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat harbiy xizmatchilarning shaxsiy yutuqlariga, balki davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, motivatsiya jamiyatda harbiy xizmatga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy g'urur tuyg'usini oshirishga ham xizmat qiladi.

Harbiy ta'lim tizimida kasbiy madaniyatni shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, psixologik omillar bu jarayonning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Kasbiy madaniyat nafaqat harbiy xizmatchilarning bilim va ko'nikmalarini, balki ularning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Motivatsiya, psixologik moslashuv, kommunikativ ko'nikmalar va ruhiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Harbiy xizmatchilar murakkab sharoitlarda tezkor qaror qabul qilish va samarali harakat qilish uchun yuqori darajada psixologik chidamlilikka ega bo'lishlari zarur.

Shu bois, harbiy ta'lim jarayonida integratsiyalashgan va tizimli yondashuvni joriy etish zarur. Bu jarayon o'z ichiga nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni, shaxsiy tarbiyaviy faoliyatni hamda psixologik va jamoaviy treninglarni qamrab oladi. Interaktiv o'qitish metodlari, jumladan, simulyatsiya texnologiyalari va jamoaviy muhokamalar, harbiy xizmatchilarni murakkab jangovar vaziyatlarga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy madaniyatni shakllantirishda rahbarlarning namuna ko'rsatishi va samarali yetakchilik qilish malakasi katta ahamiyat kasb etadi. Harbiy rahbarlar tomonidan xodimlarga adolatli yondashuv, ularni rag'batlantirish va kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash muhitni yanada mustahkamlaydi.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish faqat individual darajada emas, balki jamoaviy birlikni shakllantirish orqali ham amalga oshirilishi lozim[2]. Jamoaviy hamkorlik, o'zaro hurmat va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish orqali

nafaqat harbiy xizmat samaradorligini oshirish, balki jamiyat xavfsizligini ta'minlashda ham salmoqli hissa qo'shiladi. Bu nafaqat harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligini, balki ularning ma'naviy kamolotini ham ta'minlaydi. Natijada, kasbiy madaniyatni shakllantirish orqali harbiy ta'lim tizimi nafaqat milliy xavfsizlikni mustahkamlash, balki yoshlarda vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyati kabi yuksak qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanov M. (2021). Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. *Общество и инновации*, 2(9/S), 338-341.
2. Ziyomhammadov B. *Pedagogika. O'quv qo'llanma*. Toshkent, 2006-yil.

YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Xudoykulov Alisher Obloqulovich
mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya: Yoshlarga zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya berish, ularda sog'lom bilim, keng dunyoqarashi va mustaqil fikrlashni shakllantirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Mazkur maqolada vatanparvarlik fenomeningi jamiyat rivojlanishi borasida muhim safarbar etuvchi kuch sifatidagi mazmun-mohiyati ochib berilmoqda.

Kalit so'zlar: yoshlar, Vatan ravnaqi, harbiy vatanparvarlik tuyg'usi, tarbiya, barkamol avlod, vatanparavarlik tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, muhabbat – burch – fidoyilik.

Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama

rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni

Vatan ravnaqi g'oyasi Vatanga daxldorlik hissi mazmunini, har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir. U milliy istiqbolning oliy maqsadi O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi.

Har qanday davlat o'z istiqbolini sog'lom va barkamol avlod timsolida ko'radi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yoshlarga zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya berish, sog'lom, bilim va dunyoqarashi keng, mustaqil fikrga ega bo'lgan, vatanparvar avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi"[1].

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarning vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha davlat dasturlari, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish konsepsiyalari qabul qilingan, yoshlarning vatanparvarlik borasidagi tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi va davlat tomonidan moliyalashtiruvchi ko'plab jamoat tashkilotlari tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan mamlakatimizning harbiy sohadagi davlat siyosati,

Qurolli Kuchlarimizning mudofaa salohiyatini oshirish borasidagi islohotlarning yangi bosqichi boshlab berildi. Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni harbiy xizmatchilar bilan suhbatlashib, mansabdor shaxslarning hisobotlarini eshitar ekan, sohada ko'p yillar davomida yig'ilib qolgan jiddiy, tizimli muammolarni ham ko'rsatib o'tib, "Bular – kadrlar masalasi, qo'shnlarni zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minlash, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, yoshlar va harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga taalluqli muammolardir"[2], deb ta'kidlagan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiya"si qabul qilindi. Konsepsiyaning 2-bob 6-bandida yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafligi va muqaddas burch ekanligini singdirish, tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudratini va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish masalasi aks ettirilgan.

Ma'lumki, mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Bu borada yoshlarning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylari tashkil etilgani, ularni buyuk ajdodlarimizga munosib avlod etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda oldimizda turgan eng dolzarb vazifa bu mustaqillikni asrash, xalqimiz tinchligini, osoyishtaligini saqlashdir. Tarixda yurt ozodligi, mustaqilligi yo'lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur va Bobur kabi

milliy qahramonlarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish ularda vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish va vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi.

Tarixiy, maʼnaviy va madaniy meros obyektlari Oʻzbekiston xalqining noyob xazinasini hisoblanadi. Mazkur boylik nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodning ham bebaho mulkidir. Ushbu boy merosni asrab-avaylash, uni keng targʻib qilish, yoshlarimizni tariximizga nisbatan faxr-iftixor, Vatanga muhabbat tuygʻusini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababdan, yoshlarni tarbiyalashda tarixiy, maʼnaviy va madaniy merosimizdan unumli foydalanish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Darhaqiqat, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi umummilliy vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki vatanparvar boʻlmagan inson oʻz yurti, oʻz xalqi uchun qaygʻurmaydi, jonini fido qilmaydi. Zero, oʻzbek maʼrifatparvari Abdulla Avloniy taʼkidlaganidek: – “har bir kishining tugʻilib oʻsgan shahar va mamlakatini shu kishining Vatani deyilur”. Har kim oʻz Vatani sevishi, uni ulugʻlashi, taraqqiyoti uchun qaygʻurishi, tinchligi, xavfsizligi uchun kurashmogʻi uning vatanparvarligidan dalolat beradi.

Hozirgi globallashuv jarayoni yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning anʼanaviy va zamonaviy usullaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bular quyidagi usullardan iborat.

1. Targʻibot usuli. Vatanparvarlikning tarbiyaviy-axloqiy mazmuni va bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish hisoblanadi. Shu bois harbiy vatanparvarlik tuygʻusini yoshlarga sodda, loʻnda qilib tushuntirib berish, ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va joʻshqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat.

2. Jamoaviylik usuli. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizning umumiy jangovar shayligi birlashma, qoʻshilma, qism va boʻlinmalarning jangovar shayligi darajasi bilan belgilanadi. Harbiy boʻlinmalar oʻz ichki tuzilmasiga koʻra, faoliyat yuritishi qatʼiy belgilangan ijtimoiy guruhni ifodalab, harbiy xizmatchilarning

umumiy majburiyatlari va ular o'rtasidagi harbiy xizmat munosabatlari, ichki tartib-qoidalari, mansabdor shaxslarning majburiyatlari, kundalik hamda maishiy sharoitlar, harbiy xizmatchilarni ishga joylashtirish, ichki xizmatni olib borish masalalari Intizom hamda Ichki xizmat Nizomlarining asosiy holatlarida qat'iy belgilab berilgan.

3. An'anaviylik usuli. Harbiy an'ana armiyada harbiy xizmat jarayoni jangovar vazifalarni bajarish, shaxsiy tarkibni tayyorlash, harbiy xizmatchilarning kundalik turmushi bilan bog'liq bo'lgan, tarixan shakllangan, avloddan avlodga o'tuvchi g'oya, qoida, urf-odat, xulq-atvor me'yorlarida namoyon bo'ladi. Qurolli Kuchlarda harbiy an'analar tizimi harbiy faoliyatning asosiy uch sohasini: jangovar an'analar; harbiy turmush an'analari; ta'lim-tarbiyaviy an'analarni qamrab oladi.

4. Qadriyatlar ustuvorligi usuli. Harbiy xizmatchilarda milliy qadriyatlarga, ilg'or an'analarga, axloqiy tamoyillarga, yuksak madaniyatga sodiqlik kabi insoniy fazilatlarni hosil qilmasdan turib vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirib bo'lmaydi. Chunki O'zbekistonning qariyb 33 yillik mustaqil taraqqiyot yo'liga nazar tashlansa, vatanparvarlikni ro'yobga chiqarish, mard va jasur avlodni voyaga yetkazishga oid keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganini ko'rish mumkin. O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi ham Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligiga befarq bo'lmagan avlodni shakllantirishdan iborat. Bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar pragmatik asos bo'lib xizmat qiladi.

5. Zamonaviylik usuli. Qiyinchiliklar, to'siqlar, nomutanosibliklar, hatto jinoiy harakatlarning oshib borishi ham sof vijdonli kishi qalbida Vatan tuyg'usini, agar u chuqur e'tiqodga aylangan bo'lsa, o'chira olmaydi. Rang-barang maqsad va manfaatlarga ega ijtimoiy guruhlar mavjud ekan, umummaqsadni turlicha, goho bir-biriga zid tarzda idrok etish ham saqlanib qoladi. Yangi avlodlarning tug'ilishi, hayot sahnasiga chiqishi jamiyat oldiga muammolarni ko'ndalang qo'yaveradi; aynan ushbu uzluksizlik, tadrijiylik ijtimoiy hayotning ham uzluksiz, tadrijiy davom etishini ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, Vatanni sevish va asrash tuyg'ularini shakllantirish axloqiy ehtiyojga aylandi. Bugungi

kunda bu davlat siyosati markazida turadi. Bu ehtiyojni esa ma'naviy-axloqiy meros vositasida qondirish samarali natija berishi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, vatanparvarlik xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi. U mehr-oqibat, Vatan taqdiri uchun qayg'urish, tashvish va falokatlarga hamdardlik kabi axloqiy fazilatlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, harbiy-vatanparvarlik umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas bo'lagidir. Harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini yoshlar qalbiga singdirish O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda harbiy-vatanparvarlikning o'rni va ahamiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishda harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat mafkuraviy asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga bog'liq ekanligiga e'tibor berish zarur. Bu borada, harbiy-vatanparvarlikning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish bilan bog'liq ma'rifiy ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunday tadbirlar yosh xodimlarni haqiqiy vatanparvar qilib tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, vatanparvarlik faqat insonga xos xususiyat bo'lib, ma'no-mazmuni jihatidan ma'naviy fazilatlar turkumiga kiradi. Uning axloqiy asosini muhabbat – burch – fidoyilik o'rtasidagi o'zaro dialektik bog'langan ijtimoiy-ma'naviy faoliyat tashkil etadi.

Shuningdek, yoshlarning faol hayotiy pozitsiyasini mustahkamlash, intellektual salohiyatini yuksaltirish, ona Vatan taqdiriga bo'lgan mas'uliyatini oshirish hamda g'oyaviy va turli axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish davr talabidir.

Shu bilan birga, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqimizning ming yillar davomida shakllanib va rivojlanib kelayotgan milliy mentalitetiga, ajdodlarimizning tarixiy asarlariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, ming yillar mobaynida shakllanib rivojlanib kelayotgan ma'naviyatimizga asoslanishimiz muhim o'ringa ega. Bu esa o'z navbatida yoshlarimizda Vatan ravnaqiga to'siq bo'ladigan harakatlarga yo'l qo'ymaslik,

ularga nisbatan murosasiz bo‘lish ham Vatanga muhabbat hissini kamol toptirishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir” – 2017-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevral kuni tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiya” Vatanparvar gazetasi – 2018-yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” – 2021-yil.

HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHNING IJTIMOIIY, HUQUQIIY HAMDA FALSAFIIY TAXLILI

Normetov Tohirjon Xamitovich

*Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik
bilim yurti, “Gumanitar fanlar” kafedrasi
katta o‘qituvchisi, dotsent*

Annotatsiya: Maqolada harbiy xizmatchilarni ijtimoiy, huquqiy tarbiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni, bugungi kunda zamon talablariga javob beradigan harbiy xizmatchilarni tayyorlashda jamiyatimiz oldida turgan vazifalar va ularni amalga oshirishning chora-tadbirlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, ijtimoiy, huquqiy, tarbiya, kasbiy madaniyat, oilaviy tarbiya, globallashuv, milliy ong, milliy qadriyat.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida intizomni mustahkamlashda, avvalambor keyingi yillarda muhtaram Prezidentimiz, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

boshchiligida davlatimizda o'tkazilayotgan xalqimiz osoyishtaligi va farovon turmushi, Vatanimiz tinchligi va taraqqiyoti, mustaqilligimiz barqarorligi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar va bu islohotlarning Qurolli Kuchlarimizdagi, shu jumladan harbiylar hayotidagi ahamiyatiga ega.

Davlatimizning harbiy salohiyatini yuksaltirishda amalga oshirilayotgan qator ijobiy ishlar, harbiy xizmatchilarning yashash va xizmat qilishi uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, ularga berilayotgan imtiyozlar va oila a'zolarining ijtimoiy himoyalaniishi shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida jahon hamjamiyatiga kirib bordi. Jahon siyosiy xaritasida yangi suveren mustaqil davlat qonuniy jihatdan mustahkamlandi. Endi mustaqil davlatimiz, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, hamda harbiy sohalarining mustahkam asoslarini yaratishga qaratilgan aniq vazifalarni bajarishga alohida e'tibor berdi. Bu kabi ezgu ishlarni amalga oshirishda Davlatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash muhim va ustuvor masalalardan biri bo'lib sanalardi. Albatta bu kabi sharaflı vazifa va buyuk ishlarni amalga oshirish, hududimiz sarhadlari daxlsizligini saqlash va mustahkamlash esa, Vatanimizning temir qalqonlari bo'lmish harbiy kadrlarimiz zimmasidadir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda harbiy kadrlarimizning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda, tajribalarini oshirishda, ma'naviy-ruhiy saviyasini shakllantirishda, boshqa omillar qatori milliy g'oyaning ta'sir doirasi juda keng bo'lib, bu borada uning tutgan o'rni beqiyosdir. Agar davlatimiz birinchi Prezidenti marhum I.Karimov ta'biri bilan aytadigan bo'lsak "Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun, fidoyilik bilan kurashishi mumkin".[2]

Darhaqiqat, XXI asr bo'sag'asida komil ishonch bilan aytishimiz mumkinki, respublikamiz yangilanish va yaratish, buyuk taraqqiyot sari intilish yo'lidan shaxdam qadam qo'yib olg'a intilmoqda. Bu masalada asosan kadrlar masalasini hal etish va shuningdek, tinchlik va barqarorligimiz bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz

salohiyatini yanada oshirish, professional harbiy kadrlarni tayyorlash, ularni nafaqat eng oxirgi rusumdagi harbiy texnikalar bilan ta'minlash, zamonaviy qurol-yarog'lar bilan qurollantirish, balki ularda yuqori darajadagi vatanparvarlik g'oyalarini singdirish, kasbiy ko'nikma va malakalarini professional darajada shakllantirish zarurdir. Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonimizning 2023-yil 13-yanvar kuni O'zbekiston Qurolli Kuchlarining 32 yillik bayramiga bag'ishlangan murojaatlarida Qurolli Kuchlarimizning salohiyati va kuch-qudratini yuksaltirishga e'tiborni yanada kuchaytirishni, bu borada eng muhim ahamiyat kasb etadigan vazifalarni belgilab berdilar.[2]

Albatta bayram tabrigida bildirilgan fikrlar va mulohazalar Mudofaa vazirligi, Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi oldida jangovar shaylik, qo'shinlar tayyorgarlik darajasini yanada oshirish, hamda Prezidentimiz boshchiligidagi professional, xar tomonlama ta'minlangan, tezkor va ixcham armiyamizni shakllantirishda islohotlarni amalga oshirishni davom ettirar ekanmiz, avvalambor armiyamizda mustahkam harbiy intizomga ega, qonunlarimizga, shu jumladan umumharbiy nizomlarimizga hurmat bilan qaraydigan harbiy xizmatchilarni shakllantirishimiz zarur.

Shuning uchun biz professional armiyaga to'laqonli o'tishni oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunda asosan harbiylarning soni emas, balki, sifat ko'rsatkichlari va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasiga, Vatan sha'ni- shavkati hamda uning istiqbolini yuksaltirish uchun ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qadriyatlarga amal qilish va shuningdek insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyalari qay darajada singdirilganligiga qarab baho beriladi. Chunki Qurolli Kuchlar jangovar salohiyatining asosiy ko'rsatkichlari bu qo'shinlarning bilim va malakalariga, har qanday vaziyatda ham belgilangan vaqtda harbiy harakatlarni boshlashga tayyorgarligi, jangovar qobiliyati va shayligi, hamda qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga qodirligidir.

Milliy g'oya xalq va millatni harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. G'oya o'tmish saboqlariga tayanib, hozirgi kun ehtiyojlari va imkoniyatlarini har tomonlama tahlil etish asosida istiqbolni chuqurroq, aniqroq anglashga imkon

beradigan, jamiyat taraqqiyotining asosiy, muhim yoʻnalishlarini ifodalaydigan, odamlar faoliyatini muayyan, moʻtadil maqsadlar va manfaatlar asosida birlashtiradigan, ilmiy asoslangan amaliy ehtiyojlar bilan taqozo etilgan umumiy fikrlarlar, qarashlar, xulosalar, maqsadlar tizimidir. Gʻoya hal etilmagan, etilishi lozim va zarur boʻlgan muhim muammolar, vazifalar tizimini oʻz ichiga oladi va asosan istiqbolga yoʻnaltirilgan boʻladi. Gʻoya mohiyatan muhim, moʻtadil, nisbiy barqaror boʻladi, shu bilan birga jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlari va imkoniyatlar asosida rivojlanib, oʻzgarib yangilanib turadi. Birinchi Prezidentimiz gʻoyani, “odamlarning ming yilliklar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni paytda shu xalq, shu millatning kelajagini koʻzlagan va uning dunyodagi oʻrnini aniq ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun oʻrtasida koʻprik boʻlishga qodir boʻlgan” maʼnaviy kuch deb taʼriflagan. Harbiy xizmatchilarda milliy gʻoyani shakllantirishda, Oʻzbekiston xalqining milliy taraqqiyot yoʻlidagi bosh gʻoyasi, yaʼni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish gʻoyasidan kelib chiqish lozim.

Sir emaski bugungi kunda davlatlar, baʼzi millatlar va arim guruhlarining oʻrtasidagi asosiy kurash mafkura poligonlariga koʻchdi. Bunda oddiygina reklama roliklari, bolalar multfilmlaridan tortib, OAV barcha turlari foydalanilmoqda. Shu maʼnoda Qurolli Kuchlarimiz ofitserlari bu oʻziga xos gʻoyaviy taʼsir koʻrsatish vositalariga ham alohida eʼtibor qaratishlari lozim. Chunki, bugungi kunda ilgari surilayotgan har bir gʻoya zahirida biror bir maqsad yashiringan boʻlib, oʻz tarafdorlarini “jamlash” maqsadida yoshi, qiziqishlari umumiy tarzda inobatga olingan holda, yaratilgan mahsulotlarni targʻibot qilish bilan roʻkach qilinib vayronkor biror bir gʻoya qahramonlarning xatti-harakatida ifodalanishi bilan targʻib etiladi. Shu bilan birga, aynan yuqorida koʻrsatilgan axborot vositalari yordamida davlat va jamiyatimizga zarar yetkaziladigan, yaʼni xalqimizning olib borilayotgan islohotlarimizga salbiy munosabatini shakllantirishda shov-shuvli xabar sifatida vayronkor gʻoya ilgari surilishi mumkin.

Harbiylarcha taʼkidlamoqchi boʻlsak, bu oʻziga xos zamonaviy toʻqnashuvlarning bir koʻrinishi boʻlib ilmiy adabiyotlarda “psixologik”,

“mafkuraviy”, “axborot” urush yoki to‘qnashuvlari deb ataladi. Harbiy psixologik adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, zamonaviy urush yoki to‘qnashuvlar o‘zining ayrim xususiyatlari bilan farqlanib, qo‘llanayotganlar uchun juda qulay hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilarimiz ongiga ofitserlarimiz tomonidan bu masala, ya’ni g‘oyaviy kurashlarning salbiy va buzg‘unchilik tomonlari aniq va misollar asosida tushuntirib berilsa, bizning Qurolli Kuchlarimiz uchun g‘oyaviy hujumlarning ta’siri o‘z kuchini yo‘qotib, askarlarimiz yuksak jasorat ko‘rsatib, o‘z burchlarini sharaf bilan bajara oladilar.

Ta’bir joiz bo‘lsa shuni ta’kidlash o‘rinliki, davlatimiz birinchi Prezidenti I.Karimov buyuk sarkarda va bobokalonimiz Amir Temurning “Kuch adolatdadir” degan fikrini rivojlantirib “Kuch bilim va tafakkurda” degan hikmatli fikri, barcha soha mutaxassislari kabi professional harbiy kadrlarni g‘oyaviylik asosida tayyorlashda, ularning faoliyatini muvofiqlashtirishda va aniq maqsad sari yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. .[3]

Xulosa qilib shuni aytish joizki ya’ni professional harbiy kadrlarni tayyorlashda g‘oyalarning asosiy ikki yo‘nalishi ya’ni bunyodkorlik va vayronkorlik g‘oyalarning aniq maqsadlari, mazmun mohiyati va ularning o‘ziga xos tomonlari, o‘xshashligi, turlari, tamoyillari, farqi va shuningdek, ular ortida yashiringan harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jihatlarining o‘ziga xos tomonlari va chegara chiziqlari qayerdan boshlanib, qayerda tugashi haqidagi ma’lumotlar kengroq berilib borishi hamda o‘rgatilayotgan bilimlar ilmiy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, hayotiy tajribaga asoslangan holda olib borilishini lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqib ta’kidlamoqchimanki, Qurolli Kuchlarimizda intizomni mustahkamlash va jinoyatchilikni oldini olish borasida har bir harbiy xizmatchi o‘z hissasini qo‘shishi, shu maqsadda Vatan, xalq oldida javobgarliklarni his etgan holda sidqidildan harbiy xizmatni o‘tashi, davlat mulklarini asrab avaylashlari, amaldagi qonunchilikka nisbatan bo‘lgan hurmat ehtiromlari bilan fuqarolar va yoshlarga o‘rnak bo‘lishi, harbiy nizomlar, komandirlar va boshliqlarning buyruqlarini so‘zsiz bajarishi armiyamizda yuksak harbiy intizomni

yaratishimizga va sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olishdagi ishlarimizning muhim omili bo'lib xizmat qiladi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlari:

1. I.Karimov: "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". 1998y –b 147
2. Sh.Mirziyoyev "Vatan himoyachilariga yo'llagan bayram tabrigi". 13.01.2021yil
3. Temur tuzuklari. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyoti- matbaa ijodiy uyi.100011, -T.: Navoiy ko'chasi 30

HARBIY KADRLAR KOMPETENTLIGINING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Xudayorova Zebuniso Otanazarovna,

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti,

"Gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Xaydarov Abdulaziz Abdug'affor o'g'li

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti,

3-bosqich 4-bataloni kursanti

Annotatsiya: Maqolada ta'lim tizimida bugungi davrda eng ahamiyatli bo'lmish kadrlar kompetentligi masalasi yoritilgan bo'lib, kasbiy kompetentlik va uning sifatli pedagoglar avlodini tarbiyalashdagi o'rni hamda ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari davlat dasturlari talablarini bajarishda yuqori samaradorlik kasb eta oladigan kadrlar faoliyatida psixologik kompetentlikning dolzarbligi ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanilgan holda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, raqamlashgan jamiyat, kasbiy kompetensiya, psixologik kompetentlik, aksiologiya, pedagogik tayyorgarlik, kadr, inson omili, pedagog, Davlat dasturlari.

Bugun zamon taraqqiyoti jadal suratlarda o'sib borar ekan, har bir soha vakillariga o'z-o'zini rivojlantirishi dolzarb vazifa bo'lib bormoqda. Insonni har tomonlama tarbiyalash va ta'lim berish insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Ta'lim-tarbiya ishi bilan mashg'ul bo'lgan pedagogining faoliyati ta'lim uchun sharoit yaratishga, o'quv jarayonida shaxsning ehtiyoj va iste'dodini shakllanishiga yo'llangan bo'lishi kerak. Ya'ni, pedagog faoliyati doimo quyidagi didaktik masalalarni yechishga qaratiladi: "nimani o'qitish kerak?", "kimni o'qitish kerak?" va "qanday o'qitish kerak?"

Bu savollarga to'g'ri yechim topish, u yoki bu vaziyatlardan pedagogik maqsadga muvofiq yo'l topa olish pedagogidan yuksak mahorat va chuqur kasbiy bilimni talab etadi. Bu muammolarning yechimi pedagogik psixologiya fani asosiy qonunlarini bilishga asoslanadi.

O'qituvchilik kasbi ulug' va sharaflı, murakkab, o'z o'rnida mas'uliyatli kasblardan biridir. Dunyodagi barcha insonlarni komil shaxs bo'lib yetilishiga o'qituvchi sababchi bo'ladi. Barcha joylardagi hamma kasb-hunarli, ilimli, olim- u fuzalolar o'qituvchining mehnati samarasidir. O'qituvchi mehnatini biror narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. O'qituvchilik kasbini egallashga intilayotgan har bir inson o'zida avvalo iroda, sabr-matонат, pedagogik mahoratni, o'qituvchilik ixtisosligiga xos bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashi lozimdir.

Hayotimizga 2003-yildan boshlab ta'lim sifati muammosini o'rganish (umumiy, kasb-hunar va aspirantura) sharoitida "kompetensiya" atamasi tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Shunday qilib, 2003-yildan 2006-yilgacha bo'lgan davrda zamonaviy rus olimlari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi konsepsiyasini sezilarli darajada boyitib, kundalik hayotga "kompetensiya" dan ko'plab hosilalarni: "kompetensiya yondashuvi", "kompetensiya paradigmasi", "vakolat modeli", "asosiy vakolatlar" ni kiritdilar. " va boshqa masalalar kirib keldi[1].

Shunday qilib, yangi asrning boshidan boshlab o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoni umuman ta'lim sifatini va xususan, kasb-hunar, pedagogik ta'lim sifatini yaxshilash sharoitida ko'rib chiqilmoqda. Oliy ta'lim tizimida ta'limga yangi yondashuvlar, bilimlarning yangi tarmoqlari (akmeologiya, aksiologiya va boshqalar) paydo bo'lishi faqat shu davrning alohida tadqiqotlarida aks etadi

Hozirgi kunda Ta'lim-tarbiya jarayonlarida maxsus tayyorlangan kadrlarga talab ortib bormoqda, ayniqsa ushbu kadrning kasbiy kompetentligi juda ahamiyatli bo'lib bormoqda.

Sababi ta'lim-tarbiya jarayonlarida pedagogning maxsus tayyorgarligi, ilmiy salohiyatligi, kasbiy kompetentlikka ega ekanligi, psixologik barqarorligi, bilim, malaka, ko'nikmalarining natijadorligi ta'lim sifatining yuqori bo'lishiga asos vazifasini o'tay oladi va albatta mana shunday kadrlar bilangina Yangi O'zbekistonni qura olamiz.

Shu o'rinda mavzuyimizning asl mag'zi ya'ni o'zagi bo'lmish kompetentlik masalasiga to'xtalib o'tsak. "Kompetentlik" tushunchasi ingliz tilining "comtence" so'zidan olingan bo'lib, bizning tilda "qobiliyat" ma'nosini anglatadi.

Xo'sh endi savol tug'iladi, "Kasbiy kompetentlik" nima?

Kasbiy kompetentlik bu ushbu kasb egasining o'z sohasida yuqori salohiyat chuqur bilim bilan bir qatorda o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda qobiliyatli bo'lishini anglatadi. Ya'ni biz buni pedagogik soha bilan bog'lasak quyidagi ma'noni anglash mumkin bo'ladi- pedagog o'z faoliyati davomida yuksak darajada kasbiy malaka, mahorat va iqtidor egasi bo'lib, uning kasbiy kompetentligi bu "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik" ini anglatadi.[2]

Kompetensiya muammosi va uning turlari nafaqat bizda balki MDH mamlakatlari olimlarining ham tadqiqot mavzusi bo'lib kelmoqda.

Kompetensiyaning turlarini tasniflanishiga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, N.A. Muslimov va M.B. O‘rozovalar kasbiy ta’lim nuqtayi nazaridan kompetensiyalarni 5 turga ajratadi:

Maxsus kompetensiya — yetarli yuqori darajada o‘z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalash.

Ijtimoiy kompetensiya — kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o‘z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik.

Shaxsiy kompetensiya — shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallash.

Individual kompetensiya — kasb doirasida individuallikni mustaqil qo‘llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o‘sish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil rehabilitatsiya qilishga tayyorlash.

Asosiy kompetensiyalar — moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning madaniyatlar va sohalararo bilim, qobiliyat, ko‘nikmalaridir[3].

Yana bir guruh mutaxassislarining ilmiy ishlarida esa kasbiy kompetentlikning belgilari quyidagicha yoritiladi:

Ijtimoiy kompetentlik- ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalarga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar muloqotga kirisha olish;

Maxsus kompetentlik- kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMlarni izchil rivojlantirib borish, ushbu kompetentlik psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ ko‘zga tashlanadi;

Shaxsiy kompetentlik- izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda;

Texnologik kompetentlik-kasbiy-pedagogik BKMning boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;

Ekstremal kompetentlik- favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayonlar ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Kasbiy kompetentlik deganda mutaxassis dunyoqarashining kengligi, uning ishbilarmonlik mahorati va shaxsiy sifatlari, bilim, ko‘nikma hamda malakalariga suyanan holda to‘g‘ri qarorlar qabul qila olishi tushuniladi. Oliy ta‘lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi takomillashuvida nazariy tayyorgarliklar bilan birga amaliy tayyorgarliklar uzviyligi ta‘minlanishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligi tashkiliy jihatdan qanday shakl va metodlarda bo‘lmasin, quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi:

1. Nazariy va amaliy bilimlar uzviyligi;
2. Kasbiy bilim va ko‘nikmalarni tizimli tarzda takomillashtirib borishi;
3. Bo‘lajak kasbiy-pedagogik faoliyat bilan funksional bog‘liqlik;
4. Talabalar amaliy faoliyatining ko‘rgazmaliligi;
5. O‘z kasbiy faoliyati yuzasidan bosqichma-bosqich mustaqil faoliyat yurgizishga intilish va mas‘uliyat hissini shakllanishi;
6. Bo‘lajak o‘qituvchilarda nazariy va amaliy bilimlar hamda ko‘nikmalarini takomillashishi natijasida kompetensiyani shakllanishi va rivojlanishi.

Kasbiy kompetentlik ta‘rifiga izoh berilganda albatta pedagogik kompetentlik va uning mazmun-mohiyati ham yoritib ketilishi lozim.

Pedagogik kompetentlik (lot. kasbiy moslik) – pedagogidagi ijodiy imkoniyatlarning yanada kengroq tasarruf etilishi, kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni yosh mutaxassislarga yetkazish, ular bilan pedagogik muloqotga kirishish mahorati bo‘lib hisoblanadi.

Mazkur pedagogik masala dolzarbligini e‘tirof etgan holda uning nazariy jihatdan o‘rganilganligi borasida fikr yuritamiz. Pedagoglik kasbi o‘zida yuksak ijtimoiy mas‘uliyatni aks ettirganligi bois, bu borada bildirilgan ilmiy fikrlar, g‘oyalar va nazariyalarning ildizi qadim moziyga borib taqaladi.

Pedagogik faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat rivojini ta‘minlovchi kuch hisoblanib, unga katta mas‘uliyat yuklangan. Pedagog o‘zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotkorlik bilan yondashishi, buning uchun o‘zi o‘qimishli, bilimdon, ijtimoiy fanlar asosini mukammal egallagan, madaniyatli inson va o‘z shogirdlari uchun o‘rnak bo‘lishi va ularni sinchiklab o‘rganishi lozim

Pedagogning kompetentligi – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O‘z sohasini, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir. Pedagogik kompetensiyaning shakllanish bosqichlari:

1. Qobiliyatni aniqlash,
2. Tarbiyalash va shakllantirish,
3. Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish),
4. Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish),
5. Rahbarlik cho‘qqisi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, bu tamoyillarining barchasi kelajakda o‘qituvchi kasbiy-pedagogik kompetensiyasining nazariy-ilmiy, amaliy funksional, pedagogik-psixologik takomillashuvi omillaridan hisoblanadi. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish orqali ta’lim va tarbiya jarayonini zamon talabiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

O‘qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimida asosiy o‘rin egallagan malaka oshirish o‘quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo‘nalishlar berishga imkon beradi. Hozirgi davr o‘qituvchidan o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiya talablarini to‘g‘ri tushunish, tashabbuskorlik, o‘z fani bo‘yicha yangiliklardan xabardor bo‘lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do‘stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, fan o‘qituvchilari va maktab rahbariyatining egallagan bilim, ko‘nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. Muallim qalb me’mori “O‘qituvchi” 2001-y.
2. Quchqarova M.N. “Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativlik” -T.: 2022-y

3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. — T.: Nizomiy nomli TDPU, 2005 y, 149 b.

4. Karimova B. “Ta’lim muassasasiga rahbarlik qilishning boshqaruv madaniyati. pedagogik menejmentda kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish” 2023-y.

5. Axmedova M. “Pedagogik kompetentlik”, -T.: 2018-y.

6. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013-y.

7. Mamatqulova Sh.O‘. “Yosh pedagoglarning psixologik-pedagogik kompetentligini shakllantirishning nazariy jihatlar” -T.: 2022-y.

SERGAK VA HUSHYOR BO‘LISH - BARCHAMIZNING BURCHIMIZDIR!

Mirzaakbarov Baxrom Turamirzayevich,

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik va muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘nggi yillarda jahonning bir qator mamlakatlarida yuz berayotgan tashvishli holatlar o‘nglab bo‘lmaydigan darajada salbiy oqibatlarga olib kelayotganligi, eng achinarlisi, bu fojiali voqealarni tashkil etayotgan yovuz kuchlar din omilidan ustomonlik bilan foydalanayotganliklari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ekstremizm, terrorizm, separatizm, radikal, mutaassiblik, aqidaparastlik.

“Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg‘unchi yot g‘oyalar bilan zaharlanishga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma’rifat o‘rnini jaholat egallashga yo‘l qo‘ymaymiz”.

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Manbalar ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalishidan dalolat beradi. Shunday bo'lsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va jamiyat taraqqiyoti uchun bugungidek tahdid solmaganini qayd etish lozim. Zero, hozirda ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda, ko'plab begunoh insonlarning hayotdan bevaqt ko'z yumishlariga sabab bo'lmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish, unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylanganini e'tirof etish joiz. Darhaqiqat, XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va butun xalqaro munosabatlar tizimining tubdan o'zgarishi, xavfsizlikka tahdidlar doirasining kengayishi, xususan, ekstremizm, radikalizm va xalqaro terrorizmning kuchayishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ekstremizm sohasidagi tahdidlar transmilliy xarakterga ega bo'lib, u o'z xavfining ko'lami bo'yicha butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Bu faqat mahalliy yoki mintaqaviy muammo bo'lib qolmay, paydo bo'lishi va rivojlanish xususiyatlari, maqsad va vazifalari, tashkiliy tuzilishi va faoliyati, psixologik va ijtimoiy shakllari jihatidan global hodisaga aylangan. Ekspertlarning xulosalariga ko'ra, so'nggi 10 yil ichida diniy ekstremizm va terrorizm tufayli dunyo iqtisodiyoti 583 trillion AQSH dollari miqdorida zarar ko'rgan bo'lsa, 15 yil ichida 100 mingdan ziyod begunoh insonlar terrorchilik hujumlari oqibatida halok bo'lgan. Faqatgina 2019-yilning o'zida dunyo bo'yicha zo'ravonlik, ekstremizm va terrorizmning umumiy salbiy global ta'siri – shunga e'tibor bering – 14,1 trillion AQSH dollarini yoki jahon YAIMning 11,2 foizini, iqtisodiy zarar – 33,19 milliard AQSH dollarini tashkil etgan. Shu sababdan ham jahon hamjamiyatining ekstremistik oqimlarning globallashuvini bartaraf etish bo'yicha sa'y-harakatlari borgan sari kuchayib bormoqda. BMT, YEXHT, SHHT, MDH va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ushbu sohada yuzdan ortiq qaror, shartnoma va harakat rejalari qabul qilindi. Xususan, BMTning global aksilterror strategiyasi va tajovuzkor ekstremizmning oldini olish bo'yicha harakat rejasi, YEXHTning terrorizmga olib

keluvchi ekstremizm va radikallashuvning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risidagi deklaratsiyasi, Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya, Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik konsepsiyasi, shuningdek, SHHTga a'zo davlatlarning ushbu xatarlarga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik dasturi, MDHga a'zo davlatlarning terrorizm va ekstremizmning tajovuzkor ko'rinishlariga qarshi kurash borasida hamkorlik dasturi va boshqa hujjatlar qabul qilingan.

Umuman, jamiyatdagi muammo va mojarolarning uzoq vaqt mobaynida hal etilmay qolishi, qonunsizlikning avjiga chiqishi, inson huquqlarini mensimaslik va ularning poymol etilishi, fuqarolarning faol ijtimoiy – iqtisodiy hayotdan chetda qolishi, etnik kelib chiqishi yoki milliy – diniy sabablar bo'yicha kamsitilishi kabi illatlar bir bo'lib, g'oya va qarashlarning salbiy tomonga o'zgarib ketishi va alamzadalik kayfiyatining ekstremistik harakatlarga aylanishiga sabab bo'layotgani kuzatilmoqda. Shu bois, BMTning tajovuzkor ekstremizmning oldini olish bo'yicha harakatlar rejasida “nafaqat terrorizmga qarshi kurashda xavfsizlik choralari ko'rish, balki ekstremizmni keltirib chiqaradigan holatlarning oldini olishga qaratilgan tizimli choralari qo'llash” zarurligi ham alohida ko'rsatib o'tilgan.

Radikal g'oyalar va keskin xatti – harakatlarga moyillik yoshlar, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj eng zaif qatlam vakillari o'rtasida yuqoriligicha qolmoqda. Ekstremistik va terroristik tashkilotlar o'z saflariga yangi izdoshlarini yollash jarayonida muqaddas diniy aqidalarni buzib talqin qilish barobarida, psixologik hiyla – nayranglardan ham foydalanmoqda. Shuning uchun ruhiy jihatdan beqaror odamlar, din bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan yoki diniy urf – odatlarga qat'iy amal qilmasa – da, mazkur jinoiy guruhlarining tuzog'iga ilinib qolmoqda.

Ekstremizm va terrorizm tabiatan turli yo'nalishda, ya'ni: qurolli guruhlarda bevosita ishtirok etishdan tortib, to siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy darajadagi radikalizmni qo'llab – quvvatlashga qadar namoyon bo'lmoqda. Radikal guruhlarining mavjudligidan ayrim davlatlar va ularning oliy darajadagi siyosatchilari manfaatdor ekani ham kuzatilmoqda. Qayd etish lozimki,

radikallashuv, terrorizm g'oyalarining tarqalishi jamiyatning tinchligi va osoyishtaligiga tahdid soluvchi asosiy xavf – xatar va muammolardan biri hisoblanadi. Radikalizm – terrorizmga olib boruvchi so'nggi bosqich. Ayniqsa, yoshlar o'rtasidagi radikallashuv jarayoni katta tashvish uyg'otmoqda. Ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani, bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod bo'lib, ular 2 milliard kishini tashkil etishini e'tiborga olsak, masalaning naqadar jiddiy ekanini tushunish qiyin emas. Hozirga kunda ekstremizm va terrorizm xalqaro hamjamiyatga ham, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekistonga ham tahdid solishda davom etmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy – ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barcha davlatlar uchun eng asosiy vazifa bo'lib turibdi. Markaziy Osiyo hududidagi diniy – siyosiy vaziyat, unga ta'sir qilayotgan omillarni o'rganish va tahlil qilish natijalari soha bo'yicha holat dinamik xususiyatga ega ekanligi, ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda salbiy omillar ham vujudga kelayotganini ko'rsatmoqda. Mintaqa davlatlari jahon hamjamiyatini qir qismi sifatida dinlar va konfessiyalararo ziddiyatlarning kirib kelish xavfiga hamda Markaziy Osiyo radikal diniy oqimlar faolligi o'sishiga duch kelmoqda. Diniy radikalizm va ekstremizm Markaziy Osiyo davlatlarining konstitutsiyaviy asoslariga, mamlakatni rivojlantirishning dunyoviy prinsiplariga, xalqlarning ma'naviy qadriyatlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ekstremistik va terroristik tashkilotlar soxta g'oyalarni asl diniy qadriyatlar sifatida talqin qilish orqali inson huquqi va erkinliklarini oyoq osti qilish, insoniyatning diniy, madaniy – ma'rifiy merosiga jiddiy zarar yetkazib, dinlar orasiga nifoq solishga hamda dinlararo munosabatlarga putur yetkazishga harakat qilmoqda.

Xalqaro miqyosda dindan “yumshoq kuch” vositasi sifatida foydalanib, siyosiy madaniy va gumanitar ta'sir zonalarini kengaytirishga urinishlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, diniy bilim olishga intilayotgan, ammo diniy ta'limot bo'yicha tasavvurga ega bo'lmagan yoshlarning radikallashuv xavfi yuqoriligicha qolmoqda. Mintaqa mamlakatlari yoshlari orasida diniy ta'lim olish uchun chet

davlatlarga ketish va natijada diniy ekstremistik oqimlar va xalqaro terrorchi tashkilotlar safiga kirib qolish holatlari kuzatilmoqda. Noqonuniy tarzda diniy ta'lim berish holati o'sib bormoqda va bu Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi, jumladan, O'zbekistondagi diniy vaziyatga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda belgilangan qonun talablarini buzgan holda, noqonuniy namozxonalar, arab tilini o'rgatish bahonasida noqonuniy diniy ta'lim berish bilan shug'ullanib kelayotgan o'quv markazlari soni ortib bormoqda. Ayrim dindorlar orasida Konstitutsiyaga rioya qilish va jamiyat oldidagi majburiyatlaridan bosh tortish holatlari kuzatilmoqda. Ularning qonunlarga, davlat ramzlariga, xalqlarning milliy – ma'naviy an'ana va qadriyatlariga, shuningdek, umume'tirof etilgan xulq – atvor me'yorlariga nisbatan hurmatsizlarcha munosabatda bo'lish holatlari tez – tez uchramoqda. Diniy ekstremizm mafkurasi ommaviy ongga global axborot – kommunikatsiya tarmoqlari, jumladan, Internet, zamonaviy elektron dasturiy ta'minotlar orqali kuchli axborot – psixologik bosim o'tkazmoqda. Ekstremistik mafkura va g'oyalar ijtimoiy tarmoqlar, videoroliklar va adabiyotlarni noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatish orqali jamiyatga, ayniqsa, yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada radikal diniy mafkuraning buzg'unchi axborotlari ta'siri ostida jamoatchilik ongi buzilmoqda, fuqarolarning davlatga ishonchi so'nib, vatanparvarlik va hamjihatlik tuyg'ulari yo'qolmoqda, qadriyatlar va axloqiy me'yorlar o'zgarmiqda, oilalar tanazzulga uchramoqda. Uzoq muddatga chet elga chiqib ketgan shaxslar yaqin qarindoshlari va jamoatchilik nazoratidan chetda qolishi, hayot tajribasiga ega bo'lmagani va mutaassiblikka moyilligi sababli xalqaro terrorchilik tashkilotlariga yollovchi kimsalar ta'siriga tushib, harbiy harakatlar olib borilayotgan keskinlik o'choqlaridagi jangarilar saflariga qo'shilib qolmoqda[1].

Jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarini ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ularning o'rtasiga nifoq ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutlaqo yo'l qo'yilmaydi. Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora

keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo'lishini talab etmoqda. Shu borada O'zbekiston chegaralarining xavfsizligi va daxlsizligini ta'minlash, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yurtimiz ostonasiga hech qanday balo-qazoni yaqin keltirmaslik kabi hal qiluvchi vazifalar hamisha diqqatimiz markazida bo'ladi[2].

Jamiyat taraqqiyotiga raxna soluvchi tahdidlarning asosiylaridan biri bu ma'naviy tahdid bo'lib, "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman. Lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarini ko'zlashini, o'ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog'lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi. Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o'z vaqtida qat'iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o'z girdobiga tortib ketishini, oqibatida ularning ota – ona, oila, el – yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini o'ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi harbi inson, har qaysi ota – ona, eng muhimi, har qaysi yigit – qiz chuqur anglab olishini istardim[3].

Ongi zaharlangan va mutaassibga aylangan kishilar o'zlari qilayotgan ishlarni to'g'ri deb hisoblab, har qanday nomaqbul ishlardan ham bosh tortmaydiganlar. Vaholanki, ularni bu yo'lga boshlagan "rahnamlar"ning asl maqsadi mohiyatan g'ayriinsoniy xarakterga ega. Mutaassiblikning jirkanch basharasi dunyoning turli nuqtalarida sodir etilayotgan qo'poruvchilik va xunrezlik voqealarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham mutaassiblik g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishini birinchi va asosiy sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir.

Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Shu o'rinda qayd etish joizki, ko'p manbalarda ishlatilgan "aqidaparastlik" so'zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib "mutaassiblik" so'zi bilan almashtirilgan holda iste'foda etilmoqda[4].

Mintaqa davlatlari mustaqilligining dastlabki yillarida islom dini niqobi ostidagi mutaassib tuzilmalar hokimiyatga erishish haqidagi rejalari vaqt o'tib amalga oshmagach, ochiqdan-ochiq kurash uslubidan voz kechib, yashirin faoliyat yuritishga o'tishadi. Bunda, ular dastlab maxfiy hujralarning keng tarmog'ini yaratish, yoshlar va ayollarga urg'u berish, chet ellardagi o'z maslakdoshlari bilan mustahkam aloqalar o'rnatish orqali harakatlarini muvofiqlashtirishga intilishadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy ekstremizm tahdidining yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo'ldi:

- "qayta qurish" davrida nafaqat siyosiy va iqtisodiy inqiroz, balki mafkuraviy parokandalik yuzaga kelgani. Ittifoq parchalanganidan keyin, mafkuraviy bo'shliq xatarli oqibatlarining namoyon bo'lgan;

- ko'zga ko'ringan diniy ulamolar o'rnini mutaassib kayfiyatdagi kishilar egallashga intilib, ular tomonidan islom asoslari buzib talqin qilina boshlangani;

- aholining islom diniga bo'lgan qiziqishidan foydalanib, xalqaro ekstremistik markazlar tomonidan mintaqada diniy mutaassiblik ruhidagi adabiyotlarni tarqatish kengaytirilgani;

- mintaqadagi yangi mustaqil bo'lgan davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi tajribaning past darajada ekanligi;

- fuqarolarda diniy ekstremistik tuzilmalar targ'ibotiga qarshi immunitetning shakllanmagani[5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi -T.: "O'zbekiston", 2021. -398-405, b.

2. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz -T.: "O'zbekiston", 2018. -138,139 b.

3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: “Ma'naviyat”, 2016. -13-15 b.

4. A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G'afurov, J.Karimov. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari -T. “Toshkent islom universiteti nashriyot – matbaa birlashmasi”, 2015. — 39 b.

5. J. Karimov, K.Shermuhamedov, Sh.Islomov, J.Najmiddinov, Z.Faxriddinov, D.Yusupova, R.Turganov, D.Raximjonov, B.Rustamov, M.Abdullayeva, M.Nabiyev. Diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari (o'quv qo'llanma). -T.: “O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi”, 2021. -122,123 b.

HARBIY XIZMATCHILARNING JANGOVAR RUHINI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING O'RNI

Abduraimov Elmurod Abdusalomovich

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologik tayyorgarlikning jangovar ruhni oshirishdagi o'rni, uning asosiy usullari va shakllantirish metodlari keltirib o'tilgan. Shuningdek, harbiy xizmatchilar jangovar ruhini oshirishda psixologik tayyorgarlik bosqichlari sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy xizmatchi, jangovar ruh, psixologik tayyorgarlik, tayyorgarlik bosqichlari, tayyorgarlik jarayoni.

So'nggi vaqtlarda jahon va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka bo'lgan xavf-xatar va tahdidlar ko'lamining kengayib borishi, geosiyosiy qarama-qarshiliklarning kuchayishi, qator davlatlar o'rtasida qurolli to'qnashuv va harbiy mojarolar avj olayotgani bilan tavsiflanadi [1].

Bugun ayrim davlatlarda sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlarda harbiy xizmatchilarda milliy g'urur, jangovar ruh va mafkuraviy immunitet sustligi

oqibatida harbiylarning o'z qurollarini topshirib, dushmanga taslim bo'lishi, isyonchilarga qo'shilib ketishi hamda jangovar vazifani bajarmaslik holatlari ommaviy tus olgani hammamizga sir emas.

Shunday sharoitda harbiy xizmatchilar ongiga Vatan yagonaligini, milliy mustaqilligimizni asrash, har qanday tajovuzga qarshi mardonavor kurashish, yurt himoyachisi nomini sharaf bilan oqlashni chuqur singdirish — Qurolli Kuchlarda yuqori jangovar shaylik, barqaror axloqiy-ruhiy holat hamda shaxsiy tarkibning g'alabaga bo'lgan mustahkam ishonchini ta'minlashning eng muhim shartlaridan biridir. Bu esa har bir mamlakat qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarini har tomonlama professional holda tayyorlash bilan bir qatorda barqaror axloqiy-ruhiy holatini ta'minlashni talab etadi. Shuningdek, so'nggi vaqtlarda ro'y berayotgan qurolli nizolar va to'qnashuvlarning natijasi zamonaviy qurol-aslaha va jangovar texnikalarga emas, balki harbiy xizmatchilarning barqaror axloqiy-ruhiy holatiga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa harbiy xizmatchilarning har qanday jangovar xizmat vazifalarini bajarishga tayyor turishi va yuqori jangovar ruhini namoyon qilishini talab etadi.

Jangovar ruh, ya'ni harbiy xizmatchilarning jangda o'zini tutishi, ruhiy barqarorligi va maqsadga yo'naltirilganligi — jangovar faoliyatda g'alabaga erishishning muhim omillaridan biridir. Psixologik tayyorgarlik esa harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini shakllantirish, ularni psixologik jihatdan tayyorlash va jangovar sharoitlarga moslashishga yordam berishning asosi bo'lib, jangovar ruhni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarimizning jangovar ruhini oshirish orqali ularning har qanday ekstremal vaziyatlarga tayyor turishi, Vatanga sodiq, o'z xizmat vazifasini sidqidildan ado etishlarini ta'minlash uchun, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini oshirishda asosiy fanlardan bir bu psixologik tayyorgarlikka alohida e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz. Ushbu tezisda harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi orqali jangovar ruhini oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligiga to'xtalganmiz. Bu borada harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi orqali jangovar ruhni oshirish bo'yicha samarali yondashuvlarni ko'rib

chiqmoqchimiz. Zero psixologik tayyorgarlik harbiy xizmatchilar uchun xizmat faoliyatida, oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda va umuman, harbiy vazifalarni bajarishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Harbiy psixolog olimlar A. Karayani va I. Siromyatnikovlarning fikricha, psixologik tayyorgarlik harbiy xizmatchilarda jangovar ruhiyati, mardlik, qat'iyat, matonat, chidamlilik kabi fazilatlarni shakllantirishning asosi hisoblanadi [2].

A. Karayanining ta'kidlashicha, "harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarda psixologik fazilatlarni shakllantirish, ularning jang maydonidagi faol va samarali harakatlarga psixologik tayyorgarligini va zamonaviy kurash vositalari ta'siriga qarshilik ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan o'zaro bog'liq chora-tadbirlar tizimini aks ettiradi" [3].

Harbiy psixologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan psixolog Ch. Nasriddinovning ta'rificha, "psixologik tayyorgarlik — harbiy xizmatchi va harbiy jamoalarda jangovar vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan psixologik sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus chora tadbirlar tizimidir" [4].

Harbiy psixolog Sh. Mirabdullayevaning fikricha, psixologik tayyorgarlik — bu harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarda zamonaviy jangning salbiy omillariga qarshi psixologik bardoshlilikni shakllantirish hamda yuqori jangovar faollikni ta'minlash, shaxsiy tarkib tomonidan tinchlik va urush davrida hamda turli vaziyatda o'z majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarishga yordam beruvchi psixologik fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir [5].

Bizning fikrimizcha, aynan psixologik tayyorgarlikning yo'qligi harbiy xizmatchilarda sarosimaga tushish, o'zini boshqara olmaslik, oldiga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida va ishonchli bajara olmaslik mumkin.

Harbiy xizmatchining o'zining psixologik xususiyatlarini bilishi unga o'z ruhiyatini nazorat qilish va qiyin jangovar vaziyatlarda samarali harakat qilish imkonini beradi. Bu omillarning kombinatsiyasi "psixologik tayyorgarlik tizimi deb ataladi. Harbiy xizmatchining qo'yilgan vazifalarni bajarishga psixologik tayyorgarligi butun harbiy xizmat davomida o'qitish va tarbiyalash jarayonida amalga oshiriladigan maqsadli psixologik tayyorgarlik jarayonida erishiladi.

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili asosida shaxsiy tarkibni jangovar vaziyatlarga nisbatan psixologik tayyorlash yo'llari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

- mashg'ulotlarni jangovar vaziyatga yaqin sharoitlarda olib borish va moslashtirish;

- zamonaviy jang haqida to'g'ri tasavvurlarni shakllantirish;

- o'z qurol-aslahasiga, harbiy jamoasiga, komandirlariga va g'alabaga ishonchni shakllantirish;

- o'quv jarayonida qadimiy va zamonaviy jang tajribalarini o'rganish orqali amaliy ko'nikmani shakllantirish;

- burch g'oyasi va mafkurasini shakllantirish;

- vatanparvarlikni va dushmanga nisbatan nafratni tarbiyalash;

- g'oyaviy immunitetni shakllantirish;

- jangovar mahoratni shakllantirish;

- yuksak harbiy intizomni tarbiyalash;

- harbiy qasamyodga sadoqatni tarbiyalash;

- mashg'ulotlarni qiyin sharoitlarda olib borish;

- doimiy himoya vositalarida mashq o'tkazish;

- jismoniy jihatdan chiniqtirish;

- mashg'ulotlarda imitatsiya vositalarini qo'llash;

- irodaviy xususiyatlarni rivojlantirish;

- mashg'ulotlarda qo'rqish hissini yengishda yordam beruvchi mashqlarni bajarish;

- stressga barqarorlikni rivojlantirish.

Shunday qilib, harbiy xizmatchilarning jangovar vazifalar bajarishga psixologik tayyorlashda ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligi va bu esa harbiy xizmatchining psixologik tayyorgarlik darajasini oshirish hamda jangovar ruhini ko'tarishga imkon beradi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlash uchun bir nechta bosqichlarga alohida e'tibor qaratish zarur deb

hisoblaymiz. Harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlash jarayoni murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, har bir bosqich o'zining muhim rolini o'ynaydi. Psixologik tayyorgarlik harbiy xizmatchilarning jangovar sharoitlarga moslashishini ta'minlash, ularning ruhiy holatini mustahkamlash va stressli vaziyatlarga tayyor bo'lishini ko'zda tutadi. Quyida harbiy xizmatchilarni tayyorlashda psixologik tayyorgarlikning asosiy bosqichlari keltirilgan.

1. Birinchi bosqich: Psixologik tahlil va individual yondashuv

Bu bosqichda harbiy xizmatchilarning psixologik holati tahlil qilinadi va ularning individual xususiyatlari o'rganiladi. Har bir harbiy xizmatchining ichki dunyosini tushunish, uning qobiliyatlari, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash muhimdir.

- shaxsiy xususiyatlar va psixologik profilini tuzish: Har bir xizmatchining shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, uning stressga qanday javob berishini va stressni boshqarish qobiliyatini aniqlash;

- individual tayyorgarlik rejalarini ishlab chiqish: Psixologik tahlil asosida har bir harbiy xizmatchiga individual yondashuv tanlanadi. Bu yondashuv har bir xizmatchining psixologik xususiyatlariga mos ravishda tayyorlanadi.

2. Ikkinchi bosqich: Psixologik ko'nikmalarni rivojlantirish

Bu bosqichda harbiy xizmatchilarni jangovar sharoitlarga moslashishga tayyorlash uchun zarur bo'lgan psixologik ko'nikmalar rivojlantiriladi.

- stressni boshqarish: Harbiy xizmatchilarga stressni yengishning samarali usullari o'rgatiladi. Nafas olish texnikalari, vizualizatsiya va meditatsiya kabi usullar stressga qarshi kurashishda yordam beradi;

- qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish: Jangovar sharoitda tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish. Simulyatsiyalar va maxsus treninglar orqali bu ko'nikmalarni shakllantirish;

- motivatsiya va maqsadga yo'naltirish: Harbiy xizmatchilarni maqsadga erishish uchun ichki motivatsiyani oshirish. Ular o'z vazifasining ahamiyatini tushunishi va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash zarur.

3. Uchinchi bosqich: Guruhda ishlash va jamoa ruhini shakllantirish

Jangovar sharoitda harbiy xizmatchilarning guruh bilan ishlash ko'nikmalari juda muhimdir. Ular o'zaro hamkorlik, ishonch va qo'llab-quvvatlashni mustahkamlashlari kerak.

- jamoa ruhini shakllantirish: Guruhda ishlash, bir-biriga ishonch hosil qilish, o'zaro yordamni ta'minlash. Boshqaruv va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish;

- o'zaro kommunikatsiya va rahbarlik: Jamoa ichidagi samarali kommunikatsiyani ta'minlash, rahbarlar va xizmatchilar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish. Bu psixologik xavfsizlikni ta'minlaydi va guruhdagi umumiy jangovar ruhni oshiradi.

4. To'rtinchi bosqich: Jangovar sharoitlarda psixologik tiklanish

Jangovar sharoitlarda harbiy xizmatchilarni psixologik tiklanishga tayyorlash va ularni qiyinchiliklarga bardosh bera olishga o'rgatish kerak.

- psixologik tiklanish va dam olish texnikalari: Harbiy xizmatchilarga psixologik tiklanish va dam olish usullarini o'rgatish. Bu usullar jangovar sharoitlarda uzoq muddatli charchoq va stressni bartaraf etishga yordam beradi;

- jangovar holatga moslashish: Harbiy xizmatchilarni turli jangovar sharoitlarga tayyorlash va stressli vaziyatlarga qanday moslashish haqida treninglar o'tkazish. Psixologik moslashuv jarayonini rivojlantirish.

5. Beshinchi bosqich: Doimiy monitoring va tahlil

Psixologik tayyorgarlik jarayoni davomida harbiy xizmatchilarning holatini muntazam ravishda nazorat qilish va tahlil qilish zarur.

- psixologik tahlil va ko'rsatkichlarni qayta baholash: Harbiy xizmatchilarning psixologik holatini doimiy ravishda tahlil qilish, zarurat bo'lsa, yangi psixologik qo'llab-quvvatlash usullarini joriy etish;

- psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatish: Xizmatchilarga kerak bo'lganda psixologik yordam va maslahatlar berish. Jangovar sharoitda stress va ruhiy yukni boshqarish uchun maxsus psixologik xizmatlarni taklif qilish.

Jangovar ruhni ko'tarish — bu odamni kurashga va g'alabani maqsad qilishga undash demakdir [6]. Harbiy xizmatchining jangovar ruhi yuqori bo'lsa, harbiy xizmatning qiyinchiliklariga qarshi turish, muvaffaqiyatsizliklarga dosh berish va

ularni yengish shaxsiy qobiliyatini rivojlantirish, hamda g'olib bo'lmasa, hech bo'lmaganda mag'lub bo'lmaydi degan qarash mavjud bo'ladi.

Shu o'rinda harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini oshirishda katta ahamiyatga ega ruhiy tayyorgarlikning asosiy shakllariga to'xtalib o'tsak.

Ruhiy tayyorgarlikning asosiy shakllari:

jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari;

ruhiy ta'sir o'tkazish mashg'ulotlari;

turli xil o'quv taktik qissa masalalarni yechish;

o'quv-uslubiy yig'inlar, konferensiya va seminarlar;

ko'rgazmali mashg'ulotlar va treninglar;

yakka kurash, harbiy-sport musobaqalari va tanlovlar;

badiiy va hujjatli filmlar, videoroliklar namoyishi.

Harbiy xizmatchilarni maqsadli psixologik tayyorlash bu – jangovar ruhiy holatning shakllanishi, ma'lum bir vazifani bajarish uchun aniq ichki munosabatni rivojlantirish, ma'lum bir jangga tayyorgarlik ko'rish, jangovar harakatga kirish, xizmat vazifasini bajarish demakdir. Harbiy psixolog va komandirlar tomonidan olingan ma'lumotlar, agar to'g'ri baholansa va foydalanilsa, ko'plab salbiy hodisalarning oldini olishga imkon beradi va harbiy faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar: Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz mumkinki, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini oshirishda psixologik tayyorgarlik muhim rol o'ynaydi. Psixologik tayyorgarlik orqali harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi, stressga bardoshlilik, motivatsiyani oshirish, jismoniy va ruhiy zo'riqlashlarga qarshi kurashish ko'nikmalari o'rgatiladi. Bu esa ularning jangovar sharoitlarda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishiga yordam beradi. Psixologik tayyorgarlikni to'g'ri tashkil etish, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini oshirish va ularga eng murakkab sharoitlarda ham samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, harbiy xizmatchilarni jangovar ruhini oshirish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

1. Harbiy xizmatchilar bilan psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlarini kuchaytirish.
2. Motivatsiyani aniq bir maqsadga yo'naltirish.
3. Jangovar vaziyatlarni simulyatsiya qilish.
4. Jismoniy va psixologik tayyorgarlikni uyg'unlashtirish.
5. Jamoada o'zaro ishonch va harbiy birodarlikni shakllantirish orqali.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-sentyabrdagi PQ-371-son qarori "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish Konsepsiyasi". Toshkent 2022 y.
2. А. Г. Караяни И. В. Сыромятников Прикладная Военная психология. "Питер", 2006. С-228.
3. Караяни А.Г., Военная психология. Част 2. М., Юрайт, 2016, 132 стр. Ч.Насриддинов. Нарбий психология. Т., 2004. 126-б.
4. Mirabdullaeva Sh.A. "Harbiy psixologiya darslik". O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi, T 2019. B-378.
5. <https://www.cluber.com.ua/lifestyle/psihologiya-lifestyle/2018/04/boevoy-duh-podnimat-ili-itak-soydet/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-sentyabrdagi "Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-371-XDFU-son qarori. T.:2022 y.

KURSANTLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AXLOQIY TAYYORGARLIKNING O'RNI

Xaitov Bahodir Tursunovich

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik va muhandislik
bilim yurti, Gumanitar fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi, dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan davrda kursantlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda axloqiy tayyorgarlikning dolzarb ahamiyatga ega bo'lib borayotganligi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, yetuk ofitser kadrlar, axloqiy tayyorgarlik, tarbiyaviy-mafkuraviy ishlarning yo'nalishlari.

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari mamlakatlarning milliy ta'lim platformalarida yoshlarning intellekti va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning tarbiyaviy mexanizmlarini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Taraqqiyotning bugungi bosqichiga kelib chegara, hudud va mintaqa kabi tushunchalarni tan olmaydigan va butun insoniyatga katta xavf soluvchi tahdidlar tobora ko'payib bormoqda. Hozirda yer kurrasida bu kabi tahdidlardan kafolatli himoyalangan hududni topish mumkin bo'lmay qoldi. Shunga qaramay har bir mamlakat geosiyosiy maydondagi o'zni, tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa imkoniyatlaridan kelib chiqib tashqi tahdidlardan himoyalaniş choralarini ko'rmoqda.

Dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish orqali harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sayyoramizda kuzatilayotgan geosiyosiy jarayonlarning taranglashuvi kursantlarni ham jismonan, ham ma'nan barkamol bo'lishni,

jarayonlarga nisbatan Vatan manfaatidan kelib chiqadigan o'z mustaqil pozitsiyasiga ega bo'lishni taqozo qilmoqda.

Jahon hamjamiyatida kechayotgan siyosiy, mafkuraviy jarayonlar oliy harbiy ta'lim muassasalari oldiga ham aniq, qat'iy vazifalarni qo'yimoqda. Ushbu vazifalar real vaziyatlarda va jangovar holatlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan sinovlarni yengishga qodir, mavjud xavflarni anglay olish ko'nikmasiga ega bo'lgan, vaziyatni to'g'ri tahlil qila oladigan ofitser kadrlar tayyorlash bilan ado etiladi. Bu esa oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarni ma'naviy-ma'rifiy va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni ilmiy asosda tizimli tashkil etishni yanada rivojlantirishni taqozo qiladi.

2022-yil 8-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-371-sonli Qarorida belgilanganidek: "Buyuk tariximiz, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning jahon harbiy san'ati rivojiga qo'shgan hissasi, ularning qo'shinlaridagi lashkarboshilarning sadoqati, fidoyiligi va matonati; Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan yurtdoshlarimizning vatanparvarligi va qahramonligi, shuningdek, yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanligini tushunib yetishlari qo'shinlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish hamda harbiy xizmatchilarda yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning asosi bo'lib hisoblanadi [1].

Vatanparvarlik, o'z Vatanini himoya qilish bugungi O'zbekistonning ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy taraqqiyotining eng ustuvor tamoyillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ma'naviy merosimiz, jumladan, buyuk sarkarda bobolarimiz, xalq qahramonlarining ko'rsatgan jasoratlaridan o'rnak olish mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda, kursantlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir” deb belgilab qo‘yilgan [2-17].

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2024-yil 19-apreldagi 314-sonli “Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish bo‘yicha vaqtinchalik Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” [3] gi Buyrug‘ining qabul qilinishi va unda belgilab qo‘yilgan tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning asosiy yo‘nalishlari kursant harbiy xizmatchilar ongida betakror Vatanimiz yagonaligi, milliy mustaqillikni asrab-avaylash, turli tajovuzlarga qarshi mardona kurashish, zararli va yot g‘oyalarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, Vatan himoyachisi nomini sharaf bilan oqlash, ertangi baxtli kelajakka ishonch va umid ruhini qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega.

“Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish bo‘yicha vaqtinchalik Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Buyruqqa binoan Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib boriladi:

ma‘naviy ishlar;

ma‘rifiy ishlar;

madaniy ishlar;

Shuningdek qo‘shinlarda harbiy xizmatchilarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni va jangovar ruhni oshirish ishlari quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

axloqiy tayyorgarlik;

ruhiy tayyorgarlik;

psixologik ishlar;

yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash.

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Bugun insoniyat g‘oyaviy urushlar, ma‘naviy ziddiyatlar, zo‘ravon g‘oyalarning dunyoni qayta taqsimlashga qaratilgan o‘yinlari avj olgan shiddatli zamonda yashayapti. Hozir buzg‘unchilik, axloqsizlik va ma‘naviy inqirozlar har qachongidan ham xatarli tus olmoqda. Yoshlarimiz bunday sharoitlarda hamisha hushyor va ogoh bo‘lishi, fitna va g‘arazli

maqsadlar, manfaatdor kuchlar turganini bir lahza ham unutmasdan, yoshligidanoq sogʻlom tafakkurni shakllantirish lozim” [4-488].

Shunday ekan, har birimiz ertangi kelajagimiz egalari boʻlgan yoshlar taʼlim-tarbiyasiga, ularning kasb-hunar egallashiga, turli zararli, yot gʻoyalar taʼsiriga tushib qolishlaridan ogoh boʻlishimiz darkor.

Axloqiy tayyorgarlik – bu tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar jarayonida harbiy xizmatchilar ongiga odob-axloq qoidalari, axloqiy fazilatlarini singdirish, ularda oʻz quroli va komandirlariga boʻlgan ishonchni, gʻoyaviy eʼtiqod va vatanparvarlikni yuksaltirish hamda har qanday vaziyatda oldiga qoʻyilgan jangovar vazifani muvaffaqiyatli bajarishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar tizimi.

Axloqiy tayyorgarlikning maqsadi – harbiy xizmatchilarda taʼlim-tarbiya natijasida yuksak maʼnaviy-axloqiy fazilatlar va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, burchga sadoqat, masʼuliyat, milliy gʻurur va jangovar ruhni yuksaltirish hamda kerak boʻlsa, Vatan himoyasi yoʻlida jonini ham fido qilishga tayyor boʻlgan komil inson shaxsini shakllantirish.

Axloqiy tayyorgarlikning asosiy vazifalari:

harbiy xizmatchilar bilan tizimli ravishda olib boriladigan maʼnaviy, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar jarayonida vatanparvarlik, burchga sadoqat, masʼuliyat, milliy gʻurur va halollik kabi yuksak maʼnaviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish;

harbiy xizmatchilarda insonparvarlik, adolatparvarlik, bagʻrikenglik, yuksak madaniyat va odob hamda shon-sharaf, or-nomus, yigitlik gʻururi, sergaklik va hushyorlik, davlat va harbiy sirlarni saqlash kabi umuminsoniy va harbiy qadriyatlarni mustahkamlash;

harbiy xizmatchilarning ong-u tafakkuriga Vatan muqaddasligi, uni himoya qilish sharaflı burch ekanligini singdirish hamda ularda milliy armiya va oʻz kasbi bilan faxrlanish tuygʻularini shakllantirish;

Vatan himoyasi yoʻlida oʻz jonini fido qilgan qahramonlar jasoratini hamda bugungi kunda fidoyilik koʻrsatayotgan harbiy xizmatchilar faoliyatini keng targʻib

etish asosida shaxsiy tarkibda mardlik, jasorat, shijoat kabi sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish.

Kursantlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda axloqiy tayyorgarlik nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy tayyorgarlikdan o'tgan jismonan va ma'nan yetuk kursantlarga vatanparvarlik ruhida tarbiyalanadilar hamda Vatanimizning haqiqiy himoyachilari bo'ladilar.

Mashhur jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy bobomiz o'z vatanini sevadigan, ardoqlaydigan yoshlarni yaxshi xulq sohibi sifatida ko'radi. Yaxshi xulq sifatida esa quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi: fatonat (aql egasi), diyonat, g'ayrat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, intizom, vijdon, vatanni suymak va boshqalar.

Yaxshi xulqlar sohibi bo'lgan farzandlarimiz o'z vatanlarini nafaqat avaylab-asrashlari, balki shu yurt ravnaqi uchun xizmat qiladigan, uning rivojlanishi uchun o'zining bor imkoniyatlarini sarflaydigan insonlar bo'lib voyaga yetadilar.

Avloniyning quyidagi fikrlariga e'tibor bering: "Yoshlikdan boshlab zehn va idrokimizni quvvatlantirmak uchun aziz umrimizni o'yin-kulgi, safsata moloya'ni (ma'nosiz) kabi behuda so'zlar ila o'tkarmay, har xil kitob, gazeta va jurnallarni o'qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlantirmak lozimdur" [5-60].

Xulosa qilib aytganda, har birimiz, kim bo'lishimizdan, qaysi kasb, qaysi mansab egasi bo'lishimizdan qat'iy nazar kursant avlod tarbiyasida chuqur mas'uliyatni anglab faoliyat olib bormog'imiz shart. Chunki butun dunyoda o'zlarining g'arazli g'oya va qarashlarini singdirishga tayyor bo'lgan, bu yo'lda hech qanday manfur ishlardan qaytmaydigan guruhlar afsuski ko'plab topiladi. Harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlarimizni ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy jihatdan yetuk kadrlar sifatida tarbiyalash eng muhim vazifalarimizdan biri bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023.
2. "Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-371. 08.09.2022.

3. “Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish bo‘yicha vaqtinchalik Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2024-yil 19-apreldagi 314-sonli Buyrug‘i. 19.04.2024.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: “O‘zbekiston”, 2017.

5. Avloniy A., Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: Ma’naviyat. 2006.

O‘ZBEKISTONDA MADANIY BOYLIKLARNI SAQLAB QOLISHDA JAVOBGARLIKNI BELGILASH MASALALARI

Ergashev Jahongir Sheraliyevich

Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti

“Maxsus-huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi bilan bog‘liq qonunchilikdagi bo‘shliqlar va aybdor shaxslarga belgilangan tartib, bojxona chegarasi orqali madaniy boyliklarni noqonuniy olib o‘tganlik uchun javobgarlik tushunchasi, turlari, mazmun va mohiyati hamda madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishini oldini olish bo‘yicha javobgarlikni belgilashda yuzaga keladigan ayrim muammoli masalalar yuzasidan fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Bojxona organlari, tarixiy, ma’naviy, madaniy boyliklarni asrash, bojxonaga oid jinoyatlar, jinoiy javobgarlik turlari, javobgarlikni belgilash, javobgarlikning muqarrarligi.

Har bir davlat organi o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish bilan bir qatorda qonuniylikni ta’minlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, davlat va nodavlat tashkilotlari, mehnat jamoalarining huquq va qonuniy manfaatlarini qo‘riqlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash kabi bir qator huquqni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni ham amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda davlat muzey-qo‘riqxonalari, davlat muzeyi va boshqa obyektlardagi madaniy boyliklarning qalbakilashtirilishi, madaniy boyliklarning ommaviy talon-taroj qilinishi hamda davlatimiz chegarasidan ushbu madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqish holatlari ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shartligi belgilangan. Tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi” deb belgilangan[1].

Shuningdek, 1998-yil 29-avgustdagi “Madaniy boyliklarining olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi qonuning 5-moddasida madaniy boyliklarni olib chiqilishi va olib kirilishini davlat tomonidan tartibga solinishida Davlat bojxona qo‘mitasi vakolatli organ sifatida belgilangan.

Ta’kidlash joizki, mazkur qonunning 8-moddasiga ko‘ra:

- ellik yil muqaddam va undan ham oldinroq yaratilgan madaniy boyliklar;
- davlat tomonidan muhofaza ro‘yxatlari va reyestrlariga kiritilgan madaniy boyliklar;
- muzeylar, axborot-kutubxona muassasalari, arxivlar, idoraviy arxivlar va boshqa saqlash joylarida doimiy saqlanayotgan madaniy boyliklar O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi ta’qiqlanadi[2].

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi 269-II-son Qonunining 36-moddasiga ko‘ra Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘lishlari belgilangan bo‘lsa[3], O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi 678-I-son Qonunining 23-moddasiga ko‘ra madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzishda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘lishlari belgilangan.

Bugungi kunda, moddiy-madaniy meros obyektlarini qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish bilan bog‘liq qilmishlar uchun javobgarlik

bojxona qoidalarini buzish sifatida baholanib, tegishli Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks yoki Jinoyat kodeksi bilan hal etilmoqda.

Madaniy boyliklarni qasddan yo'q qilish bilan bog'liq dunyo tarixi ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Tarixga nazar tashlasak, XVII asrdagi Angliyada bo'lib o'tgan fuqarolik urushlari, Ikkinchi jahon urushi vaqtida madaniy yodgorliklar va cherkovlarning yo'q qilinishi, 1979-yildan beri YUNESKO ro'yxatida bo'lgan Dubrovnik shahrini 1991-yilda o'qqa tutilishi, Tolibon harakati tomonidan yo'q qilingan madaniy meroslar, Iroqda kuzatilgan arxeologik obyektlarning noqonuniy qazilishi va maradyorlik, ISHID tomonidan Iroq, Suriya va Liviyada madaniy boyliklarga bo'lgan buzg'unchilik holatlari madaniy boyliklar "qora bozori"ni to'ldirish uchun amalga oshirilgan jinoyatlarning bir qismi xolos.

Jahon bojxona tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda antikvar va madaniy boyliklarning noqonuniy savdosi 65.1 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 29%ga ortgan. Shuningdek, mutaxassislar tomonidan ushbu jinoyat bilan soliqlardan qochish hamda "pul yuvish" jinoyatlari o'rtasida bog'liqlik borligi aniqlangan.

Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan madaniy boyliklar noqonuniy savdosidan topilgan daromaddan terrorizmni moliyalashtirishda foydalanilishi bo'yicha ham ma'lumotlar olingan[4].

Tahlillar natijasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda 103 ta, 2022-yilda 124 ta holatda 2659 ta madaniy boyliklarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yilgan. Shundan, 97.3% holatlarda ushbu ashyolarni xorijga olib chiqib ketilishi oldi olingan bo'lsa, ushbu harakatlarning 213 tasi aviatransportdan foydalangan holda sodir etilishi maqsad qilingan bo'lgan. Xususan, 193 ta holatda Rossiya, 15 ta holatda Qozog'iston va 12 ta holatda ashyolar Turkiyaga olib chiqib ketilayotgan bo'lgan.

O'rganishlar davomida, F.Abduqodirovning "Madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish va olib kirish bilan bog'liq qilmishlarni kriminalizatsiya qilishning asoslari" deb nomlangan maqolasida, moddiy boyliklarni O'zbekiston Respublikasidan qonunga xilof ravishda olib

chiqish bilan bog'liq qilmishlarning asosiy bevosita obyekti bojxona normal faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar emas, balki moddiy madaniy boyliklarni muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanishini va alohida norma bilan muhofaza qilish lozimligi ilgari surilgan [5].

Mavjud ma'lumotlar tahliliga ko'ra, O'zbekiston Respublikasidan ilgari vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaganlik holatlari bo'yicha jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi biror bir normaning mavjud emasligi sababli vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklarni belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaslik yoki umuman qaytarmaslik holatlari kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-iyuldagi "O'zbekistonda madaniy boyliklarning noqonuniy aylanmasining oldini olish, xorijda saqlanayotgan madaniy boyliklarni qaytarish hamda ushbu sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 397-sonli qarori asosida tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" bo'yicha Davlat bojxona qo'mitasining chora-tadbirlar rejasining birinchi bandida Madaniy boyliklarni noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilash vazifasi qo'yilgan[6].

Shunga qaramasdan, tarixiy, ilmiy, badiiy yoki boshqa madaniy qimmatga ega bo'lgan ashyo yoki hujjatlarni qonunga xilof ravishda egallash, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar xalqlarining badiiy, tarixiy va arxeologik merosi ashyolarini O'zbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaslik, qonunga xilof ravishda madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish holatlari bo'yicha ma'muriy va jinoyat qonunchiligida alohida normaning mavjud emasligi, mazkur turdagi huquqbuzarliklar uchun alohida ma'muriy va jinoyat qonunchiliklariga o'zgartirishlar kiritish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishini qarshi kurashish va javobgarlikni takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni bildiramiz:

1-taklif. Madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish harakatlarini oldini olish bo'yicha

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 182¹-moddasini (*Madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish*) kiritish;

Madaniy boyliklarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tganlik uchun javobgarlikni takomillashtirish maqsadida alohida yangi normani kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu modda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182-moddasi bilan bir xil holatda emasligi bilan ajralib turadi, mazkur taklif etiladigan moddaning 2-qismida ko'p miqdorda va 3-qismida esa juda ko'p miqdorda bojxona chegarasidan madaniy boyliklarni o'tkazishda ifodalanadi.

Shuningdek, davlat tomonidan muhofaza ro'yxatlari reyestrlariga kiritilgan madaniy boyliklarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq holatlarda birinchi marta ma'muriy javobgarlikka tortilgan so'ng jinoiy javobgarlikni belgilashdir.

2-taklif. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga 227²⁸-moddasini (*Madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish*) kiritish.

Bunda, fuqarolar va xorijiy turistlar tomonidan bojxona chegarasi orqali asosan ahamiyati va qiymati past bo'lgan madaniy buyumlarni olib o'tish holatlarini inobatga olib, madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish harakati to'g'ridan-to'g'ri og'ir jinoyatlar toifasiga kiritmasdan, huquqbuzarlik holatini birinchi marotaba sodir etgan fuqarolarni ma'muriy javobgarlikka tortish.

Yuqoridagi takliflarning milliy qonunchilikka joriy etilishi natijasida, madaniy boyliklarni o'g'irlanishi va talon-taroj qilinishiga, vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklarni qaytarilishiga va madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda javobgarlikni ta'minlash bilan birga mamlakatimizdagi madaniy boyliklarni himoya qilishda hamda kelajak avlodga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023-yildagi.
<https://lex.uz/uz/docs/-6445145#-6445635>
2. O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi O‘RQ 678-I-sonli
“Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi Qonuni.
<https://lex.uz/docs/24377>
3. O‘zbekiston Respublikasining 30.08.2001-yildagi O‘RQ 269-I-sonli
“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi
Qonuni <https://lex.uz/docs/25461>
4. C.Rahimov. “Bojxona organlarining madaniy boyliklar kontrabandasiga
qarshi kurashish faoliyatini takomillashtirish” mavzusida maqolasi Jamiyat va
innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue –
01 (2023) / ISSN 2181-1415 163.
5. F.Abduqodirov. “Madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston
Respublikasidan olib chiqish va olib kirish bilan bog‘liq qilmishlarni
kriminalizatsiya qilishning asoslari” mavzusida maqolasi O‘zbekiston Bojxona
axborotnomasi iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-amaliy jurnalining 2023-yil dekabr oyidagi
2-sonida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
21.07.2022-yildagi “O‘zbekistonda madaniy boyliklarning noqonuniy
aylanmasining oldini olish, xorijda saqlanayotgan madaniy boyliklarni qaytarish
hamda ushbu sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish bo‘yicha
qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 397-sonli Qarori.

HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA OFITSER KADRLARNING KASBIY KOMPETENTLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH

O'razbayev Nemat Komilovich,

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi
Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida boshlig'i,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Turayev Laziz Shokirovich,

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi
Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada harbiy ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi ofitserlarning kasbiy kompetentligining o'ziga xosligi, ofitserlarning kasbiy madaniyatini oshirish, bu borada ularning nazariy va amaliy tafakkurini yuksaltirish hamda tezkor (operativ) amaliyot muammolarini mantiqiy tahlil madaniyatini kuchaytirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, ofitser kadrlar, ofitserlarning kasbiy kompetentligi, oliy harbiy ta'lim muassasasi, harbiy faoliyat.

Globalashuv jarayonlarida ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda. Chunki bugungi kunda harbiy pedagogikadagi asosiy masalalardan biri ofitserlar kadrlarning kasbiy tayyorgarligini ulardan talab etiladigan amaliy tayyorgarlik darajasiga muvofiqligini ta'minlash asosida kasbiy tayyorgarlik mazmunini fan-texnika va ishlab chiqarish taraqqiyotining tezkor o'zgarishlariga moslashtirish, nostandart vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish, shuningdek kasbiy-amaliy vazifalarni to'laqonli bajarish uchun zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bugungi kunda ofitser kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasiga ham ilmiy ham pedagogik nuqtayi nazardan yangicha yondashuv zaruratini shakllantirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar harbiy xizmatchilarni har tomonlama mukammal mutaxassis sifatida shakllantirish imkonini yanada kengaytirmoqda. Bu jarayonda oliy harbiy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak ofitserlarga berilayotgan bilim va ko‘nikmalar, ularni intellektual salohiyati, dunyoqarashi va tafakkurini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi shart”[1], degan da‘vatlari asosida: professional tarkibdagi armiyani shakllantirishga, shuningdek yuqori malakali, kasbiy mahorat va jangovar qobiliyatga ega bo‘lgan, o‘z individual — shaxsiy, ijtimoiy xususiyatlari bilan harbiy kasb talablariga to‘liq javob bera oladigan professional kadrlar bilan ta‘minlash masalasiga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda.

Bunda ofitser kadrlarning kasbiy kompetentligini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish hamda oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘quv jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan davlat ta‘lim standartlarini joriy etish yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda esa ofitserlarni tayyorlashda ularning kasbiy kompetentligini takomillashtirish, oliy harbiy ta‘lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta‘minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ofitserlar kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini ishlab chiqish hamda ularning kasbiy kompetentligining takomillashganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslash va ilmiy jihatdan tadqiq etish kabi muhim vazifalar mavjud.

Kompetentlik tushunchasi (lotinchadan *competensia*, *competere* so‘zidan olingan bo‘lib – “birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman” degan ma‘noni beradi) lug‘atlarda esa “nimanidir to‘g‘risida fikr yuritishga yo‘l beradigan bilimlarga ega bo‘lish”, “xabardor bo‘lmoq, huquqli bo‘lmoq” degan ma‘noni bildiradi. Amalda barcha lug‘at tuzuvchilar “kompetentlik” va “kompetensiya” kategoriyalarini chegaralab qo‘yadi. Kompetentlik ta‘rifi o‘xshash va bir-birini o‘rnini egallaydi

(to‘ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so‘zi uchun yagona izohlash yo‘q, bu tushuncha “vakolatlar yig‘indisi qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo‘yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar”, “nimanidir to‘g‘risida fikr yuritishga yo‘l beradigan bilimlarga ega bo‘lish (egalik qilish)”, “kimdir yaxshi xabardor bo‘lgan savollar to‘plami” tushuniladi. [2];

Bugungi kunda ofitserlarning kasbiy kompetentligini tizimi va mazmunini yoritish maqsadida ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi bo‘yicha bir qator izlanuvchilar ta‘riflariga to‘xtalib o‘tamiz.

Ilmiy izlanuvchi N.M.Muslimov kompetensiya — bu qobiliyat demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi deb aytib o‘tgan [3].

Ilmiy izlanuvchi K.Risqulova esa o‘zining tadqiqotida “Kompetensiya tushunchasi u yoki bu kasb egasiga zarur bo‘lgan sotsiologik qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me‘yorlar yig‘indisini anglatadi, kompetentlik esa shaxs amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, kompetensiya me‘yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir” [4] deya izohlaydi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga tayangan holda ushbu atamani mazmun va mohiyatini ya‘ni “Kompetentli ofitser – yuksak harbiy, kasbiy bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan, yuqori darajada intellektual salohiyatga ega, mukammal jismoniy tayyorgarlikdan o‘tgan, g‘oyaviy jihatdan shakllangan, zamonaviy harbiy texnika va qurollardan maqsadli foydalana oladigan, o‘z xalqiga, Prezidentiga sadoqatli, Vatan sha‘ni va qadr-qimmatini doim himoya qiluvchi, kimga va nima uchun xizmat qilayotganligini to‘liq anglab yetgan professional shaxsdir” deb izohladik.

Yevropa mamlakatlari olimlari tomonidan kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mazmun mohiyati turlicha izohlangan. “Kompetentlik” tushunchasi to‘g‘risidagi dastlabki fikrlar Buyuk Britaniyalik psixolog olim Djon

Raven tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u kompetentlikning xususiyatlari to‘plamini 5 yagona bir tizimga birlashtiradi [5].

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari olimlari S.A.Batyushkin [6], D.V.Mesheryakov [7] va boshqalarning ilmiy qarashlarida oliy harbiy ta‘lim muassasalarida harbiy xizmatchilarning ma‘naviy-axloqiy, professional va jangovar xususiyatlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ilgari suradi.

Bizning nazarimizda, Ofitserning kasbiy kompetentligi — harbiy soha mutaxassislari tomonidan alohida bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishini emas, balki har bir tarkibiy qism bo‘yicha tegishli bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarning o‘zlashtirilishini nazarda tutgan holda o‘z sohasi bo‘yicha kasbiy bilimlarini doimo boyitib borishni, axborotlarni o‘rganishni, bugungi zamon talabiga mos ravishda fikrlay olishni, axborot texnologiyalaridan mukammal darajada foydalana olishni, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Oliy harbiy ta‘lim muassasalarida ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivovlantirishning asosi sifatida quyidagilarni qarash mumkin:

- doimiy ravishda o‘z bilimlarini izchil boyitib borish;
- axborot vositalaridan foydalanib yangi axborotlarni o‘zlashtirish;
- zamonaviy talablarni chuqur anglash, yangi bilimlarni izlab topish;
- murakkab jarayonlarda noaniq vazifalarni bajarish va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish;
- bir-biriga zid ma‘lumotlardan oqilona va o‘rinli foydalanish va tahlil qila olishni.

Oliy harbiy ta‘lim muassasalarida harbiy-kasbiy kompetentlikning mazmuni bir qator xususiyatlarga ega ekanligini aniqlashda harbiy faoliyatning maqsadi, vazifalari va tasnifi quyidagicha belgilandi:

harbiy-kasbiy kompetentlikning mazmuni jamiyat buyurtmasi bilan bog‘liqligi va ular qonunlar, harbiy nizom va buyruqlar bilan huquqiy mustahkamlanganligi;

harbiy faoliyat vazifalarining ko‘p qirraliligi va ularning ekstremal xarakterga egaligi;

harbiy mehnat natijalarining davlat milliy xavfsizligi va boshqalarni ta'minlashga yo'naltirilganligi.

Mazkur xususiyatlar sirasiga harbiy-kasbiy kompetentlik qobiliyat va harbiy faoliyatning real vaziyatlarida, bilim, ko'nikma, mohirlik, professional va hayotiy tajribalarni, qadriyatlar va madaniyatni qo'llagan holda, professional muammolar va vazifalarni hal etishga shaylikdan iborat integrativ jihatlarni ham kiritish zarur.

Yuqorida keltirilgan nazariy tahlillardan kelib chiqqan holda ofitser kadrlarning "kasbiy kompetentlik" tushunchasi mazmuni va tuzilmasini shakllantirishda uning o'ziga xos psixologik-pedagogik yondashuv asosida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Ma'lumki, ofitser kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish integrallashgan kasbiy sifatlar majmuasi sifatida tushunilib, bunda kasbiy yo'nalganlik, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy va hayotiy tajriba, madaniyat va qadriyatlar tizimi alohida o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunga kelib oliy harbiy ta'lim muassasalarida ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish darajasiga sezilarli ta'sir etuvchi asosiy omillar (harbiy — pedagogik, texnologik, diagnostik va kasbga ta'lluqli) ekanligi tizimli tahlili asosida, ushbu omillarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirining baholanishi ofitser kadrlarning kasbiy kompetentligini mazmuni va strukturasini rivojlantirish uchun zarur psixologik va pedagogik shart-sharoitlar yaratishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. — 592 b.
2. Ro'ziyeva D.I, Kasimova Z.X "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" darsligi (2023). 61-62 b
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A va boshq. Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyalari. Metodik qo'llanma. – TDPU. 2014. -101 b.

4. Mamatqulov X.A. Pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish // ped.fan. bo'yicha falsafa. dokt. (PhD) ilmiy dar.uchun diss. – T., 2017. – 174. b.

5. Равен Дж. Компетентност в современном обществе: выявление, развитие и реализация / пер.с.англ. — М.: «Когито-Сентр», 2002. -396 с.

6. Батюшкин С.А. Военное образование – проблемные вопросы и пути их решения / С.А. Батюшкин, А.А. Корабелников // Вестник академии военных наук. – 2013. – №2(43) – С. 105-110.

7. Мещерякова Е.И. О формировании культуры самостоятельной деятельности курсантов в креативно-акцентных системах обучения / Е.И.Мещерякова. – Воронеж: ВГУ, 2003. – 124 с.

BOJXONACHILARNING SALOHİYATLI TA'LIM MASKANI

Shadmankulov Ablakul Shadmankulovich

Alfraganus universiteti dotsenti,

iqtisod fanlari nomzodi, bojxona faxriysi

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Toshkentdagi Bojxona instituti faoliyatining yo'nalishlar kesimida tahliliy ma'lumotlar keltirib, institut faoliyatining kelgusidagi ustuvor yo'nalishlari yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Bojxona, kontrabanda, bojxona to'lovlari, bitiruvchilar, elektron platforma, ilmiy salohiyat.

Mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, bu yo'lda bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'lgan, azm-u shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish biz uchun eng muhim masaladir.

Shavkat Mirziyoyev

Jamiyatimizda kamsonli bo'lsa-da yurtimiz uchun o'ta muhim vazifalarni bajarib kelayotgan bojxonachi kasbining egalari bor. Ularga asosan chegarani kesib o'tayotgan shaxslar yoki tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirayotgan tadbirkorlar hayotda ko'proq duch kelishadi. Aholimizning boshqa qatlamida bojxonachi kasbi haqida ma'lumotga kamroq ega bo'lishadi. Maqolada bojxonachilar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasasi – Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti haqida ma'lumot berishga jazm qildik.

Mamlakatimizning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, kontrabandaga oid jinoyatlar va bojxonaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish, aniqlash, bojxona to'lovlarini undirish kabi aholi manfaatlarini hamda mamlakat ravnaqi uchun xizmat qilishda bojxona organlarining o'rni beqiyos. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun bojxonachilardan bir vaqtning o'zida huquq, iqtisodiyot, psixologiya, tabiiy, aniq fanlar va boshqa yo'nalishlardagi bilimlarga ega serqirra hamda mukammal inson bo'lishi talab etiladi.

Ma'lumot uchun: So'ngi 3 yil mobaynida bojxona organlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasida erishilgan ko'rsatkichlarning ayrimlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, fiskal yo'nalishda 2023-yilda 58,4 trln. so'm bojxona to'lovlari davlat byudjetiga undirilib, 2020-yilga (24,7 trln. so'm) nisbatan 2,4-martaga oshgan. Shuningdek, 2023-yil davomida aniqlangan huquqbuzarliklar natijasida 9207,5 kg. giyohvandlik vositalarini noqonuniy aylanishi oldi olinib, 2020-yilga (280,2 kg.) 32,9 karraga keskin oshgan.

Bojxonachilar qayerda ta'lim oladi? Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo'lgan va Toshkent shahrida joylashgan Bojxona instituti yurtimizga oliy ma'lumotli bojxonachi kadrlarni tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim muassasasi hisoblanadi. Mazkur institutga dastlab 2003-yilda asos solinib, 21 yildan ortiq vaqt mobaynida bojxona tizimiga “Bojxona ishi”, “Yurisprudensiya” ta'lim yo'nalishlarida malakali ofitser kadrlar tayyorlab kelmoqda. Bojxona organlari shaxsiy tarkibining $\frac{1}{2}$ qismida institut bitiruvchilari fidoiylilik va sadoqat bilan samarali xizmat olib bormoqda. Kelgusida ushbu hissani yanada oshirib borish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbarining qaroriga muvofiq, 2018-yildan boshlab oliy

ma'lumotli bojxonachilar tayyorlash tizimi ikki (bakalavriat, magistratura) bosqichga ajratildi va ta'lim-tarbiya jarayoni takomillashtirildi.

Ta'lim muassasasi nufuzini belgilashda uning bitiruvchilarining karyerasi muhim rol o'ynaydi. Institut "yosh" bo'lsa-da, bitiruvchilar orasidan ayrimlari Bojxona qo'mitasi markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari hamda hududiy boshqarmalarda rahbar lavozimlarda xizmat qilmoqda. Shuningdek, bitiruvchilarning 5 nafari bojxona ishiga oid mavzularda PhD doktorlik dissertatsiyalarini yoqladi. Bitiruvchilarning ikki nafari Belgiyaning Bryussel shahrida joylashgan Jahon bojxona tashkilotida faoliyat yuritdi.

Institutda ta'lim olish qanday amalga oshiriladi? Bakalavriat bosqichidagi kursantlar to'liq davlat ta'minotida (oziq-ovqat, stipendiya, formal kiyim-bosh, turar-joy va boshqalar) harbiylashtirilgan tartib asosida ta'lim olib, o'qishni bitirganidan so'ng yurtimizning turli hududlarida joylashgan bojxona sarhadlarida xizmatni o'tash uchun yuboriladi. Magistratura bosqichiga amaldagi bojxona xodimlari qabul qilinib, o'qishni bitirgach ulardan rahbar kadrlar zaxirasi shakllantiriladi va bojxona organlarida xizmat faoliyatini davom ettirishadi.

Institutning "Bojxona ishi" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi 2022-yilda Jahon bojxona tashkilotining bojxonachilarga belgilagan professional standartlari — PICARD (Partnerships in customs academic research and development) dasturi bo'yicha xalqaro akkreditatsiyadan o'tdi. Natijada bitiruvchilarning oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplomi xalqaro darajada tan olinishiga erishildi. Dunyo miqyosida 29 ta ta'lim muassasasi bu kabi xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan.

Shuningdek, mazkur yilda institut yurtimizning ta'lim sifati bo'yicha milliy akkreditatsiyasidan ham muvaffaqiyatli o'tgan. Kursantlarning o'quv amaliyoti va stajirovkasi bevosita Bojxona qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida tashkil etish yo'lga qo'yilgan.

Institutning pedagogik va ilmiy salohiyati. Institut professor-o'qituvchilari bojxona xodimi hisoblanib, bojxona organlarida xizmatni o'tash to'g'risida Nizom asosida xizmat faoliyatini olib borishadi. Institut tarkibida 2ta fakultet tarkibida 9ta

kafedra tashkil etilgan. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, so‘ngi yillarda institut pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati 16 foizga oshib, bugungi kunda jami pedagog xodimlarning 52 foizi ilmiy daraja va unvonlarga ega hisoblanadi. Bojxona sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadida 2024-yilda institut tarkibida Ilmiy markaz tashkil etildi. Shuningdek, ustozlar ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish bilan bir qatorda bojxona organlarida uzoq yillik amaliy tajribaga ham ega. Ta’lim – amaliyot – fan uyg‘unligini ta’minlash maqsadida institut xodimlarini bojxona organlarida stajirovka o‘tashlari davriy tashkil etilgan.

So‘nggi 5 yil davomida institutda yangi avlod o‘quv adabiyotlari bilan uslubiy ta’minlashga alohida e’tibor qaratilib, o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar bilan to‘liq ta’minlandi. Axborot-resurs markazi elektron o‘quv adabiyotlar fondi boyitildi. O‘quv jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish yuzasidan maxsus elektron platforma ishlab chiqilib, sinov tariqasida ishga tushirildi. Bular kursantlarning zamonaviy bilimlarni egallashiga muhim hissa qo‘shmoqda.

Kursantlarning ma’naviyati va xulq-atvorini yuksaltirish, Vatanga sadoqat va fidoiylilik bilan xizmat qilish ruhida tarbiyalash maqsadida yurtimizning taniqli madaniyat xodimlari, shoir va yozuvchilar, sportchilar, tajribali bojxonachilar bilan muntazam uchrashuvlar hamda mashg‘ulotlar tashkil etilmoqda.

Institutning moddiy-texnik bazasi. Institutda kursantlarning tahsil olishi, yashashi, ovqatlanishi, jismoniy chiniqishi uchun zarur bo‘lgan o‘quv bino, yotoqxonalar, oshxona, sport majmuasi, harbiy tayyorgarlik va o‘q otish maydonlari mavjud. O‘quv bino zamonaviy jihozlangan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishga mo‘ljallangan o‘quv auditoriya hamda laboratoriyalarga ega. Yotoqxonalarda dam olish uchun zarur yangi mebellar bilan jihozlangan xonalar mavjud bo‘lib, ularning har biri hojatxona hamda yuvinish xonalariga ega. Oshxonada kursantlar yetarli kaloriyada sifatli oziqlanishi uchun uch mahal ovqatlanish “Autsorsing” talablariga muvofiq tashkil etilgan.

Kursantlarning jismoniy chiniqishi uchun mavsumga mos ochiq va yopiq turdagi futbol, minifutbol, futzal, tennis, basketbol, voleybol maydonlar, suzish

havzalari, trenajor zallar, sport majmuasi mavjud bo'lib ularda kursantlarning jismoniy shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratilgan. Shu bilan birga 7 turdagi sport bo'yicha to'garaklar tashkil etilgan. Kursantlar va xodimlar jismoniy tayyorgarlik holatini aniqlash maqsadida sinovlar davriy tashkil etiladi. Kursantlarimiz armresting, belbog'li kurash, qo'l jangi, karate kabi sport turlari bo'yicha respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqda.

Kursantlarning harbiy tayyorgarlik darajasini muntazam oshirib borish maqsadida dala-harbiy o'quv mashg'ulotlari, saf tayyorgarligi, quroldan foydalanish hamda o'q otish kabi yo'nalishlarda muntazam darslar tashkil etiladi.

Kelgusidagi ustuvor yo'nalishlar. Jahonda shiddat bilan yuz berayotgan globallashuv jarayonlari mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga hamda bojxona organlari oldiga zamon talablariga hamnafas bo'lgan islohotlarni izchil davom ettirishni taqozo etmoqda. Jumladan, oliy ma'lumotli bojxonachi ofitser kadrlarni kelajak zamon talablariga mos ravishda tayyorlash maqsadida Bojxona instituti oldiga bir qator yo'nalishlar belgilangan. Jumladan:

bojxonaning sohaviy yo'nalishlari bo'yicha professiolashgan tarzda o'quv jarayonini tashkil etish, ularning tashkiliy-huquqiy, uslubiy asoslarini yaratish;

bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayonlarida inson omili ishtirokini qisqartirish hamda sun'iy intellektdan foydalangan holda raqamlashtirishni yanada rivojlantirishga hissa qo'shadigan kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqish;

iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shadigan oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish borasida yurtimizning boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkin-ki, Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo'lgan Bojxona instituti o'z faoliyatini jadal borayotgan xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlariga mos ravishda takomillashtirib bormoqda hamda Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga shay zamonaviy bilimlarga ega oliy ma'lumotli bojxonachilarni tayyorlash borasida aniq strategiyaga ega

barqaror muassasa deb hisoblanadi va kelgusidagi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent — 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.11.2018 y PQ-3995-son Qarori “O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.05.2003-y. 229-son qarori “[O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida](#)”.
4. <https://new.customs.uz/uz/>

HARBIY TA'LIM TIZIMLARIDA KASBIY MADANIYAT SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MASALALARI

Nurmatov Ulug'bek Islambekovich

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti

“Bojxona nazorati” kafedrasi katta o'qituvchisi

Sobirova Zulfizar Tilavboy qizi

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti

2-kurs 423-guruh kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqola harbiylashtirilgan ta'lim tizimida kasbiy madaniyatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy va falsafiy omillarni tahlil qilishga asoslangan. Unda kasbiy madaniyat tushunchasi, oliy harbiylashtirilgan ta'lim dargohlari, Bojxona instituti kursant-tinglovchilari va tizimning kadrlari faoliyatida ushbu tushunchaning o'rni, uning ahamiyati va harbiy kadrlar tayyorlash jarayonidagi o'rni yoritiladi. Harbiylashtirilgan ta'lim tizimidagi muammolar va

rivojlanish yo'llari, bojxona sohadagi kasbiy madaniyatning alohida tahlili keng ko'lamda muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy madaniyat, harbiylashtirilgan ta'lim tizimi, bojxonada kasbiy madaniyat, ijtimoiy-falsafiy masalalar, harbiy kadrlar, bojxona xodimi, madaniy shakllanish.

Bugungi kunda harbiylashtirilgan ta'lim tizimi davlat ijtimoiy hamda iqtisodiy xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Harbiy xizmatchilar nafaqat professional mahoratga, balki yuqori darajadagi kasbiy madaniyatga ega bo'lishlari lozim. Kasbiy madaniyat – bu nafaqat harbiy xodimlarning o'z kasbiga bo'lgan munosabati, balki ularning jamiyatdagi roli va axloqiy tamoyillarni qanchalik chuqur anglashlarining ko'zgusidir. Shu bois, harbiylashtirilgan ta'lim tizimida kasbiy madaniyatni shakllantirishga doir ijtimoiy va falsafiy masalalarni o'rganish dolzarbdir.

Harbiy xizmatning axloqiy va madaniy jihatlari nafaqat shaxsiy intizomni, balki jamoaviy hamjihatlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jihatlar milliy xavfsizlik va xalqaro tinchlikni saqlashda asosiy vositalardan biri sifatida talqin qilinadi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatning axloqiy va madaniy jihatlari xalqning ma'naviyati va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlar va tarixiy yodgorliklari, shuningdek, uning ma'naviy merosi, harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda o'tmishda yaratilgan ma'naviy meros va harbiy sarkardalar jasoratidan bahramand etishni talab etmoqda. Bu haqda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayoti qadriyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi”, deya ta'kidlab o'tgan edi[1].

Kasbiy madaniyat tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, harbiy kadrlarning kasbiy faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Ta'lim jarayonida kasbiy madaniyatning quyidagi asosiy komponentlari shakllantiriladi:

- Ma'naviy va axloqiy tamoyillar – xodimlarning Vatanga sadoqati va xizmat vazifalarini bajarishdagi mas'uliyati. Ushbu tamoyillar shaxsiy intizom va jamiyat oldidagi mas'uliyatni ifodalaydi.

- Kompetensiya va ko'nikmalar – zarur bo'lgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning uyg'unligi. Bu professional mahoratni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

- Jamoaviy madaniyat – jamoada samarali muloqot qilish qobiliyati, rahbar va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi sog'lom muloqotni ta'minlash.

Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida kasbiy madaniyatni shakllantirish xodimlarni nafaqat texnik va taktik jihatdan, balki axloqiy nuqtayi nazardan ham tayyorlashga qaratilgan.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish ikki yo'l bilan ifodalanishi mumkin: jarayon sxemasiga va faoliyat tuzilishiga ko'ra. Shunga asoslanib, harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin:

1) tashkiliy-maqсадli bosqich:

harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish maqsadlarini belgilash; harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligini rejalashtirish; harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini samarali shakllantirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish;

2) amalga oshirish bosqichi:

tanlangan maqsadga muvofiq tarbiyaviy ishlarni tashkil etish; to'g'ridan-to'g'ri rasmiy maqsadlar uchun vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan harbiy kasbiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish; kasbiy madaniyatni o'rganishning eng maqbul tashkiliy shakllarini yaratish;

3) natijali-baholash bosqichi:

harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda maqsadlarni belgilashni tahlil qilish va aniqlashtirish; kasbiy madaniyatning barcha tarkibiy elementlarining muvofiqligini aniqlash va tuzatishlar kiritish; kasbiy madaniyatni rivojlantirish jarayonining samaradorligini tahlil qilish, baholash va maqbul natijalarga erishish uchun uni tuzatish; kasbiy madaniyatni baholash; kasbiy madaniyatni rivojlantirish va uni tuzatish[2].

Shu asnoda normativ-huquqiy hujjatlar har sohada eng muhim ahamiyatga ega ekanligini va har bir faoliyatning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilganligini hisobga olgan holda, hamda "harbiylashtirilgan ta'lim" tushunchasini kengroq yoritib berishimiz uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.10.2021-yildagi 655-sonli "Oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarorga e'tibor qaratishimiz zarur. Qarorning 1-ilovasi bilan Nizom tasdiqlangan va unga ko'ra:

- oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari — xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida ta'lim oluvchilarni ixtisoslik (mutaxassislik) fanlariga kasbiy yo'naltirish hamda maqsadli tayyorlashni nazarda tutadigan, davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlari talablariga muvofiq ravishda o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshiradigan oliy ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalaridir.

"Ta'lim oluvchilarni mutaxassislik fanlari bo'yicha chuqurlashtirilgan va kasbga yo'naltirilgan holda o'qitish, ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash hamda ularni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim muassasalari faoliyatining maqsadi hisoblanadi."

Qarorning 2-ilovasida keltirilganidek, oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari Ichki ishlar vazirligining akademiyasi va Davlat bojxona qo'mitasining Bojxona institutidir[3].

Yuqoridagi ta'lim muassasalarining maqsadlari va vazifalari bo'yicha bojxona sohasida kasbiy madaniyatni shakllantirishda yondashuvlarni ko'rib chiqamiz. Xususan, ta'lim muassasalari faoliyatining asosi sifatida ta'lim

oluvchilarni chuqurlashtirilgan bilim va kasbiy tayyorgarlik bilan ta'minlash, ularning intellektual va ma'naviy jihatdan rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadi yotadi. Bu jarayon harbiylashtirilgan ta'lim tizimida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu sohalarda yuqori malakali mutaxassislarni tarbiyalash nafaqat kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni, balki xizmat faoliyatining yuksak madaniyat va axloqiy tamoyillar asosida tashkil etilishini talab etadi. Shu bois, davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va amaliy jarayonlarni birlashtirgan holda ta'lim tizimi kadrlarning kompleks tayyorligini ta'minlashi lozim.

Bojxona sohasi o'zining harbiylashtirilgan tabiati va mas'uliyat darajasi bilan ajralib turadi. Bu esa ta'lim tizimidan kadrlarni nafaqat mahoratli mutaxassis, balki jamiyat va davlat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yuvchi shaxslar sifatida shakllantirishni talab qiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator vazifalar amalga oshiriladi.

Ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash jarayonida ular ongida Vatanga, jamiyatga va oilaga muhabbatni shakllantirish, insonparvarlik tamoyillarini singdirish ta'lim muassasalarining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonda interfaol usullar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bojxona ta'lim tizimining samarali faoliyati uchun ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash zarur. Bu o'quv jarayonini amaliyotga yaqinlashtiradi, kadrlarning kelgusida faoliyat yuritish jarayoniga tez moslashuvchan bo'lishiga yordam beradi.

Bojxona sohasi faoliyatida huquqiy madaniyatning yuqori bo'lishi shart. Shu sababli, ta'lim tizimi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlarini ham ishlab chiqadi.

Yuqoridagi barcha jihatlar bojxona sohasida kasbiy madaniyatni shakllantirishning murakkab va ko'p qirrali jarayoni ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu jarayon kadrlarning zamonaviy bilim va axloqiy fazilatlariga ega bo'lishini ta'minlash orqali nafaqat davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, balki xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishiga ham hissa qo'shadi.

Shu bilan bir qatorda Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyatini shakllantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar borasida eslatib o‘tishimiz kerak bo‘lgan ma’lumotlar ham yetarlicha. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-sonli Qaroriga ilovada Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksi tasdiqlangan. Ichki ishlar organlari xodimlari, kasb madaniyati bo‘yicha ushbu kodeksga muvofiq, xushmuomala, e’tiborli, ehtiyotkor, fuqarolar va hamkasblariga nisbatan bag‘ri keng bo‘lishi lozim. Ular fuqarolarga qo‘pol muomalada bo‘lmasligi, sha’ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Ushbu hujjatda keltirilgan kasbiy madaniyat qoidalarini, lavozimidan qat’i nazar, barcha Ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan qo‘llaniladi. Xodimlar quyidagi kasbiy madaniyat qoidalariga rioya qilishi shart:

- fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala, kamtar va bosiq bo‘lish, ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va boshqa omillardan qat’i nazar, har qanday shaxs, guruh yoki tashkilotlarning kamsitilishi yoki afzal ko‘rilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- O‘zbekiston va boshqa davlatlar xalqlarining urf-odatlarini va an’analarini hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy va boshqa xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy barqarorlikni, millatlararo va dinlararo totuvlikka ko‘maklashish;

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida qonuniy ko‘rib chiqish;

- o‘z xizmat burchini vijdonan bajarishda fuqarolarda shubha uyg‘otadigan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, ichki ishlar organlarining obro‘sigacha salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltirmaslik;

- fuqarolar va boshqa shaxslarning o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish;

- xizmat vazifalarini bajarishga to‘sqinlik qilishi yoki ularni bajarishda har qanday shaxsiy, mulkiy yoki boshqa manfaatlarga daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan harakatlardan (harakatsizlikdan) saqlanish;

- o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida guruhbozlik, mahalliychilik, qarindosh-urug'chilik ko'rinishlarining, shuningdek, boshqa salbiy holatlarning oldini olish, ularga yo'l qo'ymaslik;

- ichki ishlar organlari faoliyati to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilishda rasmiy ommaviy axborot vositalari vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, shuningdek, ularga belgilangan tartibda ishonchli axborot olishda ko'maklashish;

- rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiiste'mollikka yo'l qo'ymasdan, o'z xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuqori professional darajada bajarish;

- ichki tartib qoidalariga, shuningdek, telefon orqali so'zlashish va kiyinish madaniyatiga qat'iy rioya qilish;

- ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatini muhokama qilmaslik, axloqqa zid ifodalarni ishlatmaslik, odamlarda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini uyg'otishi mumkin bo'lgan noxolis, subyektiv materiallarni joylashtirmaslik[4].

Kodeksda xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga hissa qo'shish majburiyati borligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, xodimlar jinoyat sodir etishga undalgan taqdirda, shuningdek, boshqa xodimlarning qonunbuzarliklari haqida xabar topganda, o'z rahbarlarini xabardor qilishi kerak.

Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tamizki, harbiylashtirilgan ta'lim tizimlarining asosiy maqsadi – yuksak ma'naviy va kasbiy madaniyatga ega, professional kadrlarni tayyorlashdir. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish uchun bir qator ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar zarur. Xususan, davlat ta'lim standartlariga mos ravishda kadrlarni tayyorlash, ularning intellektual va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash, milliy va global qadriyatlar uyg'unligini saqlash asosiy yo'nalishlardandir.

Normativ hujjatlarda belgilangan asosiy vazifalardan biri – ta'lim oluvchilarni o'z kasbiga yo'naltirilgan holda tayyorlash, ularning bilim va ko'nikmalarini zamonaviy talablar darajasida rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, Vatan, jamiyat va oilaga sadoqatli, yuqori darajadagi vatanparvarlik ruhiyatiga ega mutaxassislarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, interfaol va amaliy mashg'ulotlarni joriy etish, shuningdek, o'quvchilarni axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash zamonaviy ehtiyojlarga mos yondashuvlardan biridir. Ushbu choralar nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshiradi, balki xodimlarning madaniy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, ushbu sohalarida kadrlar tayyorlash tizimi milliy va xalqaro tamoyillarni uyg'unlashtirish, ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizmdir. Mazkur maqolada tahlil qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida xulosa qilish mumkinki, ta'lim tizimida uzluksiz rivojlanish, sifatli kadrlar tayyorlash va ularning madaniy-saviyaviy darajasini oshirish davlatning ustuvor maqsadlari qatoridan o'rin oladi. Bu jarayonda jamiyat va harbiy ta'lim tizimlari o'rtasidagi mustahkam aloqalarni rivojlantirish, organ xodimlarining kasbga mas'uliyat bilan yondashishi, hamda texnologik taraqqiyot yutuqlaridan samarali foydalanish asosiy omillar sifatida qaralishi lozim. Milliy va global qadriyatlarni uyg'unlashtirish, xodimlarning ma'naviy va professional darajasini oshirish orqali bu tizimni takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mavlonov F.F. "Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish jarayonini modellashtirishning o'ziga xos xususiyatlari". Toshkent, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.10.2021-yildagi 655-sonli Qarori: Manba Lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-sonli Qarori: Manba Lex.uz

HARBIY TA'LIM TIZIMIDA KASBIY MADANIYAT SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MASALALARI

Toshpo'lotova E'zoza Latifjonovna

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti

2-kurs 423-guruh kursanti

Annotatsiya: UShbu tezisda harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan tinglovchilarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish va uni ta'lim tizimida joriy qilishining usullari keltirib o'tilgan. Shuningdek, harbiy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishining zarur bo'lgan bilim va ko'nikma asoslari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Gumanitar fanlar, psixofizik yondashuv, o'quv modeli, ijtimoiy ong, harbiy ta'lim.

Harbiy kasbiy madaniyat — bu harbiy xodimlarning o'z kasbiga bo'lgan munosabati, ularning faoliyatini tashkil etishda qo'llaniladigan me'yorlar, qoidalar, an'analar, psixologik va axloqiy me'yorlar to'plami. Kasbiy madaniyat harbiy xodimlarning professional faoliyatini, shaxsiy fazilatlarini va o'zaro munosabatlarini shakllantiradi. Bu nafaqat harbiy bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi, balki etika, adolat, mas'uliyat va davlat manfaatlariga sadoqat kabi ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi.

Shuningdek, Ijtimoiy-gumanitar fanlar harbiy xodimlarning jamiyat bilan o'zaro aloqalarini, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantiradi. Ular harbiy xodimlarni o'z vazifalarini faqat jangovar kontekstda bajarish bilan cheklanmay, balki jamiyatga va o'z xalqi oldidagi mas'uliyatlarini tushunishga undaydi. Kasbiy madaniyatning shakllanishi ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali quyidagi jihatlar bilan bog'liq:

Axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni o'rgatish: Ijtimoiy-gumanitar fanlar, masalan, axloq, huquq, falsafa va tarixi, harbiy xodimlarga o'z kasbining ijtimoiy

mohiyatini va ularga bo'lgan axloqiy mas'uliyatni tushunishga yordam beradi. Ular harbiy xodimlarni davlat manfaatlariga sadoqatli xizmat qilishga, o'zlarining jamiyatdagi o'rinlarini va mas'uliyatlarini anglashga undaydi. Axloqiy fanlar, masalan, "**Harbiy etika**" kabi kurslar, harbiy xodimlarga to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi, chunki ular ijtimoiy va axloqiy normalarga mos keladigan fikrlash tarzini rivojlantiradi.

Ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasi: Harbiy xodimlar ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali jamiyatda o'z pozitsiyalarini tushunadilar. Bu ularni ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga undaydi. O'z xizmatlarini jamiyat va davlat uchun eng yaxshi tarzda bajarish, fuqarolik huquqlarini hurmat qilish, milliy xavfsizlikni ta'minlash kabi masalalar harbiy xodimlarga ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali o'rgatiladi. Ijtimoiy fanlar, masalan, huquq, siyosatshunoslik, sotsiologiya, harbiy xodimlarga fuqarolik mas'uliyatini, jamiyatga bo'lgan xizmatni va etika me'yorlarini tushunishga yordam beradi.

Gumanitar bilimlar, xususan, tarixi, madaniyat va falsafaga oid fanlar, harbiy xodimlarning nafaqat ma'naviy o'sishini, balki ular orasida milliy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham yordam beradi. Tarixiy va madaniy bilimlar, harbiy xodimlarga o'z xalqining madaniyatiga hurmat bilan qarashni, shuningdek, xalqaro nizolarda diplomatik yondashuvlarni qo'llashni o'rgatadi.

Tarix va madaniyat: Harbiy xodimlar o'z mamlakatining tarixini va madaniyatini yaxshi bilishlari, milliy qadriyatlarni anglashlari kerak. Bu ularga vatanparvarlikni, davlatga bo'lgan sadoqatni va o'z kasbiga bo'lgan hurmatni shakllantiradi. Tarixiy fanlar orqali o'rgatish, masalan, harbiy xizmatning ahamiyatini va tarixiy shaxslarning xizmatlarini o'rganish, kasbiy madaniyatni yuksaltirishda katta ahamiyatga ega.

Falsafa va etika: Harbiy xodimlar o'z faoliyatlarida yuqori axloqiy me'yorlarni qo'llashlari kerak. Gumanitar fanlar, masalan, falsafa va etika, harbiy xodimlarga to'g'ri qarorlar qabul qilishda, og'ir holatlarda qanday axloqiy nuqtayi nazardan qarorlar qabul qilishni o'rgatadi. Bu harbiy xodimlarga o'z ishlarida axloqiy va adolatli bo'lishga yordam beradi.

Psixologik jihatlar: Ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishi harbiy xodimlarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologiya va sotsiologiya kabi fanlar, harbiy xodimlarning o'zini va boshqalarni tushunish, stressni boshqarish, jamoa bilan samarali ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bularning barchasi harbiy xodimlarning kasbiy madaniyatiga ta'sir qiladi.

Quyida harbiy o'quv yurtlarida kasbiy madaniyatni oshirish uchun qo'llaniladigan ba'zi metodlar keltirilgan:

Interfaol ta'lim metodlari

Interfaol ta'lim metodlari harbiy xodimlarni nafaqat ma'lumot olishga, balki uni amaliyotda qo'llashga o'rgatadi. Bu metodlar orqali harbiy xodimlar kasbiy madaniyatni rivojlantirish uchun muhim ko'nikmalarni egallaydilar.

Simulyatsiyalar va treninglar: Jangovar vaziyatlarni, axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonlarini va jamoaviy ishni simulyatsiya qilish orqali harbiy xodimlar real sharoitda qanday harakat qilishni o'rganadilar. Bu metod kasbiy madaniyatni shakllantirishda samarali bo'lib, harbiy xodimlarga muammolarni hal qilishda axloqiy va strategik qarorlar qabul qilishni o'rgatadi.

Rollarni bajarish (role-playing): Rollarni bajarish metodida harbiy xodimlar o'zaro turli rollarda qatnashadilar, masalan, rahbar va ijrochi, jamoa a'zosi va boshqaruvchi, bu esa ularni axloqiy nuqtayi nazar va rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu metod kasbiy madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy va axloqiy fanlar o'qitish Harbiy o'quv yurtlarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish, kasbiy madaniyatni oshirish uchun juda muhimdir. Bu fanlar orqali harbiy xodimlar axloqiy normalar, fuqarolik mas'uliyati, rahbarlik, vatanparvarlik va davlatga sadoqat kabi qadriyatlarni o'zlashtiradilar.

Axloqiy va huquqiy tarbiya: Harbiy xodimlarga axloqiy, huquqiy va etika me'yorlarini o'rgatish, ularni ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatni anglashga undaydi. Misol uchun, "Harbiy etika", "Siyosatshunoslik", "Fuqarolik huquqlari va erkinliklari" kabi kurslar orqali harbiy

xodimlar nafaqat o'z kasblarini, balki jamiyatdagi o'rinlarini ham yaxshi tushunadilar.

Tarix va madaniyat: Harbiy xodimlarga o'z vatanining tarixini, madaniyatini va urf-odatlarini o'rgatish, ularda milliy qadriyatlar va vatanparvarlikni shakllantiradi. Bu ularni kasbiy madaniyatga mos ravishda harakat qilishga, o'z xizmatini vatan va xalq manfaatiga qaratishga yordam beradi.

Mentorlik va shaxsiy rivojlanish Mentorlik tizimi harbiy xodimlarning kasbiy madaniyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Mentorlik harbiy xodimlarga o'zlarining rahbarlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Mentorlik dasturlari: Harbiy o'quv yurtlarida ustoz-usta tizimi yoki mentorlik dasturlari orqali tajribali harbiy xodimlar yangi kursantlarga o'z bilimlarini, kasbiy madaniyat va axloqiy qadriyatlarini o'rgatadilar. Bu jarayon nafaqat kasbiy ko'nikmalar, balki kasbiy madaniyatning ijtimoiy va axloqiy tomonlarini ham rivojlantiradi.

Shaxsiy rivojlanish va mas'uliyatni oshirish: Harbiy xodimlar o'z shaxsiy rivojlanishiga e'tibor qaratishlari kerak. Bu orqali ular nafaqat o'zlarining kasbiy mahoratlarini, balki axloqiy va ma'naviy fazilatlarini ham oshirishadi.

Psixologik tayyorgarlik va stressni boshqarish Harbiy xodimlarning psixologik salomatligi va stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, kasbiy madaniyatni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Psixologik tayyorgarlik metodlari harbiy xodimlarga og'ir vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish, jamoa bilan ishlash, va stressni boshqarish bo'yicha zarur ko'nikmalarni o'rgatadi.

Stressni boshqarish: Harbiy o'quv yurtlarida stressni boshqarish bo'yicha treninglar va kurslar o'tkazish, xodimlarga murakkab vaziyatlarda o'z psixologik holatlarini boshqarish, aniq va maqsadli qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bu metod kasbiy madaniyatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Psixologik tayyorgarlik kurslari: Psixologik tayyorgarlik harbiy xodimlarni jamoa bilan ishlash, rahbarlik qilish, ijtimoiy mas'uliyatni anglash va axloqiy qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Ular psixologik qiyinchiliklarga qarshi

kurashishda o'z-o'zini anglash va boshqalar bilan samarali aloqa o'rnatishni o'rganadilar.

Jamoaviy ish va hamkorlik Jamoaviy ishni o'rgatish, harbiy xodimlarning kasbiy madaniyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Jamoaviy ish harbiy xizmatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarurdir, chunki harbiy xodimlar ko'pincha katta guruhlarda ishlashadi va bir-biriga ishonishlari kerak.

Jamoa o'yinlari va guruh ishlariga asoslangan treninglar: Jamoaviy ishlashni rivojlantirish va kasbiy madaniyatni oshirish uchun guruhlar orasida ishlash, guruhni boshqarish va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishni o'rgatadigan o'quv metodlari ishlatiladi.

Tadbirlar va kognitiv o'yinlar: Jamoaviy ishni rivojlantirish uchun harbiy xodimlar o'rtasida tanlovlar, tadbirlar, kognitiv o'yinlar va boshqa interfaol metodlar orqali jamoaviy yondashuvni shakllantirish mumkin.

Yuqoridagilar harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatlarini oshirish uchun qo'llaniladigan va qo'llanilishi kerak bo'lgan metod va usullar hisoblanadi. Albatta ushbu tarkibiy qismlarni amaliyotda qo'llayotganda ajratish juda ham muhim hisoblanadi, chunki bu jarayonlar o'rtasida biz ajrata olishimiz mumkin bo'lganchalalik katta farq yo'q. Amalda, ularning barchasi o'ziga xos va bir biri bilan uzviy aloqadorlik o'rnatadi, shu bois ham harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonlarida ularning har biri yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isayev, I. F. Professionalno-pedagogicheskaya kultura prepodavatelaya kak usloviye modernizatsii pedagogicheskogo obrazovaniya [Tekst] / I. F. Isayev // Pedagogicheskoye obrazovaniye i nauka. — 2004. — № 5. — S. 16-22. — ISSN 2072-2524.

2. Klarin, M. V. Texnologiya polnogo usvoyeniya [Tekst] / M. V. Klarin // Shkolnye texnologii : nauch.-prakt. jurnal shkolnogo texnologa (zavucha). — 2005.-№ 5.-S. 60-72.

3. Mavlonov F.F. Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy pedagogik asoslari. //Xalq ta'limi – Toshkent, 2022. № 5. –B. 35-40.

4. Yo.Ernazarova. Axloqiy madaniyat paradigmalarining xodimlar kasbiy madaniyati rivojiga ta'siri. // O'ZBEKISTON BOJXONA AXBOROTNOMASI (iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-amaliy jurnal). №2/2019

5. G.Asilova. Bojxona institutida kursant va tinglovchilarning mustaqil ta'limini takomillashtirish yo'nalishlari. // O'ZBEKISTON BOJXONA AXBOROTNOMASI (iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-amaliy jurnal). №2/2019

6. V.Ergashev. Bojxona sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari. // O'ZBEKISTON BOJXONA AXBOROTNOMASI (iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-amaliy jurnal). №1/2021

HARBIY TA'LIM TIZIMIDA KASBIY MADANIYAT SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MASALALARI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari to'plami

Bosishga 2024-yil __-dekabr ruxsat berildi
Times New Roman. Shrift 14. Qog'oz bosimi 60x84.
1\16. Bosma tobog'i 14.3 Adadi: __ nusxa
BQ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Qozirobod 2-tor ko'chasi 118.